

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

MUHANDISLIK TEXNOLOGIYASI FAKULTETI
“OOMT” KAFEDRASI

OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI ASOSLARI
fanidan ma'ruzalar matni

QARSHI-2022

Tuzuvchi:

Axmedov A.N. – QMII “OOMT” kafedrasi professori

Ma’ruza matni “OOMT” kafedrasining ____ yil ____ ____ dagi ____-sonli, Muhandislik texnologiyasi fakulteti Uslubiy komissiyasining ____yil ____ ____dagि ____ sonli yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilib tasdiqlangan.

No	Mundarija	bet
1	Kirish. Oziq ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarishning xomashyolari	
2	Oziq ovqat mahsulotlari texnologiyalarining ilmiy asoslari	
3	O‘simlik moylarini ishlab chiqarish texnologiyasi	
4	O‘simlik moylarini qayta ishlash xom ashylari va texnologiyasi	
5	Qattiq o‘simlik moylari ishlab chiqarish.	
6	Margarin assortimenti va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi	
7	Sovun ishlab chiqarish texnologiyasi	
8	Go‘sht, sut va konservalangan mahsulotlar texnologiyasi	
9	Sutni qayta ishlash va sut mahsulotlari texnologiyasi	
10	Konservalash usullari asoslari va konservalash mahsulotlari	
11	Don mahsulotlari umumiy texnologiyasi. Un ishlab chiqarish texnologiyasi	
12	Yorma mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi (don tozalash va oqlash bo‘limi)	
13	Non mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi	
14	Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi	
15	Bijg‘ish maxsulotlari va sharobchilik texnologiyasi	
16	Etil spirti ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi	
17	Uzumni qayta ishlash mahsulotlari	
18	Konyak ishlab chiqarishning asosiy jarayonlari	

KIRISH

«Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari» fanidan ma’ruzalar matnlari oziq-ovqat texnologiyasi fakulteti, 320000 – Ishlab chiqarishlar texnologiyasi, 230000– Iqtisod, 110000 – Pedagogika **ta’lim sohalarining** 5321000 - Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha), 5230200 – Menejment (oziq-ovqat soxasi bo‘yicha), 5111000- Kasb ta’lim (oziq-ovqat soxasi bo‘yicha) 5320500 – Biotexnologiya, 5320300 – Texnik mashina va jixozlari (oziq-ovqat sanoati mashina va jixozlari bo‘yicha) **bakalavriat yo‘nalishlarida** ta’lim olayotgan talabalarga, o‘quv rejasiga asosan 36 o‘quv soat xajmida o‘qishga mo‘ljallab, tayyorlangan 18 ta ma’ruzani o‘z ichiga oladi. Ma’ruzalar matnlarida oziq-ovqat sanoatining turli tarmoqlarida qo‘llaniladigan xomashyo, ishlab chiqariladigan oziq-ovqat maxsulotlari va chiqindilari hamda sanoatning turli tarmoqlarida qo‘llaniladigan texnologik jarayonlarning umumiyligi savollari va nazariy asoslari yoritilgan; yog‘ va moylar, don maxsulotlari, go‘sht, sut va konservalangan mahsulotlar, sharobchilik va bijg‘ish mahsulotlari ishlab chiqarishning prinsipial sxemalar bayoni keltirilgan.

1- MA’RUZA. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHNING XOM ASHYOLARI

Reja. Fani o’zlashtirish reytingi. O’simlik va xayvonot xomashyosi. Xomashyoni birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash korxonalar. Donli xomashyolar va ularning sifati. Meva va poliz xomashyosi. Asosiy moyli xomashyolar, ularning sifat ko’rsatkichlari. Xomashyolarni saqlash va qayta ishlashga tayyorlash. Saqlash va yo’qotishlar. Turli xomashyolarni saqlashning o’ziga xos tadbirlari. Saqlash jarayonida xomashyolardagi boradigan jarayonlar. Saqlash sharoitlari. Kuruq xomashyolarni qayta ishlashga tayyorlash. Xo’l meva va sabzavotlarni qayta ishlashga tayyorlash.

Oziq-ovqat sanoati korxonalar qayta ishlanadigan maxsulot turiga ko’ra ikki katta guruxga bo’linadi: 1.O’simlik xomashyolarini qayta ishlovchi korxonalar. 2.Xayvonot xomashyolarini qayta ishlovchi korxonalar.

O’simlik xomashyolarini qayta ishlovchi korxonalarining o’zi xomashyoni birlamchi qayta ishlovchi va xomashyoni ikkilamchi qayta ishlovchi soxalar korxonalariga ajratiladi. Xomashyoni birlamchi qayta ishlovchi korxonalarga un-yorma, sochma shakar, konserva, birlamchi vinochilik, spirt, tamaki va choy yaproq’ini birlamchi tayyorlash, o’simlik moyi ishlab chiqarish korxonalarini kiritish mumkin. Ularning xomashyosi don, meva va poliz ekinlari xosili, moyli urug’lar va hokazo. Xomashyoni ikkilamchi qayta ishlovchi soxalar korxonalariga non, makaron, konditer, oq qand, ikkilamchi vinochilik, choy tortish va sigareta tayyorlash, yog’ni qayta ishlash korxonalar (margarin, mayonez, sovun) kiradi. Bu korxonalar xomashyosi esa birlamchi qayta ishlash korxonalarining maxsulotlari: un, sochma shakar, o’simlik moyi, vinomateriallar va hokazo.

Oziq-ovqat sanoati maxsulotlarining turi qanchalik ko’p bo’lsa, xomashyolar xam turli-tumandir. Shuning uchun ularni xam asosiy xususiyatlari yoki kimyoviy tarkibiga ko’ra ayrim guruxlarga bo’lish mumkin. Masalan, quruq o’simlik xomashyolari va xo’l o’simlik xomashyolari guruxlariga yoki uglevodli xomashyolar, moyli xomashyolar, oqsilli xomashyolar va efir-moyli xomashyolar guruxlariga bo’lish mumkin.

Har qanday xomashyo biomaterial bo’lib, uning o’ziga xos xususiyatlari kimyoviy tarkibi, xujayra va to’qima strukturasi elementlari kabi ko’rsatkichlari bilan belgilanadi. Bu xomashyolar kimyoviy tarkibiga oqsillar, uglevodlar, lipidlar, vitaminlar, fermentlar va mikroelementlar kiradi.

Har bir guruxga mansub xomashyolar sifati o’ziga xos kattaliklar bilan o’lchanadi va aniqlanadi. Bu kattaliklar xomashyoning fizik, ximyoviy, texnologik, organoleptik va boshqa xususiyatlarini ko’rsatuvchi kattaliklar guruxlariga bo’linadi. Xususan, donning sifat ko’rsatkichlari besh guruxga bo’linadi: botanik-fiziologik ko’rsatkichlar – o’simlik turi, navi, unib chiqish davri va miqdori, unish energiyasi; organoleptik ko’rsatkichlar – rangi, mazasi, hidi; fizik ko’rsatkichlar – shakli va o’lchamlari, absolyut va natural og’irligi va boshqalar; mexanik ko’rsatkichlar – taranglik moduli, sochiluvchanligi, qovushqoqligi va boshqalar; kimyoviy ko’rsatkichlar – namligi, kul miqdori, kleykovina miqdori, kislotaliligi va boshqalar; texnologik ko’rsatkichlar – donning un ishlab chiqarish, non ishlab chiqarish yoki makaron ishlab chiqarish uchun yaroqli ekanligini ko’rsatuvchi maxsus kattaliklar.

Meva xomashyolari tuzilishi va o’simlik poyasida xosil bo’lishiga ko’ra 4 guruxga bo’linadi: urug’lilar (olma, nok, sitruslilar), danaklilar (olcha, gilos, olxo’ri, o’rik), yumshoq mevalar (uzum, smorodina, malina) va yong’oq mevalar (bodom, yong’oq, xandon pista).

Poliz xomashyolari 2 guruxga: vegetativ – yaproq, ildiz-poyalari ishlatiladigan (kapusta, salat, turp, piyoz, sabzi, katoshka, lavlagi va xokazo) va mevalilarga (qovoq, bodrin, tomat, no’xot va xokazo) bo’linadi.

Xomashyoni saqlash har qanday texnologik jarayonning tashkiliy qismi bo’lib, uning vazifikasi xomashyoni yo’qotishsiz yoki minimal chiqitli saqlash va xomashyo sifatini saqlab qolish yoki oshirishdir. Xomashyoni saqlash masalasini xal qilish uchun amalda qo’llaniladigan usullar turlari quyidagilardir:

1. Xomashyoni saqlashga tayyorlash (qo’shimchalardan tozalash, gavlarga ajratish, taralash yoki omborlash va hokazo).

2. Xomashyoni quritish (donlar va moyli urug’larni) yoki konservalash (meva va sabzavotlarni).
3. Atrof muhitda optimal sharoitlarni xosil qilish va avtomatik boshqarish (tarkibi, nisbiy namligi, xarorati).
4. Zaxiralarga turli zararkunanda va xashorotlarni kirishini oldini olish (xashoratlar, kemiruvchilar, qushlar).
5. Xomashyoni ishlab chiqarishga tayyorlash.

Bu saqlash tadbirlarini amalgaga oshirish, xomashyoni nafaqat miqdoran saqlab qolish, balki uning texnologik sifatini saqlab qolib, sifatli ozoq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarishga asos soladi.

Xomashyoni qayta ishlash davrigacha saqlashda yo’qotishlar bo’ladi. Bu yo’qotishlar ikki xil - massa bo’yicha yo’qotish (og’irligi kamayadi) va sifat bo’yicha (kerakli muddasi kamayadi) yo’qotishdir. Bu yo’qotishlar o’zaro bog’liq bo’lsa ham, massa yo’qotish har doim ham sifatga ta’sir qilmaydi (to’kilib kamayish). Xomashlarni saqlash yo’qotishlarini besh guruxga bo’lish mumkin: mexanik, fizik-kimyoviy,

biologik, biokimyoviy va kimyoviy yo‘qotishlar. Mexanik yo‘qotishlar asosan xomashyo fizik xususiyatlariga ko‘ra to‘kilish, sochilish, yuvilish hisobiga bo‘ladi.

Xomashyo massasining fizik-kimyoviy yo‘qotishlari asosan bug‘lanishi, qurishi hisobiga bo‘ladi. Bunday yo‘qotishlar asosan suyuq maxsulotlar, meva va sabzavotlarga xosdir.

Xomashyoning biologik yo‘kotilishi uni yuzaga keltiruvchi asosiy ikkita sabab - mikrobiologik jarayonlar va zararkunandalarning (xashorat va kemiruvchilar) ko‘payishidir.

Biokimyoviy yo‘qotishlar xomashyoda tirik organizmga xos nafas olish jarayonining davom etishi hisobiga sodir bo‘ladi.

Kimyoviy yo‘qotishlar radiatsiya, yorug‘lik, havo kislороди, turli noorganik katalizatorlar ta’siri amalga oshishi mumkin bo‘lgan reaksiyalar hisobiga vujudga keladi.

Yuqorida keltirilgan yo‘qotishlarni oldini olish xomashyoni saqlashning asosiy vazifasidir. Saqlashni tashkil qilish prinsipi xomashyoning quruq (don, un va boshqalar) yoki suvli (meva va sabzavotlar) ekanligiga qarab tanlanadi.

Don va don maxsulotlarini juda xilma xil bo‘lishiga qaramay ularning saqlanish xususiyatlari o‘xshashdir. Ularni saqlashda namlik kritik chegaradan oshib ketsa, biokimyoviy va mikrobiologik jarayonlar tezligi keskin ortib ketadi. Chunki, don va don maxsulotlarining barchasining xar bir grammida bir necha yuz minglab mikroorganizmlar bo‘lishi ta‘biiy xoldir. Ularning rivojlanini uchun optimal temperatura 20-40°S. Shuning uchun temperaturani 8-10°S darajasida ushlab turilsa, mikroorganizmlarning rivojlanishi to‘xtatib turiladi.

Suvli xomashyolarning turlari don maxsulotlaridan ham ko‘p va xilma-xildir. Ularning botanik turi, navi, meva yoki sabzavotning o‘ziga xos xususiyatti, sifat darajasining turliligiga qaramasdan saqlash sharoitlari-ning prinsiplari, saqlashga tayyorlash va saqlanishi o‘xshash. Chunki bu gurux xomashyolarning o‘ziga xosligi – ular tarkibida juda ko‘p namlikning borligidir. Bu namlikning beshdan bir qismi bog‘langan xolatda bo‘lsa, qolgani erkin xolatda. Shuning uchun ular moda almashinish jarayonlari va tashqi muhit sharoitiga juda ta‘sirchandirlar. Bu xomashyolarda modda almashinish va mikrobiologik jarayonlarni imkoniboricha susaytirish uchun ular past temperaturalarda va namlik yo‘qotilishini oldini olish uchun yuqori nisbiy namlik muhitida saqlanadi. Namlikning yo‘qotilishi mevaning so‘lishiga va massasining kamayishiga, xamda immunitetining pasayishi hisobiga chirishi va mog‘orlashiga sabab bo‘ladi. Sabzavot va mevalar ham mikroorganizmlar uchun qulay yashash muhitidir. Masalan, karam yoki kartoshka tashqi pust qavatlarining har bir grammida 1-2 mln. mikroorganizm bo‘ladi. Suvli xomashyolarning mikroorganizmlarga chidamliligi, ularning kimyoviy tarkibiga, tabiiy xususiyatlariga va tashqi muhit sharoitiga bog‘liq. Xomashyolarning tabiiy chidamlilagini saqlab qolish saqlash jarayonining asosiy vazifasidir.

O‘simliklar o‘sish davrida ularning yaprog‘ida, poyasida, urug‘ida va mevasida asosan foydali moddalarning sintez jarayonlari borsa, qishloq xo‘jalik maxsulotlarini saqlashda asosan gidroletik – parchalanish jarayonlari boradi. Biroq, yig‘im terimdan keyin dastlab xomashyoda terimdan keyingi pishish bosqichi jarayonlari bo‘ladi, unda o‘sish davridagi sintez jarayonlari oxiriga yetadi. Undan keyingi saqlash davrida xomashyo terimdan keyingi pishish bosqichidan asta sekin tinch holat bosqichi jarayonlarini kechiradi. Bunday tabiiy tinch holatda fiziologik jarayonlar minimal bo‘lib, unib chiqish kuzatilmaydi. Biroq nafas olish jarayonida fermentlar ishtirokida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari borib, xomashyo issiqlik va karbonat angidrid ajratadi, toksinlar parchalanib, xomashyoning immuniteti oshadi. Bu xolatda xomashyo asosiy zaxira muddasining sarfi nihoyatda kam bo‘ladi. Bu xolatni saqlab qolishda eng asosiy omil bu past temperaturadir. Tinch xolatini yo‘qotgan xomashyo sifatining buzilishi tezlashadi. Bu xomashyolar turiga ko‘ra o‘z-o‘zidan qizish, fiziologik aynish va oxirgi bosqichda unib chiqish biokimyoviy va kimyoviy jarayonlarini kechirib, mutlaqo yaroqsiz xolga keladi.

Xomashyoni saqlash rejimlari - temperatura, nisbiy namlik va muhitning gaz tarkibidir. Masalan don massasini saqlashning uchta rejimi mavjud: quruq xolatda (kritik namlikgacha bo‘lgan); sovutilgan xolatda; kislородсиз sharoitda. Bunday rejimlarda korxonalarda 3-4 oy, silos elevatorlarda 2-3 yil, maxsus skladzarda 4-5 yillab donni saqlash imkoniyatini beradi.

Meva va sabzavotlarni saqlash sovutilgan xolatda ikki xil: sovutilgan va muzlatilgan usulda amalga oshiriladi. Xar bir meva va sabzavotni yaxshi saqlashning asosiy sharti bu optimal tanlangan sovutish xarorati va nisbiy namlikdir. Masalan, olmalar -0,5 dan +0,5°S; danaklilar 0°S ; mandarin 0,3 dan 2°S gacha bo‘lgan xaroratlarda va xavoning nisbiy namligi danaklilar uchun 80-85% ; olma, uzum, nok uchun 85-90% ; sitruslar uchun 78-83% optimal sharoit hisoblanadi. Kartoshka 0°S gacha va undan past xaroratlarga sovutilmasligi kerak. Meva va sabzavotlarni saqlashning universal sharoitlari mavjud emas. Har qanday meva sabzavotning,

optimal sharoitda ham, saqlanish muddati davomiyligi uning individual xususiyati bo‘lib, ma’lum chegaraga ega. Olma, uzum, karam, ayrim piyoz navlari kabi meva va sabzavotlar 6-7 oygacha saqlansa, pomidor, bodring, yashil sabzavotlar, danakli va yumshoq mevalar bir necha xafta yoki uzog‘i 2-3 oy saqlanishi mumkin.

Xomashyolarni qayta ishlashga tayyorlash usullari turli xil bo‘lib, qaysi usulni qo‘llash xomashyoning turiga, fizik xolatiga va keyingi qayta ishlanish uslubiyatiga bog‘liq. Bunda turli quruq-sochiluvchan xomashyolarni qayta ishlashga tayyorlash usullari o‘xhash bo‘lsa, turli suvli xomashyolarni qayta ishlashga tayyorlash usullari ham o‘xhash bo‘ladi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Oziq-ovqat sanoat korxonalarining xom ashylari turlari bo‘yicha sinflanishi.
- 2.O‘simlik xomashyosini birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash korxonalarining turlari.
- 3.Xomashyoni saqlashning vazifalari.
- 4.Xomashyolarning o‘ziga xos sifat ko‘rsatkichlari.
- 5.Xomashyoni saqlash usullarining turlari.
- 6.Xomashyoni saqlash davridagi yo‘qotishlarning turlari va ularning mohiyati.
- 7.Xomashyoni saqlash usulini tanlash prinsipi.
- 8.Terimdan keyingi pishish bosqichi jarayonlari.
- 9.Xom ashyloning tinch holati.
- 10.Xo‘l xomashyolarni saqlashning optimal sharoitlari.
- 11.Quraq xom ashylarni saqlashning optimal sharoitlari.

«Tayanch» so‘z va iboralar

O‘simlik xom ashylari, xayvon xom ashylari, korxanalar turlari, fizik-kimyoviy yo‘qotishlar, biologik yo‘kotishlar, kimyoviy yo‘qotishlar, saqlash vazifalari, saqlash prinsiplari, terimdan keyingi pishish, tinch holat.

2- MA’RUZA. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYALARINING ILMIY ASOSLARI.

Reja: Oziq-ovqat texnologiyalarining fizik-kimyoviy asoslari. EkstraksiY. Tozalash-rafinatsiyalash. Eritish va kristalizatsiyalash. Texnologiyalarning reologik asoslari. Reologiyaning asosiy tushunchalari. Texnologiyalarning teplofizik asoslari. Oziq-ovqat maxsulotlarining teplofizik tafsiflari. Oziq-ovqat maxsulotlariga optimal termik ishlov berishni asoslash prinsiplari.

Oziq-ovqat texnologiyalarining fizik-kimyoviy asoslari. Oziq-ovqat texnolo-giyasi xomashyolarni maxsulotlarga aylantirishning qayta ishlash usullarini o‘rganadi. U fizika, kimyo, biologiya va boshqa ilmlar qonuniyatlariga asoslanadi, chunki xar qanday texnologik jarayon bu xomashyoga fizikaviy, kimyoviy va boshqa ta’sirlar majmuasidir.

Oziq-ovqat texnologik jarayonlari maxsulot turlari singari juda xilma-xildir. Texnologik jarayonlarni sinflash yoki guruxlarga ajratishda xomashyoga ishlov berish usulining o‘xhashligi asos qilib olinadi. Shuning uchun ularni qayta ishlash usullarining umumiyligi asosida, shartli ravishda to‘rtta guruxga bo‘lish mumkin: I gurux – Bijg‘itishga asoslangan ishlab chiqarishlar, II gurux –fizik-kimyoviy ishlab chiqarishlar, III gurux-mexanik-teplofizik ishlab chiqarishlar, IV gurux – kimyoviy ishlab chiqarishlar.

I. **Bijg‘itishga asoslangan ishlab chiqarishlarda** asosiy jarayon bu bijg‘ishdir. Bijg‘itish non va nonvoychilik drojilari ishlab chiqarishda, pivo, uzum vinosi, spirt ishlab chiqarish korxonalarida va boshqalarda qo‘llaniladi.

Bu gurux korxonalarining o‘ziga xosligi texnologiyalarida uglevodlarni bijg‘ituvchi mikroorganizmlarni qo‘llashidir. Mikroorganizmlarning xayot faoliyati ma’lum texnologik jarayonni borishini ta’minlaydi. Mikroorganizmlar o‘z navbatida yashash uchun energiyani organik moddalarning oksidlanishidan oladilar. Mikroorganizmlar aerob (kislородли) yoki anaerob (kislородсиз) muhitda yashashlari mumkin. Turli texnologik jarayonlarda mikroorganizmlarning bu ikkala sharoitda yashash xususiyatlaridan foydalaniladi.

Aerob nafas olish sharoitida – mikrobiologik maxsulotlar (nonvoychilik drojilari, fermentli preparatlar, ayrim vitaminlar va boshqalar) ishlab chiqariladi.

Anaerob nafas olish (bijg‘ish) sharoitida - asosan tarkibida etil sperti bo‘lishi kerak bo‘lgan maxsulotlar (alkogolli ichimliklar, vino, spirt va boshqalar) ishlab chiqariladi.

II. **Fizik-kimyoviy ishlab chiqarishlar** guruxi korxonalariga oq qand, kraxmal, o‘simlik moylari, konditer maxsulotlari va boshqa ishlab chiqarish texnologiyalari kiradi. Ularni umumlashtiruvchi jarayon – xomashyo tarkibidan kerakli, foydali moddalarni fizik usullarda ajratib olish va kimyoviy usulda qayta

ishlashlikdir. Bunda asosiy jarayon ekstraksiya yoki diffuziyadir. Masalan, kraxmal maydalangan xomashyodan suv bilan yuvib (ekstraksiyalab) olinadi. Ayrim sharbatlarni, qand lavlagidan oq qandni (saxaroza), kunjaradan o'simlik moylarini benzin bilan eritib olish misol bo'la oladi.

III. *Mexanik-teplofizik jarayonlarga asoslangan ishlab chiqarishlar* juda ko'p soxalarni qamrab olgan.

Bunday texnologiyalar asosida mexanik jarayonlardan aralashtirish, ajratish, separatsiyalash, chaqish, maydalash, bosim ostida ishlov berish va boshqalar; teplofizik jarayonlardan shamollatish, quritish, qaynatish, qovurish va boshqalar yotadi. Bu jarayonlar un-yorma, makaron, konditer, konserva, yog'-moy ishlab chiqarish korxonalarida keng tarqalgan.

IV. *Kimyoviy ishlab chiqarishlar* asosida kimyoviy reaksiyalar yotadi. Bunday texnologiyalar kraxmalni noorganik va biokatalizatorlar Bilan gidrolizlab, glyukoza ishlab chiqarishda, moylarni gidrogenlab yoki pereeterifikatsiyalab, turli qattiq yog' maxsulotlari hamda sovun ishlab chiqarishda, etilenni gidrotatsiyalab, etil spirti ishlab chiqarishda va boshqalarda qo'llaniladi.

Ko'rib chiqilgan to'rt gurux ishlab chiqarishlarning har birida o'ziga xos asosiy jarayonlar, ularning tushunchalari va qonuniyatlar mavjud. Kuyida har bir guruxga mansub jarayonlarning asosiy tushunchalari bilan tanishamiz va asosiy qonuniyatlarni ta'riflaymiz.

Birinchi gurux ishlab chiqarish korxonalaridagi bijg'itish texnologiyasining asosini mikrobiologik va biokimyoviy jarayonlar tashkil qiladi. Bu jarayonlar xomashyodagi yoki mikroorganizmlar ajratib chiqaradigan fermentlar yordamida boradi. Ma'lumki, fermentlar bu biokatalizatorlardir, Ularning tabiatini, turlari, tabiatda tarqalishi, xususiyatlari bilan «Biokimyo» kursida to'liq tanishilgan. Biotexnologik jarayonlarni xarakatlantiruvchi yana bir kuch bu drojjilardir. Ular bir xujayrali mikroorganizmlar bo'lib, ularning tuzilishi, turlari, ko'payishi va boshqalar xaqidagi to'liq ma'lumot «Mikrobiologiya» kursida to'liq o'rganiladi. Texnologik jarayonlarda mikroorganizmlarning xomashyolarga ta'siriga keladigan bo'lsak, ularning hayot faoliyati natijasida sintezlangan va ajralib chiqqan fermentlar ishtirokida boradigan biokimyoviy o'zgarishlar natijasida, maxsulot xosil qilinadi. Turli mikroorganizmlar turli fermentlar sintezlaydi. Masalan, spirt ishlab chiqarishda mog'or zamburug'larining yoki solodning (undirilgan arpa) amilaza fermetlari suslaning (oraliq maxsulot) kraxmali mono- va disaxaridlarga aylantiriladi va so'ngra ulardan maxsus drojjilarning fermentlari ta'sirida spirt xosil qilinadi. Pivo ishlab chiqarishda esa, solod tarkibidagi kompleks (har xil) amilolitik va proteinazala fermentlari va drojjilar t'sirida etanol, ko'p atomli spirtlar va boshqa pivoning ta'm-mazasini belgilovchi moddalar xosil qilinadi. Bunday misollarni vinochilikda, atseton ishlab chiqarishda, ozuqa kislotalaridan limon, sut kislotalari ishlab chiqarishda, choy va tamakini fermentlash jarayonlarida ko'rish mumkin.

Ikkinci gurux ishlab chiqarishlarda xomashyodan ozuqaviy axamiyatga ega bo'lgan muxim, foydali moddalarni ajratib olishning turli usullari ichida keng tarqalgani bu ekstraksiya va presslash usullaridir. Oziq-ovqat sanoatida ekstraksiya jarayonlariga qand lavlagisidan qandni; olma siqmalaridan pektin moddalarini; vinochilikda uzum siqmalaridan vino buketiga kiruvchi vino kislotasining tuzlari va qandni; farmatsevtikada dastlabki zamburug'li xomashyodan fermentli preparatlarni; yog'-moy sanoatida kunjaradan ekstraksiya moyini ajratish kabi texnologiyalarni misol qilish mumkin. Ekstraksiya usuli iqtisodiy samarali bo'lsa, presslab ajratib olingan maxsulotlar ancha sifatli hisoblanadi. Shuning uchun ikkala usuldan ketma-ket foydalanish samaralidir.

Ekstraksiya bu turli moddalardan tashkil topgan murakkab aralashmadan tanlovchanlik xususiyatiga ega bo'lgan erituvchi yordamida bir yoki bir nechta moddani eritib, ajratib olish tushiniladi. Xomashyo tarkibidagi xujayradan eruvchan moddalarini ajratib olish ikki bosqichli jarayonda boradi. Birinchi bosqichda erituvchi xomashyo to'qimasiga diffuziyalansa, ikkinchi bosqichda erituvchiga xomashyodan modda uzatish amalga oshadi. Fik ta'riflagan molekulyar diffuziyaning asosiy qonuni ekstraksiyanayotgan moda miqdori va jarayonning asosiy parametrлari (ko'rsatkichlari) orasidagi bog'liqlikni belgilaydi:

$$dG = - D(\frac{\partial c}{\partial x}) dF d\tau$$

Bunda, dG – τ vaqt ichida, xomashyoda modda konsentratsiya gradiyenti $\frac{\partial c}{\partial x}$ bo'lganligi, F izokonsentratsion yuza orqali shimalayotgan erituvchi miqdoridir.

D – diffuziya koeffitsiyenti bo'lib, xomashyoning fizik parametri bo'lib, shu xomashyo konsetrasiya gradiyenti birga teng bo'lganligi, bir birlik yuzasidan bir vaqt birligida diffuziyalanadigan moda miqdoriga teng. O'lcham birligi – m^2/s .

Bu tenglama xomashyoda erituvchi to'planmasa, modda konsentratsiyasi o'zgarmas bo'lsagina qo'llanilishi mumkin. Biroq ekstraksiya jarayonida xomashyoda doimiy ravishda modda konsentratsiyasi kamayadi. Shuning uchun bunday masalalar maxsus differensial tenglamalar bilan yechiladi.

Ekstraksiya jarayonining ikkinchi bosqichida ekstraksiyalanayotgan modda qattiq xomashyo yuzasidan suyuq fazaga molekulyar diffuziya va konveksiya tufayli xarakati amalga oshadi. Bu jarayon ancha murakkab, biroq muxandislik amaliyotida quyidagi tenglama ishlataladi:

$$dG = \beta(C_p - S') F dt$$

Bunda, β - massa uzatish yoki massa almashish koeffitsiyenti, m/s;

C_p – erituvchining oqimdag'i konsentratsiyasi;

S' – erituvchining xomashyo yuzasidagi konsentratsiyasi.

Diffuziya koeffitsiyentidan farqli ravishda massa almashish koeffitsiyenti doimiy kattalik bo'lmay maydalangan xomashyo o'lchamlari va shakliga, erituvchining fizik xususiyatlari va tezligiga, jarayonning xarorati va boshqalarga bog'liqdir.

Ekstraksiya jarayonining asosiy qonuniyati shundan iboratki, ekstraksiyaning xarakatlantiruvchi kuchi bu konsentratsiyalar farqidir.

Tozalash-rafinatsiy. O'simlik xomashyosidan ajratib olingan faza, olinish usulining turidan qat'iy nazar, u qo'shimcha tozalanishi kerak. Oziq-ovqat sanoatida tozalash rafinatsiya deb yuritiladi. Quyida tozalashning keng tarqalgan usullari bilan tanishamiz. Tozalashning fizik va fizik-kimyoviy usullari ma'lum. Suyuq moddalarni tozalashning fizik usullariga tindirish, filtrlash, separatsiyalash, jarayonlari kiradi.

Tindirish – mayda zarrachalarning suyuqlik ichida og'irlik kuchi ta'sirida cho'kishidir. Tindirish tezligi zarrachalarning zinchligiga, o'lchamiga va suyuqlikning fizik xossalariga bog'liq. Sanoatda asosan davriy va uzlusiz ishlaydigan tindirgichlar qo'llaniladi. Tindirish jarayonining asosiy qonuniyati shundan iboratki, uskunalar unumdoorligi ularning balandligiga emas, balki tindirish yuzasining kattaligiga va zarrachalarning cho'kish tezligiga bog'liq.

Filtrlash – g'ovak to'siqlar yordamida suspenziyalarning tarkibidagi zarrachalarni tutib qolib, suyuq fazasini ajratishdir. Bu jarayonning xarakatlantiruvchi kuchi to'siq oldi va orqasidagi bosimlar farqidir. Bosimlarning bu farqi filrlanayotgan suspenziyani nasos yordamida uzati yoki gidrostatik bosim hisobiga; vakuum xosil qilish hisobiga; siqilgan havo bosimi hisobiga xosil qilinadi. Oziq-ovqat sanoatida asosan to'siq va cho'kma qatlami orqali filtrlash keng qo'llaniladi. Suspenziya kam konsentratsiyali va zarrachalar juda mayda bo'lsa, maxsus (diatomit, perlit, sellyuloza, asbest va boshqa) filtrlovchi moddalar to'siq yuzasiga yuritilib g'ovaklarning to'lib qolishining oldi olinadi. Bu moddalar suspenziya tarkibiga 1% gacha qo'shib ishlataladi. Sanoatda ramali, patronli, barabanli, diskli va vakuumli filrlar keng tarqalgan. Filrlash jarayonining asosiy qonuniyatlari quyidagichadir. Qatlam qalinligi oshishi bilan bosimlar farqi o'zgarmas bo'lsa, filtratsiya tezligi kamayadi. Qatlam qalinligi ortishi bilan bosimlar farqi ortib borsa, filtratsiya tezligi o'zgarmas bo'ladi. Demak, filtratsiya tezligi bosimlar farqiga to'g'ri proporsional bo'lib, to'siq va qatlam umumiyligi qarshiligidagi teskari proporsionaldir.

Fizik-kimyoviy tozalash usullariga *adsorbsiya* va *dezodoratsiya* jarayonlarini misol qilsa bo'ladi. Ma'lumki, adsorbsiya bu eritmadan bir yoki bir necha komponentlarni qattiq moda yuzasiga yutilishidir. Adsorbsiya tanlovchan va qaytar bo'lishi mumkin. Adsorbent sifatida g'ovak qattiq moddalar (aktivlangan ko'mir, silikagel, sellyuloza massasi, kizelgur, oqlovchi tuproqlar) qo'llaniladi. Qand ishlab chiqarish, vinochilik, sok ekstraksiyalash va paxta moyi ishlab chiqarishda oqlash adsorbsiya usulida amalga oshiriladi. Adsorbsiya fizik yoki kimyoviy bo'ladi. Kimyoviy adsorbsiyada, fizik adsorbsiyadan farqli ravishda, adsorbent va yutilgan modda molekulalari orasida kimyoviy reaksiya va kimyoviy bog' xosil bo'ladi. Sanoatda jarayonlar, asosan adsorbentning xarakatsiz yoki xarakatli holatda bo'lishiga ko'ra, davriy va uzlusiz turlarga bo'linadi.

Dezodoratsiya – xid beruvchi moddalarni ma'lum sharoitda, ishlov berilayotgan maxsulotning sifatiga zarar yetkazmagan xolda, bug'latib uchrib yuborishdir. Bug'latish o'tkir bug' yordamida aralashtirish bilan qo'shib olib boriladi. Bu jarayon asosan moylarni dog'lashda qo'llaniladi. Moyning oksidlanishini oldini olish uchun bug' tarkibida kislror bo'lmasligi ta'minlash kerak.

Eritish va kristallah. Kristall moddalar erish xususiyatiga ega. Oziq-ovqat sanoatida erish xodisasi ekstraksiya jarayonida qo'llanilishini ko'rib chiqdik. Erigan moddani eritmadan yana kristall xolatga keltirish oq qand (saxaroza) ishlab chiqarish jarayonining ikkinchi bosqichini tashkil qiladi. Saxaroza misolida ko'radigan bo'lsak, u faqat o'ta to'yingan eritmadan kristall xolatga o'tishi mumkin, Kristallanish markazlarini xosil, kristallni o'stirish va eritmani o'ta to'yingan xolatda ushlab turish, qaynatish orqali amalga oshiriladi. O'ta to'yinganlik eritmadi modda miqdorining eritma suvi miqdoriga nisbati bilan o'lchanadi. Bu koeffitsiyent o'ta to'yinganlik koeffitsiyenti deyiladi. Agar eritmada qand bo'lmasligi bo'lsa, saxarozaning bunday

eritmadi eruvchanligi Yana xam ortadi. Bunday eritmalarda saxaroza eritmasining to‘yinish koeffitsiyenti (α_1) kattaligi kiritiladi:

$$\alpha_1 = N' / N$$

Bunda, N' - saxarozaning distillangan suvdagi eruvchanligi

N – saxarozaning aralash eritmadi eruvchanligi.

Eritmaning o‘ta to‘yinganligi (α) koeffitsiyent bilan o‘lchanadi.

$$\alpha = N_1 / N'$$

Bunda, N_1 – eritmadi eruvchanligi miqdorining bir birlik eritma suvi
miqdoriga nisbati.

Agar $\alpha = 1$ bo‘lsa, eritma to‘yingan; $\alpha < 1$ bo‘lsa, eritma to‘yinmagan;

$\alpha > 1$ bo‘lsa, eritma o‘ta to‘yingan hisoblanadi.

Sanoatda o‘ta to‘yingan eritmalardan saxaroza kristallarini ajratib olishda eritmaning $\alpha = 1,0 - 1,1$ passiv o‘ta to‘yinganlik oralig‘i, $\alpha = 1,1 - 1,3$ aktiv o‘ta to‘yinganlik oralig‘i va $\alpha > 1,3$ bo‘lsa, intensiv o‘ta to‘yinganlik xolati chegaralari bo‘lib, xar bir o‘ta to‘yinmagan xolati ma’lum maqsadda xosil qilinadi. Saxarozani kristallash uchun optimal oraliq $\alpha = 1,1 - 1,3$ bo‘lib, shunda ham kristallarni boshlash uchun («zatravka») oz miqdorda qand uni qaynatilayotgan eritmaga solinadi.

Reologiyaning asosiy tushunchalari. Oziq-ovqat sanoati xomashyo va maxsulotlari assosiy reologik xususiyatlari qovushqoqlik, taranglik, egiluvchanlik va mustaxkamlik kiradi. Aynan bir material xolati va ta’sir turiga ko‘ra xar xil xususiyat namoish qilishi mumkin. Masalan, makaron xamiri tez kuch ta’sir ettirib qaytarilsa, u taranglik namoish qiladi. Agar asta sekin davomiy kuch tasir ettirilsa, qovushqok va yopishqoqlik namoish qiladi. Ko‘plab texnologogik jarayonlarda qayta ishlanayotgan material bir reologik xolatdan mutloq qarama-qarshi reologik xolatga o‘tadi ayrim xollarda qisman o‘zgartiradi. Bunda avval havo yoki suyuqlikni yo‘qotish hisobiga zichlashish, so‘ngra material zarrachalarining zichlashishi hisobiga plastik deformatsiyalanish sodir bo‘ladi. Xomashyo, yarimmaxsulot va maxsulotlarning reologik xususiyatlarini o‘rganish texnologik uskunalar konstruksiyasi, asosiy qismlari mustaxkaligi va kinematikasini qayta ishlanayotgan material fizik-mexanik xususiyatlari bilan uzviy bog‘lash imkoniyatini beradi. Bosim ostida xar taraflama siqilish sharoitida material massasining xajmiy deformatsiyasini o‘rganish bosimning massa xajmi ichida tarqalishini, material siqilish darajasini, material zichligi va bosim orasidagi bog‘liqlikni va boshqa masalalarni xal qilish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z navbatida texnologik jarayonlarda oxirgi maxsulot sifatiga ijobji ta’sir qiladigan bosimni ta’minlash imkoniyatini beradi.

Oziq-ovqat maxsulotlarining teplofizik tafsiflari va optimal termik ishlov berishni asoslash prinsiplari. Texnologik jarayonlarda issiqlik va massa uzatish xodisalari muhim ahamiyatga ega. Ko‘pchilik xollarda bu nostatsionar va qaytmash jarayonlar bo‘lib, xomashyo va yarimmaxsulotlarning xossalari, strukturasi va sifatini o‘ztartirishga olib keladi.

Oziq-ovqat sanoati xomashyo va materiallari geterogen sistemalar bo‘lib, turli strukturaga ega bo‘lgan qattiq moddalar va gazlangan suyuqliklardir. Bunday materiallarning teplofizik ko‘rsatkichlari avvalambor kimyoviy tarkibi va namligiga bog‘liq bo‘lib, qayta ishlash jarayonida sezilarli o‘zgarishi mumkin. Shuni inobatka olish kerak-ki, issitish yoki sovutish usuli va tezligi maxsulot strukturasi va xossasini turlicha o‘zgartirishi mumkin. Materiallarning teplofizik kattaliklarini o‘rganib, ozuqa maxsulotlari-ning teplofizik xususiyatlarini baholash hamda qayta ishlash texnologik jarayonlari bilan to‘g‘ri bog‘lash, maxsulot sifatini ta’minlaydi.

Qayta ishlash jarayonining optimal tanlagan termik sharoiti yuqori sifatli maxsulotni yuqori unum dorlik va iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishni ta’minlaydi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Qayta ishlash usullarining guruxlarga bo‘lishi.
- 2.Bijg‘itishga asoslangan ishlab chiqarishlar.
- 3.Fizik-kimyoviy ishlab chiqarishlar.
- 4.Mexanik-teplofizik jarayonlarga asoslangan ishlab chiqarishlar.
- 5.Kimyoviy ishlab chiqarishlar.
- 6.Fermentlar va drojjilar ishtirokida boradigan jarayonlarning mohiyati.
- 7.Presslash va ekstraksiyalash jarayonlarining mohiyati va qo‘llanilishi.
- 8.Tindirish va filtrlash jarayonlarining mohiyati.
- 9.Adсорbsiya va dezodoratsiya jarayonlarining mohiyati va qo‘llanilishi.

10. Eritish va kristallash jarayonlarining mohiyati.

11. Oziq-ovqat xom ashyo va maxsulotlarining reologik ko'rsatkichlarining ahamiyati.

12. Optimal termik ishlov berish tushunchasi.

«Tayanch» so‘z va iboralar


Bijg‘ish, ferment, mikroorganizm, drojji, presslash, ekstraksiya, tindirish, filtrlash, adsorbsiya, dezodoratsiya, eritish, kristallash, reologik ko'rsatkich, termik ishlov.

3-MA’RUZA. O’SIMLIK MOYLARINI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI.

Reja: Moyli urug‘larni qayta ishlash korxonasining umumiy sxemasi.

O’simlik moylari ishlab chiqarish. Moyli urug‘larni sinflanishi. Moyli urug‘larni tozalash. Moyli urug‘larni namlash, quritish, chaqish, separatsiyalash va moyli urug‘lar mag‘zini yanchish, namlash va termik ishlov berish, yanchilmadan qovurma tayyorlash va presslab moy olishning prinsipial sxemasi. Moyli maxsulotdan ekstraksiyalab moy olishning prinsipial sxemasi. O’simlik moylarini aralashmalardan tindirib, cho‘ktirib va filtrlab birlamchi tozalash.

Yog‘-moy sanoati respublika oziq-ovqat sanoatining yetakchi tarmoq-laridan biridir. O‘zbekistonda qadimdan o’simlik moyi kunjut, zig‘ir, indov, maxsar urug‘i, paxta chigit, poliz ekinlari urug‘laridan juvozlarda olingan. Respublikada yillik kuvvati 3,5 mln. tonna moyli o’simlik urug‘larini qayta ishlaydigan korxonalar ishlab turibdi. Sanoatning bu tarmog‘ida paxta, soya, raps moylari, meva danaklari hamda sabzavot urug‘laridan moy olinib, oziq-ovqat, atir-upa va farmatsevtika sanoatlari tarmoklarida ishlatiladi. Yog‘ moy sanoatida bu moylardan margarin mahsulotlari, mayonez, kirsovun, atirsovun, texnika maksadlari uchun boshqa turli mahsulotlar ishlab chikariladi. O’simlik moyi ishlab chikarishda yiliga o‘rtacha 2,1 mln. tonnadan ko‘prok paxta chigit ishlatiladi. Yog‘-sanoati korxonalar YOMK (yog‘-moy kombinati), MEZ (moy ekstraksiya zavodi) va turli xususiy kichik korxonalar ko‘rinishidagi ayrim sexlar ko‘rinishida ishlamoqdalar. Barcha ishlab chiqarish va qayta ishlash sexlaridan tashkil topgan yog‘-moy kombinatining umumiy sxemasi quyidagi sxemada keltirilgan bo‘lib, unda xomashyo va material xarakati bo‘yicha ishlab chiqarish bo‘limlarining ketma-ketligi va bog‘liqligi keltirilgan.



Yog‘-moy kombinasi bo‘limlari umumiy sxemasi.

- 1- Chigit xojaligi
- 2- Tozalash bo'limi
- 3- Chaqish-ajratish bo'limi
- 4- Forpress sexi
- 5- Rafinatsiya sexi
- 6- Ekstraksiya sexi
- 7- Kristallizatsiya sexi
- 8- Mayonez sexi
- 9- Gidrogenizatsiya sexi
- 10- Margarin sexi

11- Yog‘ kislotalarini distillyatsiyalash sexi

12- Sovun sexi

Bunday korxonada 1,2,3 va 4 raqam bilan belgilangan belgilangan bo‘limlar o‘simlik moylari ishlab chiqarish korxonasini tashkil etsa, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11- bo‘limlar moylarni qayta ishlash korxonalarini hisoblanadi.

Sxemadan ko‘rinishicha yog‘-moy korxonasidan, rafinatsiyalangan moy, salat moyi, mayonez, margarin,sovun kabi tayyor maxsulotlar va sheluxa, gudron kabi chiqitlar sotuvga chiqariladi.

Zamonaviy texnologiya asosida o‘simlik moylari olishning asosan ikkita usuli bor: 1. Urug‘ mag‘zidan moyni presslab olish. 2. Kunjaradan qoldiq moyni erituvchi yordamida to‘liq ekstraksiyalab olish.

Kaysi bir usul ishlatilishidan kat‘iy nazar xar bir usul aniq texnologik sxema buyicha olib boriladi. Texnologik sxema deb, bir-biri bilan mantikiy jixatdan o‘zviy boglangan texnologik jarayonlarning yigindisiga aytildi. Texnologik jarayon deb, aloxida omillar ta’siri ostida (bosim, temperatura, vakuum, namlik x.k.) olib boriladigan jarayonlar tushiniladi.

Texnologik jarayon o‘zgarishiga ba’zi bir mexaniq, issiqlik, namlik va kimyoviy reaktivlar ta’sir etadi va jarayon o‘z yunalishini o‘zgartiradi. Texnologik jarayonlar asosiy, tayyorlov, yordamchi va kushimcha operatsiyalardan tashkil topadi.

Quyida o‘simlik moylari ishlab chiqarish korxonasini tashkil qiluvchi ishlab chiqarish bo‘limlaridagi texnologik jarayonlar bilan tanishib chiqamiz.

Chigit xo‘jaligi (1) moyli urug‘larni qabul qiladi. Yog-moy sanoatida qayta ishlanayotgan barcha moyli urug‘lar zavodlarga tug‘ridan-tug‘ri shirkat va jamoa xo‘jaliklaridan olib kelinadi. Faqatgina paxta chigit bundan mustasnodir. Chigit yog‘ zavodlariga paxta tozalash zavodlaridan yetkazib beriladi. Moyli urug‘lar avtomobil va temiryul transporti yordamida tashiladi. Keltirilgan xar bir aloxida miqdor urug‘lar o‘zining mahsus sifat belgilariga ega. Bular: namlik, ifloslik, moyliligi, hamda paxta chigit uchun esa, qobiq ustidagi qalta momig‘i bilan belgilanadi (pux).

Moyli xom ashylarni sanoatda qo‘llanilish darajasiga ko‘ra asosiy uch guruxga bo‘lish mumkin: sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan moyli urug‘lar (chigit), qo‘sishma moyli xom ashylar (soya, maxsar, kungaboqar) va noa’anaviy moyli urug‘lar (meva danaklari va sabzavot urug‘lari).

Zavodga yetib kelgan xomashyo mahsus torozilar (avtomobil, temiryul torozilari) yordamida tortiladi so‘ngra, xomashyo mexanizatsiyalashtirilgan moslamalar yordamida zavod omborlariga joylashtiriladi. Chigit xo‘jaligidagi omborlarda saqlash davrida namlik, issiqlik, mikroorganizmlar va ba’zi bir kemiruvchi janvorlar ta’siridan saqlash talab qilinadi. Aks holda xomashyodan olingan moy sifat jixatidan past (rangi yukori, kislota soni yuqori, oksidlangan moddalar miqdorining ko‘p) bo‘ladi. Shuning uchun keltirilgan xomashyoning turiga va sifatiga qarab, uni saqlash sharoitlari belgilanishi, omborxonaning esa texnik jixozlari bu sharoitni to‘liq ta’minalashi kerak. Barcha turdagи moyli urug‘lar uchun ishlatilayotgan omborxonalar quruq, pol yer osti suvlaridan izolyatsiyalangan, devorlar oqlangan yoki kraskalangan bo‘lishi lozim. Tom yomg‘ir va qor suvlarini o‘tkazmasligi, eshiklar zich yopilishi kerak. Omborxona urug‘ tashlanishidan oldin barcha chiqindilardan, xar xil kemiruvchilardan tozalanishi va mumkin bo‘lgan pereparatlar bilan dizenfeysiya qilinishi lozim. Asosiy talab shundan iboratki, omborxona toza, quruq va yaxshi ventillyatsiyalananadigan bo‘lishi lozim.

Xomashyoni omborxonadan ishlab chiqarishning kerakli qismiga yo‘naltirish uchun zavodda ishlatiladigan o‘zatuvchi transport vositalardan foydalaniladi. Bularga shneklar, redlerlar, tarsportli lentalar, o‘zi yurar moslamalar, noriyalar, pnevmotransport va boshqalar kiradi.

Tayyorlov bo‘limi va forpress sexida (2, 3, 4) moyli xomashyolarga quyidagi bosqichlarda ishlov beriladi: iflos aralashmalardan tozalash, namligi bo‘yicha konditsiyalash, mag‘zini qobig‘idan ajratish, mag‘izni yanchish, yanchilgan mag‘izni namlash, namlangan yanchilmani qovurish, qovurilgan yanchilmani presslab moyini olish Bu bo‘limda amalga oshiriladigan birinchi jarayon bu moyli urug‘larni tozalash. Chunki moyli urug‘larda xar xil aralashmalar bo‘ladi. Bu aralashmalar quyidagi guruxlarga bo‘linadi:

1. Iflos aralashmalar (mineral va organiq)
2. Moyli aralashmalar
3. Metall aralashmalar

Mineral va organik aralashmalarga tuproq, qum, tosh va hokazolar kiradi. Organik aralashmalarni barg, xazon, urug‘ po‘chog‘i, poyasi tashkil qiladi. Moyli aralashmalarga rangli bo‘zilgan, mag‘zi lat yegan yoki

puch urug‘lar, hamda boshqa yovvoyi va madaniy o‘simliklarning urug‘lari kiradi (kungaboqar, kleshevina va boshqalar).

Xomashyo tarkibidagi iflos aralashmalarini, moyli aralashmalar va metall aralashmalarini imkon boricha to‘liq ajratib olish kerak, chunki aralashmalar xomashyonini qayta ishlash uchun ishlatalayotgan apparatlarning aylanuvchi va ishqalanuvchi qismlarini intensiv ravishda yemirib, sinishiga olib keladi va tayyor mahsulotning sifatini yomonlashtiradi.

Yog‘-moy korxonalarida xom ashyonini tozalashning asosan quyidagi usullari qo‘llaniladi:

1.Xomashyonini aralashmadan ularning shakli va o‘lchamilarini turliligiga asoslangan elakli yuzalarda tozalash usuli.

2.Xomashyonini aralashmalardan ularning aerodinamik xususiyatlarining farqiga asoslanib tozalash usuli.

3.Urug‘lar va aralashmalarning metalli magnitik xususiyatlariga asoslanib ajratish usuli.

Moyli urug‘larni aralashmalardan ularning o‘lchamiga qarab tozalashda turli ko‘rinishdagi elakli sirtlardan foydalilanadi. Elakli sirtlar tekis aylanma yoki ko‘p qirrali barabanli formada bo‘lishi mumkin. Xomashyonini tozalashda faqatgina elakli sirtlar ishlatilmay bir vaqtning o‘zida yoki ketma-ket aerodinamik separatorlar va elektromagnit separatorlar ham ishlataladi.

Barcha yog‘li urug‘lardan farqli ularoq paxta chigitini qayta ishlashdan oldin namanganadi, chunki paxta chigitini moy zavodlariga daladan emas, balki paxta tozalash zavodidan keltiriladi va chigitning namligi ko‘pchilik xollarda uning kritik namligidan past bo‘ladi, ya’ni saqlanayotgan chigitlarning namligi 6-8% atrofida bo‘ladi. Shu tufayli chigit tozalangandan so‘ng uni namligi texnologik jarayonlar uchun mos holatgacha yetkaziladi. Namangan chigitlarning namligi ularning mag‘iz namligiga qarab belgilanadi. Bu namlik quyidagicha bo‘ladi: 1-3 navlar uchun 8,5-9,5 %; 4 navlar uchun 9,5-10,5%.

Texnologik nuqtai nazardan yog‘li urug‘lar ikki qismidan: mag‘iz va qobiqdan iborat. Barcha moyli urug‘larning ustki qobig‘i luzga deb ataladi, faqat paxta chigitning qobig‘i sheluxa deb nomlanadi. Agarda moyli urug‘lar qobig‘i ajratilmay qayta ishlansa, bu holda olinayotgan o‘simlik moyi tarkibida qobiq tarkibida bo‘lgan yuqori malekulali uglevodlar, mum moddalar ko‘payadi. Bu hol olinayotgan o‘simlik moyini sifatini bo‘zilishiga olib keladi. Lekin ba’zi bir moyli urug‘larning qobig‘ini ajratish ancha mushkul yoki texnologik nuqtai nazardan mumkik emasdir. Bularga indov (raps), kanop urug‘i, kunjut, kunori urug‘lari kiradi. Moy olish texnologiyasida bu jarayon bajarish uchun urug‘larni chaqish yoki kesish yo‘li bilan bajariladi. Hosil bo‘lgan mahsulot chaqilma deb ataladi. Chaqilgan mahsulot elakli mashinalar yordamida mag‘iz va qobiqqa ajratiladi.

Moyli mag‘iz siqish yoki ekstraksiya yo‘li bilan qayta ishlashdan oldin, albatta yanchiladi. Chunki moyli mahsulotni yanchmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qozonlarda qovurish va moyini siqib olish nihoyatda katta kuch talab etadi. Yanchilgan xomashyodan ko‘p miqdorda moy siqib yoki ekstraksiya qilib olish mumkin. Moyli urug‘larning qobig‘ini ajratish mumkin bo‘lgan xolda ularning mag‘zi yanchiladi, qobig‘i ajralmaydigan moyli urug‘lar esa to‘g‘ridan to‘g‘ri yanchilaveradi. Yanchish besh valli yanchish mashinasida amalga oshiriladi. Yanchish mashinalalaridan olinayotgan mahsulotning nomi yanchilma deyiladi.

Yanchilmadan maksimal moy olish uchun avval namlash so‘ngra qovurish zarurdir. Yanchilgandan so‘ng yanchilmaga uni qovurishdan oldin bir oz miqdorda qo‘sishimcha sheluxa qo‘shiladi. Yanchilgan mag‘iz tarkibida sheluxa bo‘lishi, mahsulotga g‘ovvaklik berib, qovurish jarayonida suv va bug‘ning mahsulotda bir tekis tarqalishiga yordam beradi. Yanchilmani namlash va issiqlik bilan qayta ishlash jarayoni xar xil yog‘li urug‘lar navi uchun xar xil sharoitda olib boriladi. Undan tashqari bir xil yanchilmani qayta ishlanayotganda, uni qaysi maqsadda dastlabki presslab moy olish, tugal presslab moy olish, ekstraksiyalab yog‘ olishiga qarab xar xil sharoitda qovuriladi. Issiqliki ta’siri shuki, moyni yanchilmaning gel qismi bilan bog‘liqligini kamaytiradi va yengil ajralib, oqib chiqishini ta’minlaydi.

Tayyorlangan qovurma presslash mashinasiga beriladi va moyi siqib olinadi. Siqib olingan moy tarkibida 2-10 % atrofida kunjaraning mayda qismlari bo‘lib, uni moy tarkibidagi fuza yoki qoldiq qattiq moddalar deb ataymiz. Shuning uchun olingan moyni oqlashdan oldin albatta fuzadan tozalanishi lozim. Bu tozalash birlamchi tozalash deb ataladi va tindirish, so‘ngra filrlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Moylarni ekstraksiyalash bo‘limi (6). Pressdan chiqgan kunjara tarkibida agar forpresslash usuli bilan ishlanilsa 12-14 %, agar to‘liq presslash usuli bilan ishlansa 7-8% moy qoladi. Kunjara tarkibidagi bu qoldiq moy kunjaraning moyliligi deyiladi.

Ma‘lumki, o‘simlik moylari organik moddalardan tashkil topgan bo‘lib, ko‘pchilik organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Kunjaradan moyni organik erituvchilar yordamida eritib olish iqtisodiy jixatdan

zarur xisoblanadi, chunki presslash yo‘li bilan olinayotgan o‘simlik moylari miqdori xalq iste’moli talablariga yetarliysha emas. Albatta ekstraksiya bilan olingen o‘simlik moyining sifati presslash usuli bilan olinganga nisbatan pastroqdir, chunki ekstraksion moy tarkibiga lipidlardan tashqari organizm uchun foydasiz bo‘lgan turli organik moddalar erib o‘tgan bo‘ladi. Imkoniyat boricha ekstraksiya usuli bilan olingen o‘simlik moylari texnikada ishlatalishi lozim.

Kunjaradan moyni ekstraksiyalash uchun Sovutilgan kunjara maydalanib, aniq bir o‘lchamga ega bo‘lgan holatda ekstraksiyaga beriladi. Erituvchida-benzinda erigan xolatdagi ajralib chiqqan moy missella deyiladi. Ekstraksiya xomashyosi ichki strukturasining qanchalik o‘zgarganligi yoki bo‘zilganligi olinayotgan moyning miqdoriga va jarayonning to‘liqligiga katta ta’sir etadi. To‘liq moysizlantirilgan kunjara qoldig‘i shrot deb ataladi.

Ekstraksiya vaqtida ekstraktordan chiqayotgan missella tarkibida 0,4-2 % atrofida shrotning qoldiq quyqalari bo‘ladi. Shuning uchun ekstraktordan olingen missella avval turli usullar bilan quyqadan tozalanadi. Missella o‘z tarkibida konsentratsiyasiga qarab bir muncha miqdor moy va qolgan qismi benzindan iboratdir. Missella tarkibidan benzinni uchirib yuborib benzinsiz moy olish jarayoni distillyatsiya deb ataladi. Misselladan benzin to‘liq haydalishi lozim va jarayon imkon boricha qisqa muddatda olib borilishi maqsadga muvofiq. Distillyatsiya jarayoni ochiq va yopiq bug‘ bilan qizdirish va vakuum sharoitida benzin bug‘larini uchirish yo‘li bilan olib boriladi.

Ekstraktordan chiqayotgan shrot tarkibida 25-40% gacha erituvchi bo‘ladi. 1-vazifa shuki shrot tarkibidan erituvchini xaydash. Shu jarayonni olib borish sharoitlari shrot oziqa sifatini belgilaydi. Tostrda juda unumli, eng ko‘p miqdorda erituvchini xaydash mumkin. Shrot tarkibida qoladigan erituvchi miqdori 0,05% gacha bo‘ladi. Shrot sifati oshadi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Yog‘-moy korxonasining umumiy sxemasi
- 2.Chigit xo‘jaligi.
- 3.Chigitni qayta ishlashga tayyorlov bo‘limi.
- 4.Moylarni presslab olish.
- 5.Moylarni ekstraksiyalash

«Tayanch» so‘z va iboralar

Texnologik jarayon, moyli xomashyo, iflos aralashmalar, transport vositalari, sheluxa, chaqilma, yanchilma, presslash, kunjara, press moyi, missella, erituvchi, ekstraksiya moyi.

4- MA’RUZA. QATTIQ O’SIMLIK MOYLARI ISHLAB CHIQARISH

Reja: Salomaslarning turlari va sifat ko‘rsatkichlari. Gidrogenlashda ishlataladigan moylar, katalizatorlar va vodorod. Moylarni gidrogenizatsiyalashning prinsipial sxemasi.

Qattiq yog‘lar sanoatda katta ahamiyatga ega, ular margarin, xo‘jalik va atir sovunlar, stearin ishlab chiqarishda asosiy xomashyo xisoblanadi. Biroq tabiiy qattiq yog‘lar miqdori chegaralangan, suyuq o‘simlik yog‘lari esa ko‘p miqdorda ishlab chiqariladi. Shuning uchun suyuq yog‘lar gidrogenlanib qattiq xolga keltiriladi. Gidrogenizatsiya mahsuloti salomas deyiladi. Xozirgi vaqtida Uzbekistonda 2 ta gidrozavod ishlaydi.

O‘simlik yog‘larining kimyoviy va fizik xususiyati ularning yog‘ kislota tarkibiga bog‘liq. O‘simlik yog‘larida ko‘p miqdorda to‘yinmagan yog‘ kislotalar bor (olein, linol va x.k.). Ular bitta yoki bir nechta qo‘shbog‘ga ega. Gidrogenizatsiya jarayonida to‘yinmagan kislotalarni to‘yinishi bilan birga qo‘shbog‘larni migratsiyasi va transizomerizatsiya sodir bo‘ladi, bu esa erish temperaturasi va yog‘ qattiqligi oshiradi.

Gidrogenizatsiyada kungaboqar, paxta loviya, raps yog‘lari va soapstokdan ajratib olingen yog‘ kislotalari ishlataladi.

Gidrogenizatsiya vaqtin xomashyoning kimyoviy tarkibiga va salomasning ishlab chiqarish maqsadiga bog‘liq. Ishlab chiqariladigan salomaslarning bir necha xil turi bor. O‘simlik yog‘larini qisman gidrogenizatsiya qilish yo‘li bilan, erish temperautrasi $T_{pl-31-34}^0S$, qattiqligi 160-320 g/sm, yod soni 62-82ga teng bo‘lgan salomas olinadi, bu salomaslar margarin, kulinar yog‘lar ishlab chiqarishda ishlataladi. Bundan tashqari erish

temperaturasi $T_{pl}=35-37^{\circ}S$ qattiqligi 550-750 g/sm bo'lgan salomaslar olinib, ular konditer mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

1-gidrozavod 1909 yilda Nijniy-Novgorodda ishga tushirilgan. 1911 yilda Peterburgda, 1917 yilda Yekaterinburgda (Krasnodar) gidrozavodlar qurildi.

Vodorodning gidrogenizatsiya jarayonida birikishini shartli ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin.



Linol kislota



Olein kislota

Stearin kislota

Oddiy sharoitda vodorod to'yinmagan yog' kislotalarga va birikmaydi. Vodorod yog' kislotalarga faqatgina katalizator ishtiroqida birikadi.

Gidrogenlash jarayonining tezligi: glitseridlarni gidrogenlash tezligi ulardagi yog' kislotalari tarkibiga katalizator aktivligi va miqdoriga, sistemadan vodorod o'tkazishning intensivligi va uni yog'da bir tekis tarkalishiga, yog'ni qizdirish temperaturasiga bog'liq.

Katalizator qancha aktiv bo'lsa, gidrogenlash shunchalik tez kechadi. Katalizator miqdorini ko'payishi, reaksiyani tezlashtiradi. Lekin katali-zator yog' massasidan 0,3-0,4% dan ko'proq olinsa, reaksiya tezligi sezilarli darajada ortmaydi. Temperatura oshishi bilan gidrogenlash tezligi ham oshadi. Sanoatda gidrogenlash $180-220^{\circ}S$ temperaturada olib boriladi.

Gidrogenlash temperaturasi katalizator aktivligiga va yog' tabiatiga bog'liq. Jarayonning borishi va salomas sifati katalizator tabiatiga bog'liq. Cu-Ni katalizator Ni katalizatoriga qaraganda selektivroqdir ya'ni ozuqa salomasi ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Ishlatilgan katalizator yangi katalizatorga qaraganda selektivliroqdir.

Izokislotalarning hosil bo'lishi yarim gidrogenlanish mahsulotlarini hosil bo'lishi bilan izohlanadi. Izokislotalar xosil bo'lishi salomasning qattiqligini oshiradi. Masalan, sis-olein kislotaning $16^{\circ}S$ bo'lsa, trans-olein kislotaning (elaидин kislota) erish xarorati $44^{\circ}S$.

Izomerizatsiya tezligi ham katalizator tabiatiga, temperatura va N_2 bosimga bog'liq. Aktiv katalizatorda gidrogenlash tezligi izomerlanish tezligiga qaraganda yuqori. Shuning uchun aktiv katalizatorlarda yumshoq konsistensiyali salomaslar olinadi.

Yog'larni gidrogenizatsiyalash jarayonida katalizatorlar. Yog'larni gidrogeni-zatsiya qilish sanoat katalizatorlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) faqatgina gidrogenizatsiya jarayonini tezlatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak va noxush reaksiyalar yuz berishi kerak emas.
- 2) yuqori aktivlik ishlab chiqarish quvvati va selektivlikga ega bo'lishi kerak.
- 3) katalizator salomasdagi oson ajralishi kerak.
- 4) katalizator bahosini arzonligi, xomashyo va materiallarni serobligi.

Yog'larni gidrogenizatsiyasida nikel asosidagi katalizatorlar ishlatiladi, shuningdek nikel va mis katalizatorlari ham ishlatiladi. Katalizatorlar strukturasiga ko'ra ko'kunsimon va granullangan, qotishma holida bo'ladi. Ko'kunsimon katalizatorlar suspenziya (yog'da) ko'rinishida ishlatiladi, ularni dispersli yoki suspenziyalangan deyiladi, zarrachalar kattaligi 15 mkm. Katalizatorlarni yuzasini ko'paytirish uchun metallarni yuzasi g'ovakli bo'lgan materialga cho'ktiriladi. Bu usul bilan olingan katalizatorlar tashuvchili katalizatorlar deyiladi.

Katalizatorlarni olinish usuliga qarab 2ga bo'linadi.

- 1)cho'ktirilgan
- 2)qotishmali

Katalizator harakatining mohiyati. Kimyoviy reaksiya amalga oshishi uchun molekulalar to'qnashishi kerak, lekin to'qnashishlarning juda kam qismi molekulalarning birikishiga olib keladi. Bu shu bilan izohlanadiki, juda kam qism molekulalarning energiyasi bog'larni uzib, yangi bog'lar hosil qilish qobiliyatiga ega. Molekulaning bu minimal energiyasi, reaksiyaning energiya aktivligi deyiladi.

Katalizator reaksiyaga kirishuvchi moddalar bilan birikib, yuqori reaksiya qobiliyatli yuzani hosil qiladi. Katalizatorlar reaksiya tezligini 10^6-10^{16} marta tezlashtiradi. Gidrogenizatsiya quyidagi bosqichlardan iborat:

1)reaksiyaga kirishuvchi moddalarni katalizator yuzasiga keltirish

2)bu molekulalarni katalizator yuzasida adsorbsiyasi


3)sorbsiyalangan molekulalarning kimyoviy almashinish va mahsulot hosil bo‘lishi.

4)mahsulot molekulalari bog‘larining katalizator yuzasidagi sarfi

5)katalizator yuzasidan ularni ajratish

Katalizator yuzasida turli aktivlikka ega bo‘lgan adsorbsiya markazlari bor. Bunday adsorbsion markazlar katalizatorning aktiv markazlari deyiladi.

Sanoatda katalizatorni olish uchun konsentratsiyasi 35 g/l bo‘lgan Ni : Cu = 3:1 yoki 1:1 nisbatda bo‘lgan Ni va Cu sulfat eritmasi tayyorlanadi. Eritmaga 40-45⁰S xaroratda 20-30 % ortiqcha miqdorda sodaning 10 % li eritmasi qo‘shiladi.



CHO‘kmanni filtrlab, filtrda soda va sulfatlardan yuviladi. Keyin cho‘kmanni 120⁰S temperaturada quritiladi va maydalanadi. Ni – Cu katalizator oson qaytariladi (200-220⁰S).

Ishqor bilan ishlangandan so‘ng, A1ni erishi natijasida, qotishma yuzasi aktiv bo‘lib, qoladi. Ishqor bilan yuvilgan qotishma kondensat bilan neytral reaksiyagacha keyin quritiladi, temperatura 160⁰S gacha ko‘tarilib turiladi.

Vodorod ishlab chiqarish. Vodorod ishlab chiqarishni bir qancha usullari ma’lum. Shulardan gidrolizlarda quyidagilar ishlatiladi.


1.temir-bug‘ usuli (kontaktli)

2.tabiiy gaz konversiyalash usuli

3.elektrolitik usul.

Keng qo‘llanayotgan bu elektroliz usulida vodorod ishlab chiqarish : suv eritmani elektrolitga tushirilgan 2 ta elektrond (katod, anod) elektrolitik yacheykani vujudga keltiradi.

Bunda elektrodlarda elektroqimyoviy reaksiya yuz beradi. Elektroliz vaqtida quyidagi reaksiya yuz beradi:



Natijada vodorodning bir xajmiga ko‘shimcha mahsulot sifatida $\frac{1}{2}$ xajmda O₂ hosil bo‘ladi. Suv elektrolizi elektrolizerlarda olib boriladi.

U elektrolit uchun vanna va unga tushirilgan elektrodlardan iborat.

Gidrozavodlarda FV-250 va FV-500 tipdagi elektrolizerlar ishlatiladi. Ularning N₂ ishlab chiqarish quvvati soatiga 250-500 m³.

Usul yutug‘i: elektrolizerlarning yuqori ishga mustahkamligi, N₂ning yuqori tozaligi (99.8%), xomashyo (suv)ning qiymati pastligi, suv va yordamchi materiallarning minimal sarfi, jarayonining yuqori avtomatlashishi.


Kamchiligi: elektrenergiyaning ko‘p miqdordagi sarfi.

Vodorod 2,7-3,6 KPa bosim ostida xajmi 3000m³ bo‘lgan xo‘l gazgolderlarda saqlanadi.

Gidrogenlash usullari. Yog‘larni gidrogenlash – suyuq fazali geterogen katalitik jarayondir. N₂ va qattiq – suspenziyali yoki turg‘un katalizatorlar ishlatiladi. Gidrogenlash davriy va uzlusiz usullar bilan olib boriladi.

Uzlusiz usul bilan gidrogenlash batareyalarda amalga oshiriladi. U 3ta avtoklavdan iborat bo‘lib, ular gazlift yoki quyuvchi truba orqali birlashtirilgan. Bu usul bayoni quyidagicha:

Rafinatsiyalangan va oqlangan yog‘ yig‘uvchi bakdan nasos dozator bilan uzlusiz ravishda issiqlik almashgich orqali u yerda tayyor salomasning issiqligi hisobiga isitiladi) avtoklavga keladi. Bu avtoklavda yog‘ yuqori bosmili bug‘ bilan 190-200⁰S gacha isitiladi. Avtoklavga yig‘uvchi bakkaldan nasos dozator yordamida uzlusiz ravishda katalizator suspenziyasi berib turiladi. Katalizator, aralashtirgichdag‘ yangi katalizator va ishlangan katalizatorni aralashtirib 1:4 yoki 1:5 nisbatlar tayyorlanadi. Katalizator avtoklavga konsentratsiyasi 5% bo‘lgan yog‘li suspenziya shaklida yuboriladi. Yog‘ 2–avtoklavga 200-210⁰S temperatura, 3–avtoklavga 210-220⁰S temperatura bilan o‘tib boradi.



Tayyor salomas ishlangan katalizator bilan birga gaz ajratgich, issiqlik almashinish apparatlari orqali salomas yig‘uvchi – tindirish apparatiga keladi. U yerda salomas qisman katalizatordan ajratiladi, keyin sovitgich orqali filtrpressga keladi va katalizatordan ajratiladi. Filtrlangan salomas bakda yig‘iladi. Ajralgan vodorod gaz ajratgichdan gaz tozalash sistemasiga yuboriladi. Tozalash sistemasida tozalangan vodorod aralashtirgichda yangi vodorod bilan aralashtiriladi. Bu aralashma kompressor bilan yuqori bosmili ressiverga yuboriladi. U yerda sovitgich rassol bilan sovitiladi va suv ajratgich orqali avtoklavlarga keladi. Avtoklavdan avtoklavga yog‘ gazlift yordamida o‘tadi. Gazliftda ishchi gaz vodorod hisoblanadi. Gazlift 2ta bir-biriga kiydirilgan truba bo‘lib, u avtoklav tagigacha tushgan bo‘ladi. Ichki truba orqali vodorod yuboriladi, bu trubaning pastki qismida mayda teshikchalar bor. Vodorod yog‘ bilan aralashib, kichiq solishtirma og‘irlilikdagi aralashmani hosil qiladi. Shuning hisobiga trubadagi yog‘ ko‘tariladi va biriktiruvchi truba orqali keyingi avtoklavga o‘tadi.

Gidrogenlangan yog‘larni ko‘rsatkichlari.

Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan salomas (TU Uz 86-1-97)

Ko‘rsatkichlar	Salomas markasi			
	1	2	3	4
Ter, 0S	31-34	32-36	35-37	42-45
Qattiqligi 15^0S da, g/sm	160-320	160-320	500-700	Aniqlanmaydi
Yod soni, %J	70-85	70-85	60-70	Aniqlanmaydi
Kislota soni, mg KON	1.0	1.0	2.0	3.0

1 – margarin mahsulotini ishlab chiqarish uchun salomas, o‘simlik yog‘laridan olinadi.

2 – margarin mahsulotini ishlab chiqarish uchun salomas, o‘simlik va mol yog‘i aralashmasidan olinadi.

3 – konditer yog‘i uchun salomas, paxta yog‘idan olinadi.

4 – konditer yog‘i uchun salomas, pal moyader yog‘idan pereeterifikatsiya yo‘li bilan olinadi.

Texnik salomas (TU Uz 86-2-98)

Ko‘rsatkichlar	Salomas markasi					
	1	2	3	4	5-3	6
Yod soni, % J ₂	65	65	65	55	17	1
Titr, 0S	39-43	39-43	46-50	46-50	58	54
K.s. mg KON	3.5	Aniqlanmaydi	5	Aniqlanmaydi	6	3

1 – o‘simlik va mol yog‘laridan olingan salomas (atirsovun uchun)

2 – soapstokning distillangan yog‘ kislotalaridan olingan salomas (atirsovun uchun)

3 – o‘simlik va mol yog‘laridan olingan salomas (xo‘jaliksovuni uchun)

4 - soapstokning distillangan yog‘ kislotalaridan olingan salomas (xo‘jaliksovuni uchun)

5,6 – o‘simlik va mol yog‘laridan stearin uchun salomas.

Tekshirish uchun savollar.

1. Yog‘larni gidrogenlash usullari.
2. Moylarni gidrogenlash jarayonining parametrlari.
3. Moylarni avtoklavlarda gidrogenlash.
4. Gidrogenlangan yog‘larning ko‘rsatkichlari.
5. Uzluksiz gidrogenlashning prinsipial sxemasi.
6. Moylarni gidrogenlash uchun ishlatiladigan katalizatorlar.
7. Katalizator harakatining moxiyati.
8. Aktiv markazlar to‘g‘risida tushuncha.
9. Sanoat katalizatorlari.
10. Katalizatorlarni sinflanishi
11. Katalizatorlarni tayyorlash.
12. Vodorod ishlab chiqarishning zarurligi.
13. Suvni elektroliz qilish usuli bilan vodorod olish.

14. Vodorodni saqlash.
15. Elektroliz usulida vodorod olishning afzalligi.

«Tayanch» so‘z va iboralar.

Gidrogenlash, avtoklav, gidrogenlash rejimi, ozuqa salomas, texnik salomas, davriy usul, uzlusiz usul, regeneratsiya, yog‘sizlantirish, qaynatish, tozalash, cho‘ktirish.

5 – MA’RUZA MARGARIN ASSORTIMENTI VA ULARNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Reja: Margarin retsepturalari va komponentlarni tayyorlash. Emulsiya tushunchasi. Margarin ishlab chiqarishning prinsipial sxemasi. Mayonezlar retsepturalari va ishlab chiqarishning prinsipial sxemasi.

Margarin sariyog‘ga o‘xhash yog‘ sifatida 1869 yilda fransuz kimyog‘ari Mej-Murye tomonidan ishlab chiqarilgan. U eritilgan mol yog‘ining tez eriydigan qismini sigir oshqozanidagi zardob yordamida emulsiyalashni taklif etdi. Xosil bo‘lgan aralashmani yax suvda sovutilganda yarim qattiq och sariq rangli yaltiroq maxsulot xosil bo‘ldi. Mej-Murye uni margarin deb atadi. (Margjaret – fransuzcha – marvarid). YA’ni marvarid ma’nosini bildiradi. Margarin – bu mayda zarrachali emulsiya bo‘lib, uning tarkibiga: yog‘lar, sut, tuz, shakar vitaminlar fosfatidlar, emulgatorlar va boshqalar kiradi. Birinchi margarin zavodlari 1930 yilda Moskva va Sankt-Peterburgda ishga tushirilgan. Respublikamizda Toshkent yog‘-moy kombinatida qattiq va yumshoq margarin ishlab chiqarilmoqda. Moylarning ozuqa qiymati ularning energetik qiymati va fiziologik ta’siri Bilan belgilanadi. Margarin kishi organizmiga singishi jixatidan sut yog‘idan past emas va energetik qiymati jixatidan esa undan yuqori turadi.

Ma‘lumki mayda zarrachali emulsiya holatidagi yog‘lar kishi organizmiga yaxshi singadi. Bunga yog‘larning erish xarorati ham ta’sir etadi. Shu sababli, margarin uchun ishlatiladigan yog‘larning xususiyatlari asos qilib olinib, masulotning erish arorati 31-34⁰S dan yuqori bo‘lmasligi kerak. Margarinda mavjud bo‘lgan essensial (to‘yinmagan) yog‘ kislotalar uning fiziologik qiymatini oshiradi.

Margarin masulotlarining assortimenti. Margarin masulotlari quyidagilarga bo‘linadi: 1. Margarinlar tarkibidagi yog‘ning miqdori 82% dan kam bo‘lmasligi kerak. (sutli margarinlar). 2. Kulinar yog‘larda yog‘ning miqdori 99,7% gacha (kandolat, non masulotlari uchun va oshpazlik).

Ishlatilishiga va retsepturasiga qarab margarinlar quyidagilarga bo‘linadi:

- A) Oshxona va markali (buterbrod) margarinlar
 - B) Sanoatda qayta ishlash va umum ovqatlanish tizimi uchun
 - V) maza kirituvchi qo‘sishimchali margarinlar (yog‘liligi 62% dan kam bo‘lmasligi kerak).
- Margarinlar qattiq, yumshoq va suyuq xolatda bo‘lishi mumkin.

Yumshoq margarinlar buterbrod yog‘i sifatida ishlatiladi. Suyuq margarinlar non masulotlari, unli kandolat masulotlari ishlab chiqarish uchun foydalilanadi.

Maza kirituvchi moddalari bo‘lgan margarinlar (shokoladli) tarkibida kakao-poroshok, ko‘p miqdorda shakar bo‘ladi va ular qandolat masulotlar tayyorlash uchun ishlatiladi.

Kulinar yog‘lari quyidagi assortimentda ishlab chiqariladi: pechenye, shokolad va vaflı masulotlari uchun. Bu yog‘lar turli tarkibga ega bo‘lib, quyidagi komponentlardan iborat: salomas, pereeterifikatsiyalangan yog‘, o‘simlik moyi. Ba’zi kulinar yog‘lar tarkibiga: mol yog‘lari ham qo‘shiladi.

Non masulotlari uchun ishlatiladigan yog‘lar fosfatid qo‘silib suyuq xolatda tayyorlanadi.

Margarin ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyolar. Margarin ishlab chiqarishning asosiy xomashyosi yog‘ va sut hisoblanadi.

Yog‘li xomashyo. Asosiy xomashyo suyuq va gidrogenlangan (salomas) xoldagi o‘simlik moyidir. Kungaboqr, paxta va soya moylari keng qo‘llaniladi. Gidrogenlangan moy margarin masuloti retsepturasidagi asosiy komponentdir. Undan tashqari hayvon yog‘laridan mol, qo‘y yog‘lari va sariyog‘ ishlatiladi.

Sut. Margarin ishlab chiqarish uchun pasterizatsiyalangan yoki ivitilgan sut ishlatiladi. Ivitilgan sut margaringa o‘ziga xos maza, xushbo‘y hid berib, margarinni saqlanish muddatini oshiradi. Sutdagagi quruq qoldiq miqdori 8,0 foizdan ko‘p va kislotaliligi 21⁰T dan kam bo‘lishi kerak (Sutning Ternerdag'i kislotaliligi deb 100ml sutni neytrallash uchun kerak bo‘lgan 0,1N ishqor eritmasining millilitrlar miqdoriga aytildi).

Agar kislotaliligi 23⁰T dan ortib ketsa, pasterizatsiya vaqtida sut ivib qolishi mumkin. Yangi sog‘ilgan sutning kislotaliligi 15-16⁰T bo‘ladi.

Emulsiyalar haqida. Margarin suv va moy aralashmasidan xosil qilingan quyuq emulsiyadir. Emulsiya oddiy sharoitda tashqi o‘rinishidan bir xil bo‘lib, bir-birida aralashmaydigan va bir birida erimaydigan ikki suyuqlik aralashmasidir. Suyuqliklardan biri mayda zarrachalar (tomchilar) shaklida ikkinchisida taqsimlangan bo‘ladi. Ikki turdagи emulsiya mavjud: suvning ichida yog‘ (YO-S) va yog‘ning ichida suv (S-YO). Tabiiy emulsiyalarga sut yoki sariyog‘ misol bo‘lishi mumkin. Emulsiya barqaror bo‘lishi uchun emulgatorlar ishlataladi.

Emulgator. Margarin tayyorlashda – turg‘un va mayda zarrachali emulsiya xosil qilish uchun emulgatordan foydalaniladi. Yaxshi emulgator margarinni juda turg‘un qilib, yog‘larning suv bilan biriktirish va kompleks birikmalar xosil qilish, emulsiyanish xususiyatlarini yaxshilaydi, organizmga singishini tezlashtiradi, sirt aktivligini oshiradi. Margarin ishlab chiqarishda emulgator sifatida monoglitsenid, distearat monoglitsen (T-2), quritilgan sut va monoglitsen bilan fosfatid konsentrati aralashmasi (T-F), MG, MGD, T-1 markali emulgatorlar ishlataladi.

Margarin retsepturasi. Margarinning yog‘li asosi turli yog‘larning aralashmasidan iborat. Bu aralashmaning erish xarorati, qattiqligi va qattiq faza miqdori margarinni asosiy ko‘rsatkichlaridir. Erish xarorati yog‘li asosning tarkibiga bog‘liq. Mo‘tadil struktura xosil bo‘lishi uchun margarinning yog‘li asosi tarkibiga erish xaroratlari xar xil bo‘lgan salomasning bir necha turlari, pereeterifikatsiyalangan moylar va suyuq o‘simlik moylari qo‘shiladi. Qandolat, non masulotlari uchun va kulinar yog‘larning yog‘li asos retsepturalari ularni ishlatalishga qarab tuziladi. Kuyidagi jadvallarda sutli margarinlar va kulinar yoglar retsepturasi keltirilgan.

Komponentlar	Stoloviy	sariyog‘	Ekstra
	% miqdori		
Salomas Ts 31-34 ⁰ S	46	50	26
1.1.1. Qattiqlik 160-320 g/sm			
Salomas, Ts 35-36 ⁰ S	11	8	12
1.1.2. Q=350-410 g/sm			
3. Paxta palmitini Ts 18-22 ⁰ S	8	-	8
4. O‘simlik moyi	16	15	10
5. Kokos yog‘i	-	-	25
6. Sari yog‘i	-	-	-
7. Bo‘yoq	0.2	0.2	0.2
8. Sut	12	8	16
9. Emulgator	0.2	0.2	0.2
10. Tuz	0.4	0.3	0.3
11. Shakar	0.4	0.3	0.3
12. Suv	6	8	2
Ja’mi	100	100	100
Shu jumladan yog‘lilik, sut yog‘i Bilan birgalikda	82	82	82

Kulinar yog‘larining retsepturasi

1.1.2..1.1.1.1.1 Komponentlar	Pechenege uchun konditer yog‘i	O‘simlik yog‘i	Kulinar yog‘i	
			shark	Penorus
1. Salomas Ts 31-34 ⁰ S qattiq ligi 160-320 g/sm	73	70	65	35
2. Mol yog‘i	24	-	-	30
3. Qo‘y yog‘i	-	-	15	-
4. O‘simlik moyi	-	10	10	20
5. Paxta palmitini	-	20	10	15
6. Fosfatid konsentrati	3	-	-	-
Ja’mi	100	100	100	100

Sutni tayyorlash. Sigin sutining tarkibi, % xisobida

Suv	87 - 89 gacha
Yog‘	3,0 – 6,0
Oksillar	3,4 – 4,0
Laktoza	4,0 – 5,5
Mineral moddalar	0,6 – 0,8

Sut oksili – bu sut albumini, sut globulinidir. Oksilning umumiy miqdoriga nisbatan kazein 80 %-ni tashkil etishi mumkin.

Sutdagi quruq qoldiqning mavjudligi, sutning ozuqaviy kiymatini ifodalaydi va ularning kamayishi sutning suv bilan suyultirilganligini ko‘rsatadi. Sutda ham moyda eruvchan ham suvda eruvchan vitaminlar hamda mineral elementlar mavjud. Sutga ikki bosqichda ishlov beriladi. Birinchi – tozalash, ikkinchi – ivitish.

Sutni bakteriyalardan to‘la tozalash maqsadida pasterizatsiya qilinadi.

Sutni ivitishdan maqsad margaringa sutli, nordon va xushbo‘y ta’m berish va xosil bo‘lgan sut kislotasi ta’sirida margarinda bo‘lishi mumkin bo‘lgan mikroflorani rivojlanishiga to‘sqinlik qilish. Margaringa ivitilgan va ivitilmagan sut aralash xolda 1:1, 1:3 nisbatda qo‘siladi. Ivitilgan sutdagagi xushbo‘y ta’mni diatsetil va diatsetoin moddalarining mavjudligi belgilaydi. Sut ivitish tomizg‘ilar margin zavodl ariga quruq xolda keltiriladi. Ulardan dastlab oz miqdorda suyuq xoldagi tomizg‘ilar keyin katta xajmdagi sutda aralashtirilgan xolda tomizg‘ilar tayyorlanadi.

Retseptura buyicha barcha komponentlar maxsus tayyorlanadi. Fosfatid konsentrati emulgator sifatida ishlatiladi xamda kulinariya yog‘larining ozuka kiymatini oshirish maqsadida qo‘siladi. Fosfatid konsentratida 50 % dan kam bo‘lmagan miqdorda fosfatid va namlik 4 % dan ortmasligi kerak. U quyidagi nisbatda eritiladi moy:fosfatid=4:1. Osh tuzi margarinning ta’mini yaxshilash hamda konservant sifatida qo‘siladi. Shakar margarinning ta’mini yaxshilaydi. Bo‘yoqlar sifatida margaringa och-sariq ya’ni sariyog‘ga o‘xshash rang berish maqsadida karotinning yog‘li eritmalar qo‘siladi. Xozirgi vaqtida biosintez yo‘li bilan olingan β – karotin qo‘llanilmokda. Vitaminlar margarinning biologik xususiyatlarini oshirish maqsadida qo‘siladi. Xushbo‘y xid beruvchi qo‘sishimcha sun’iy aromatizatorlar ham qo‘siladi.

Margarin ishlab chiqarishning prinsipi. Margarin ishlab chiqarish quyidagi operatsiyalardan iborat: meyorlash, aralashtirish, emulsiyalash, o‘ta sovitish, kristallash va kadoqlash.

Meyorlashning ikki usuli ma’lum: og‘irligi va xajmi buyicha. Og‘irligi buyicha meyorlash komponentlarni aniq miqdorda olishni ta’minlaydi.

Aralashtirish. Komponentlarni aralashtirish jarayonida aralashtirish bilan birga aralashmaning xarorati 38-40⁰Sda ushlab turuvchi aralashtirgichlar qo‘llaniladi. Aralashtirish davomida dag‘al emulsiya, ya’ni dastlabki emulsiyalash jarayoni bajariladi. Aralashtirgichning aylanish tezligi 60 ayl/min.

Emulsiyalash. Dag‘al emulsiyadan mayda zarrachali emulsiya hosil qilish uchun gomogenizatorlardan foydalananiladi. Ular gorizontal uch plunjerli yuqori bosimda ishlaydigan nasoslardir. ularning asosiy elementi gomogenizatsiyalovchi kamera qismi xisoblanadi. Emulsiya kameraga tushgach, tirkish va klapan orqali siqib chiqariladi. Shu vaqtida yuqori dispers emulsiya xosil bo‘ladi. Nasos hosil qilgan yuqori bosim emulsiyaning o‘ta sovitgichdan kadoqlash avtomatigacha bo‘lgan trubalardagi karshilikni bartaraf qilishi uchun sarf bo‘ladi. Nasosning bosimi 18-22 atm.


O‘ta sovitish. Margarin emulsiyasi sovitilganda, kristallanish jarayoni sodir bo‘ladi. Strukturalarning shakllanishi sovitish tezligiga, aralashtirish tezligiga, to‘yingan va to‘yinmagan glitseridlarning miqdoriga bog‘liq. Sekin sovitilganda katta kristallar xosil bo‘ladi. Ular margaringa dagallik, murtlik va maydalanuvchanlik xossalari beradi.

Zamonaviy margarin ishlab chiqarish korxonalarida o‘ta sovitish aralashtirish bilan birgalikda olib boriladi. Natijada tez suyuqlanuvchan, egiluvchan va yaxshi konsistensiyali marginlar xosil bo‘ladi.

Kerak bo‘lgan kristall strukturasi, bir xil va muloyim konsistensiyali maxsulot olish uchun kadoqlashdan oldin kristallizatorlar o‘rnataladi.

Узлуксиз усулда маргарин ишлаб чиқаришнинг принципиал схемси

Ёғлар ва ёғда эрувчи компонентлар



Rafinatsiyalangan va xidsizlantirilgan yog‘lar va yog‘da eruvchi moddalar retseptura buyicha avtomatik tarozida, suv-sutli fazalar esa ikkinchi avtomatik tarozida meyorlanadi (1) va fazalar aralashtirgichda $38-40^0S$ xaroratda ara-lashtiriladi (2). So‘ngra emulsiya yuqori bosimli nasos yordamida $18-22$ atm bosimda gomogenlanib (3), $38-40^0S$ xaroratda o‘ta sovitgichga uzatiladi. Sovut-kichda (vatatorda) $12-14^0S$ gacha sovutilib (4), so‘ngra filtrdan o‘tkazilib, kristallizatorga (5) keyin qadoqlovchi avtomatlarga yuboriladi. Qadoqlash avtomatlaridan (6) qadoqlangan margarin taxlash avtomatlariga berilib, qutilarga joylanadi va tayyor masulot omboriga yuboriladi.

Margarinni monolitda ishlab chiqarishda dekristallizatorдан о‘tkazilib, qutilarga to‘ldiriladi. Uzluksiz ishlaydigan avtomatlashtirilgan liniyalarning ko‘pchiligining unumдорлиги соатига 2,5t ga teng.

Quyma margarinlar tarkibida ko‘p miqdorda suyuq o‘simlik moyi bor. Quyma margarinlar tarkibida 82% va 60% yog‘ bilan ishlab chiqariladi. Bu margarinlar kasallikni oldini olish va davolash uchun mo‘ljallangan. Ular polimer idishda (stakan va bankalarda) ishlab chiqariladi.

Quyma margarin ishlab chiqarish texnologik jarayoni yuqorida keltirilgan jarayonga uxshash. Farki shundaki, sovutgichdan keyin margarin mexanik ishlov berish uchun dekristalizatorga, so'ngra qadoqlashga yuboriladi.

Kulinar yog‘shlarni ishlab chiqarish. Kulinar yog‘lari kulinariya va oziq-ovqat sanoati uchun mo‘ljallangan. Bo‘lar suvsiz bo‘lib, yog‘lar va o‘simgil moylari, salomas, xayvon yog‘laridan tarkib topgan. Foydalanimish maqsadlariga ko‘ra ularga bo‘yoqlar, antioksidantlar ta’m beruvchi moddalar qo‘silishi mumkin.

Kulinar yog‘larini ishlab chiqarish texnologik jaryoni quyidagi bosqichlardan iborat: yog‘larni saqlash va ularni eritish, meyorlash, aralashtirish, sovutish, mexaniq ishlov berish va qadoqlash.

Tekshirish uchun savollar.

1. Margarin ishlab chiqarishning zarurligi.
 2. Margarin retsepturasi
 3. Margarin maxsulotlari assortimenti
 4. Margarin ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyolar.
 5. Margarin – bu nima?
 6. Margarin kim tomonidan ishlab chiqarilgan
 7. Margarinning ozuqaviy qiymati.
 8. Emulsiyalar xaqida tushuncha.
 9. Margarin uchun ishlatiladigan emulgatorlar
 10. Sutli margarin retsepturasi.
 11. Kulinar yog'lari retsepturasi.
 12. Margarin ishlab chiqarish texnologiyasining parametrlari.
 13. Kulinar yog'larni ishlab chiqarish.
 14. Margarin ishlab chiqarish bosqichlari
 15. Meyorlash usullari

16. Aralashtirish, emulsiyalash jarayonlari
17. O‘ta sovitish jarayoni
18. Sutni tayyorlash, pasterizatsiyalash.
19. Sutni ivitishdan maqsad
20. Retseptura bo‘yicha komponentlar va ularni tayyorlash.

«Tayanch» so‘z va iboralar



Margarin, kulinariya yog‘i, sutli margarin, emulsiya, aromatizator, tuz, sut, shakar, emulgator, vitamin, pasterizatsiya, sterilizatsiya, retseptura, aromatizatorlar, komponentlar, emulsiyalash, aralashtirish, meyorlash, o‘ta sovitish, kristall struktura, monolit, vator (o‘ta sovitgich).

6 – MA’RUZA. SOVUN ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI.


Reja: Sovunlarning turlari. Sovun retsepturasi. Sovun asosini pishirish va unga ishlov berish texnologiyasining principial sxemalari. Sovunlarning sifat ko‘rsatkichlari.

Sovun o‘zi nima? Sovun bu yuqori malekulyar yog‘ va naften kislotalarining tuzlaridir. Yuvish va tozalash uchun ishlatiladigansovun 10 dan 20 gacha uglerod atomidan tashkil topgan yog‘ kislotalarining natiriyliga va kalyqli tuzlaridir. Tarkibida uglerod atomi soni 10 kam bo‘lgan yog‘ kislotalarining tuzlari yuvish qobiliyatiga ega emas.


Sovun yog‘ kislotalarining uyuvchi ishqorlar va karbonatli ishqorlar bilan neytrallash tufayli osil bo‘ladi.



Shuningdek sovun neytral yog‘larni sovunlanishi natijasida ham hosil bo‘ladi.



Yog‘ kislotasining molekulasi sovun bilan reaksiyaga kirishib, nordon sovun hosil qiladi.



Nordon sovunlar suvda erimaydi.

Sovun pishirish uchun olingan yog‘lar va yog‘ kislotalar tartibiga ko‘ra sovun qattik yoki yumshoq bo‘lishi mumkin. Qattiq yog‘ yoki yog‘ kislotalaridan qattiq sovun, yumshoq yog‘ yoki kislotalaridan yumshoq sovun chiqadi. Bundan tashqari natriyli sovunga nisbatan kalyqli sovun yumshoq bo‘ladi.

Ma’lumki sovunlarning xo‘jalik va atir sovun turlari mavjud. Ularning asosiy farqi sovun pishirish uchun ishlatilgan xomashyolarning turlari va miqdoridir. Masalan, sanoatda 72% va 60% li xo‘jalik sovunlari ishlab chiqariladi. Foizda ifodalangan qiymat sovun pishirish uchun sarf bo‘lgan yog‘ kislotalar miqdorini bildiradi. Atir sovunlar uchun bu ko‘rsatkich 80% dan kam bo‘lmaydi.

Sovunlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari. Sovun spirtda, issiq suvda yaxshi eriydi va natiriyligi sovunlarga qaraganda kalyqli sovunlar yaxshi eriydi. Sovun malekulasi uchun uglerod atomi sonini ko‘payishi uning eruvchanligini kamayishiga olib keladi. Sovun organik erituvchilarda erimaydi. Tuyingan yog‘ kislotalari sovunlariga nisbatan tuyinmagan yog‘ kislotalari sovunlari yaxshi eriydi va temperaturaning ortishi sovunning eruvchanligini oshiradi. Nordon sovunlar suvda qiyin eriydi.

Suvsiz sovunlarning suyuqlanish temperaturasi 225-270°S ga teng.

Sovunlar nam tortish, bo‘kish, xususiyatlariga ega.

Kislotalar ta’sirida sovunlar parchalanadi va Yana yog‘ kislotasiga aylanadi:



Sovunning suvdagi eritmasi sirt aktivdir, ya’ni suvning sirt taranglikni pasaytiradi.

Ko‘pik – uyali dispers sistema bo‘lib, bunda havo pufakchalari sovun pardasi bilan o‘ralgan. Ko‘pikning barkarorligi – 5 minutdan keyin kamaygan ko‘pik xajmining uning dastlabki xajmiga nisbati bilan

aniqlanadi. Tuyingan yuqori molekulali yog‘ kislotalari sovunlari (S_{16}, S_{18}) mayda va barkaror ko‘pik hosil qiladi. O‘rta molekulali yog‘ kislotalari sovuni yirik ko‘pik hosil qiladi. Yuqori molekulali yog‘ kislotalarini ko‘piklanish xususiyati qizdirilganda ortadi.

Yuvish qobiliyatini bilish uchun avvalo xo‘llanish nimaligini aniqlashimiz kerak. Yaxshi xo‘llanishda suyuqlik qattiq jismning ustida tekis yoyiladi va uning yoriqlariga singadi. Sirt tarangligi kichik bo‘lgan suyuqliklar yaxshi xo‘llash xususiyatiga ega. Xo‘llashni yaxshilash uchun suyuqlikning sirt tarangligini kamaytirish kerak. Ma’lumki suvga qaraganda spirt va kerosin yuzani yaxshi xo‘llaydi. Suvning temperaturasi 20 dan 80°S gacha ortganda sirt taranglik 73 dan 62 erg/sm³ gacha kamaysa, suvga sovundan 0,1% qo‘silsa, suvning sirt tarangligi 26,5 erg/sm² gacha pasayadi. Shuning uchun sovunli eritma matoga yaxshi singadi.

Sovunning retsepturasi uning fizik-kimyoviy xusuiyati, tannarxi, tayyorlash texnologiyasini belgilaydi. Shuning uchun retseptura tuzish sifatli sovun ishlab chiqarishning asosiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. Retseptura tuzganda shunday yog‘lar va yog‘ kislotalarni tanlash kerakki sovun qattiq va elastik, yaxshi eriydigan, kam sarflanadigan va yuvish qobiliyati yuqori bo‘lishi lozim. Undan tashqari xo‘jalik sovun uchun yog‘li aralashma titri (erish temperaturasi) $35-42^{\circ}\text{S}$ bo‘lishi kerak. Atir sovun uchun yog‘ aralashmasining titri $31-41^{\circ}\text{S}$ bo‘lishi kerak. Quyida xo‘jalik sovunining retsepturasi keltirilgan:

Xomashyo	72%-li sovun	60 %-li sovun
Salomas	38-60	22-46
Mol yog‘i	5-17	5-12
Soapstok Y.O.K.	0-7	23-25
S.Y.O.K.	12-40	16-48

Atir sovunining retsepturasi.

Xomashyo	1gr ekstra	2 gr	3 gr
Xayvon yog‘lari	70-60	33-27	17-13
DYOK	-	32-38	52-48
SYOK $S_{10}-S_{16}$	-	16-10	14-16
Kokos moyi	13-17	6-8	3-5

Sovun pishirish va qayta ishlash jaryonlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi: sovunlash, to‘liq sovunlash, tuzlash, tindirish, silliqlash, sovun asosini qayta ishlash va uni tovar xolatga keltirish. Sovunlash, to‘liq sovunlash, tuzlash, tindirish, silliqlash jarayonlari sovun asosini pishirish deb yuritiladi. Sovun asosini pishirish davriy usulda sovun pishirish qozonlarida yoki uzlusiz usulda ishlovchi (BSHM, TNB) apparatlarida amalga oshiriladi.

Sovunlash natriy karbonat (kalsiyli soda) yordamida olib boril-ganligi uchun sanoatda karbonatlari sovunlash deb yuritiladi. Karbonatlari sovunlashda qozonga 28-30%-li natiriy karbonat eritmasi hisoblangan miqdori beriladi, o‘tkir bug‘ bilan qaynashgacha qizdirilib, retseptura bo‘yicha issiq yog‘ kislotalar kiritiladi (avval yog‘ kislotalar keyin sintetik yog‘ kislotalar). Agar avval yog‘ kislotalar keyin soda berilsa, nordon sovun hosil bo‘lib qolishi mumkin. Sovun massasida Na_2CO_3 miqdori 0,5% dan ko‘p bo‘lmasa, karbonatlari sovunlash tugagan deb hisoblanadi.

To‘liq sovunlash 40-42% li NaOH (kaustik soda) eritmasi bilan davom ettiriladi. NaOH ishqori qozonga qaynash va aralashtirishda porsiyalab beriladi. Ishqorning ortiqcha miqdori sovun massasini pishirishning oxirida 0,1-0,2% bo‘lishi lozim. Kaustik soda yordamida to‘liq sovunlash 30minut davomida qaynatilgandan so‘ng, ishqor miqdori o‘zgarmas bo‘lganda oxiriga yetgan deb hisoblanadi.

Tuzlashda sovunli yelimga o‘tkir bug‘ bilan qaynatib va aralashtirib turib 20% li NaS1 eritmasi qo‘siladi. Tuzlash tugagach, massa bir tekis qaynaydi. Pulat andavachadan yelim yupka qatlam bo‘lib oqib tushadi.

Tindirish tuzlashdan keyingi jarayon bo‘lib, sovunli massa bir necha soat davomida tindiriladi: asosiy qism (sovun yadroasi) + sovunosti yelimi hosil bo‘ladi. Asosiy qism 60-63% yog‘ kislotalardan iborat. Tindirish davomiyligi qozon sig‘imiga bog‘liq. Masalan, qozon sigimi 50m^3 bo‘lsa, tindirish 20-30 soat davom ettiriladi. Tindirish natijasida sovun yadroasi va sovun osti ishqori ajraladi. Sovun osti ishqori ajratilib, sovun yadroasi quritishga uzatiladi.


Silliklash asosan atir sovunlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Bu jarayon issiq suv bilan yoki qaynatib aloxida porsiyalar bilan qo‘shiladigan NaOH va NaS1 eritmalarini bilan bajariladi. Ishqor miqdori 0,5-0,8% ,

NaCl 0,7–1,0% miqdorda ushlab turiladi. Silliqlash suvning oxirgi porsiyasi qo'shilgandan so'ng bir soat intensiv qaynatilgandan keyin tugatiladi. Tayyor atirsovun assosi tarkibi quyidagicha bo'ladi: yog' kislotalari 61,5% dan ortiq, NaOH 0,06-0,12%, sovunlanmagan yog' 0,2% dan ko'p emas, NaCl miqdori 0,4% dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Sovun asosini qayta ishlash va uni tovar xolatga keltirish xo'jalik sovuni sovutiladi, quritiladi, mexaniq ishlov beriladi, formovka qilinadi, bo'laklarga bo'linadi, muxrlanadi va tayyor sovun bo'laklari yashiklarga joyланади.

Atir sovuni esa sovutilgandan, quritgandan va mexanik ishlov berilgandan so'ng, xushbo'y moddalar, bo'yoqlar, oksidlanishga qarshi va boshqa qo'shimchalar qo'shilib, qo'shimcha mexanik ishlov berilib, formovka qilinadi, kesiladi, tayyor bo'lgan bo'lakchalar quritib, muxrlanadi va o'ralib qutilarga joyланади.

Хўжалик совуни ишилаб чиқаришининг принципial схемаси



Zamonaviy uskunalarda sovutish va quritish birlashtirilgan. Usulning mazmuni shundaki qizdirilgan ($120-140^{\circ}\text{S}$) sovun asosi vakuum kameraga sepilib, 15-40mm.sm.ust. qoldiq bosimda quritiladi va sovutiladi. Kameradan chiqqan sovun qirindisiga shnek-pressda mexanik ishlov berilib, brusok holida chiqariladi. So'ngra bo'lakchalarga kesilib shtamplanadi. Tayyor tovar sovun qutilarga taxlanadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Sovun o'zi nima? Sovun ishlab chiqarishni ahamiyati
2. Sovunlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari.
3. Sovunni yuvish qobiliyatni.
4. Sovun ishlab chiqarish uchun xomashyolar.
5. Qo'shimcha materiallar.
6. Sovun retsepturasini tuzish.
7. Xo'jalik sovun retsepturasi
8. Atir sovuni retsepturasi.
9. Kir sovunga ishlatiladigan asosiy xomashyolar
10. Atir sovunga ishlatiladigan asosiy xomashyolar
11. Sovunni sovitish va quritish jarayoni.
12. Xo'jalik sovuniga ishlov berish.

Tayanch» so'z va iboralar.

Sovun, eruvchanlik, suyuqlanish xarorati, sirt aktivlik, ko'piklanish xususiyati, yuvish, sirt taranglik, sovutish, quritish, rang beruvchi moddalar, vakuum-kamera, sovunni qadoqlash, xomashyo, qo'shimcha materiallar, yog' o'rinnbosarlari, retseptura, xo'jalik sovuni, atir sovun, titr.

7 – MA’RUZA. GO‘SHT VA KONSERVALANGAN MAHSULOTLAR TEXNOLOGIYASI.

Reja: Go‘sht maxsulotlarini qayta ishlash korxonalari tarkibi va turlari. *Mushak, birlashtiruvchi, yog‘ va suyak to‘qimalari. Go‘sht kategoriyalari. Go‘shtning sifat ko‘rsatkichlari. Kolbasa maxsulotlari assortimenti. Pishirilgan, yarim dudlanagan va xom dudlangan kolbasalar ishlab chiqarishning prinsipial sxemsi. Tayyor maxsulotlarga talablar.*

Oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarishning asosiy xomashyolaridan biri uy hayvonlaridan qora mol, qo‘y, echki, cho‘chqa va parrandalardir. Go‘sht sanoati korxonalari tarkibiga molni so‘yishga tayyorlash, so‘yish, sub maxsulotlarni qayta ishlash, ichaklarni qayta ishlash, terisiga ishlov berish, sovutish, kolbasa maxsulotlari ishlab chiqarish, yarim tayyor maxsulotlar ishlab chiqarish bo‘limlari kiradi.

Qora mol yoshiga va jinsiga ko‘ra to‘rt guruxga ajratiladi: sigirlar, buqalar, yosh mol (3 oydan 3 yoshgacha) va buzoqlar (14 kundan 3 oygacha). Semizligi bo‘yicha, buzoqlardan tashqari, boshqa qora mollar uchta kategoriyaga bo‘linadi: oliy, o‘rt va past. Buzoqlar esa birinchi va ikkinchi kategoriyalarga ajratiladi.

Hayvon tanasi turli qismalari mushak to‘qimalari sifati xar xil bo‘ladi. Bo‘yin, qorin devorlari va yuk tushuvchi mushaklar qattiq va mazasiz bo‘lsa, umurtqa yoni, biqin va suyakka yaqin go‘shtlar ancha mazali va mayin bo‘ladi.

Go‘sht mushak va bog‘lovchi to‘qimalardan tashkil topgan. *Mushak to‘qimalari bog‘-bog‘ bo‘lib joylashgan tolalardan xosil bo‘lgan. Tolalar mushak xujayralardan iborat bo‘lib, bu xujayralarda erigan holatda ozuqaviy moddalar joylashgan. Mushak to‘qimalari bog‘lari orasida bog‘lovchi to‘qimalar bo‘lib, ular orasida nerv tolalari va qon tomirlari joylashadi. Turli hayvonlar go‘shtlarida mushak va bog‘lovchi to‘kimalar nisbati, hamda mushak tolalari qalinligi xar xilligi ular sifati orasidagi farqni keltirib chiqaradi.*

Mol tanasining yoki bo‘laklarining sifati suyak va yumshoq to‘qimalar nisbatiga bog‘liq. Bunda suyakning miqdori molning zotiga, yoshiga, jinsiga va semizlik darajasiga bog‘liq. To‘liq ajratilganda mol tanasidan 22-29%, qo‘ydan 24-32%, cho‘chqadan 12-15% suyak tushadi. Suyaklar uch xil bo‘ladi yassi (qovurg‘a), naysimon (ilik suyaklari) va g‘ovakli (o‘mirtqa, to‘piq). Naysimon va g‘ovakli to‘piq suyaklarida 10-20% atrofida yog‘ va 30% jelatin xosil qiluvchi moddalar bor.

Go‘shtlar oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, fermentlar, vitaminlar (A,V,D,YE,RR) boshqa azotli moddalar va mineral tuzlarga boy yuqori ozuqaviy maxsulot bo‘lib, ular mayinligi, mazasi va rangi bo‘yicha baholanadi. Go‘shtning mayinligi va mazasi u qayta ishlangandan so‘ng bilinsa, rangi xarid qilingandayoq ko‘rinadi. Bu ko‘rsatkichlardan eng asosiysi, ayniqsa mol go‘shti uchun, uning mayinligidir.

Go‘shtning mushak to‘qimalari mayinligi tolalar ingichkaligiga u esa o‘z navbatida molning zotiga, yoshiga, jinsiga bog‘liqligi ko‘pchilikka ma‘lum. Olimlar tomonidan molni so‘yishga tayyorlash davrida mushak to‘qimalari mayinligini saqlab qolish va oshirishning bir qancha usullari tavsiya qilingan. Bulardan biri to‘qima xujayralaridagi namlikni oshirish. Ma’lumki, elektritolitlardan natriy, kaliy, magniy, kalsiy kabi ionlarning mushak to‘qima xujayralari tashqarisidagi suyuqlikdagi konsentratsiyasi kamaysa, xujayradan suv chiqib ketadi. Shuning uchun bu ionlar konsentratsiyasini meyorida ushlab turish yoki vaqtinchada oshirish xujayralar namligini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Agar so‘yishdan oldin 5 kungacha mol ozuqasiga natriy xlorid : kaliy xlorid : magniy karbonat : kalsiy laktat = 4 : 16,3 : 1,3 : 9 nisbatdagagi kompleks elektrolit tuzlar aralashmasi berib turilsa, so‘ylgan mol go‘shti to‘qimalari mayinlashadi. Shu bilan birga so‘yilgandan so‘ng mol go‘shti to‘qimalari xujayra membranalari strukturasi buzilib, suvni maksimal ushlab turish qobiliyati pasayadi. Shuning uchun so‘yishdan oldin molga maxsus fermentlarni ineksiyalash ham to‘qimalar mayinligini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Biroq bu usul fermentlarning qimmatiligi va ayrim noxush ta’sirlari (mol jigari sifatiga) tufayli qo‘llanishi chegaralangan.

Bundan tashqari molni so‘ygandan keyingi go‘shtining mayinligi va mazasini yaxshilashning juda ko‘p usullari ham olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Masalan, qo‘y go‘shtining o‘ziga xos xidini yo‘qotish uchun qo‘y tanasining xar bir kilogramm og‘irligiga 25-30g. hisobida natriy glutamat inyeksiyalanib, bir oz vaqt 42-45°С xaroratda ushlanib, so‘ngra sovutilishi kerak.

Tovar go‘shtning yana bir sifat ko‘rsatkichi uning rangidir. Rangning o‘zgarishi xar doim ham go‘shtning ozuqaviy qiymati pasayganligidan emas. Biroq tovar ko‘rinishi bo‘lmaydi. Shuning uchun go‘shtning rangini uzoq muddatga saqlab qolish masalalari ham chuqur tadqiqot qilingan. Go‘sht to‘qimalari tarkibidagi oksimioglobin pigmenti go‘shtga chiroyli qizil rang bersa, bu pigment havoda oksidlanib jigarrang-qizil pigment metmioglobinga aylanadi.

Go'sht oziq-ovqat maxsuloti sifatida qadoqlangan, go'shtli yarimmaxsulotlar, dudlangan go'sht maxsulotlari, kolbasa maxsulotlari ko'rinishida istemolchiga yetkaziladi.

Go'shtli yarimmaxsulotlar turli xil xayvon go'shtlaridan ishlov berish usuliga ko'ra tabiiy, urvoqli, qiymalangan; saqlanishiga ko'ra sovutilgan va muzlatilgan yarimmaxsulotlar ishlab chiqariladi. Tabiiy go'shtli yarimmaxsulotlarga bir-biridan mol tanasining qaysi qismidan olinganligi va qalinligi bilan farq qiluvchi antrekot, bifshteks, file va langetlarni misol qilish mumkin. Urvoqli yarimmaxsulotlarga to'qmoqlab mayinlashtirilgan tuxumda va urvoqda bulg'alangan go'sht bo'lagidan tayyorlangan romshteks va shnitsellarni misol qilish mumkin. Kiymalangan go'shtli yarimmaxsulotlarga tarkibiga qo'shilgan ziravorlari, konsistensiyasi, mazasi va shakli bilan bir-biridan farq qiladigan kotletlar va shnitsellar kiradi.

Dudlangan go'sht maxsulotlari mol, qo'y, cho'chqa va parranda go'shtlarining maxsus joylaridan olingan bo'laklardan tayyorlanadi. Ishlov berish usuligi ko'ra xom dudlangan, qaynatib-dudlangan va dudlab-qaynatilgan turlari ishlab chiqariladi. Buning uchun bo'laklari tuzlab quyiladi so'ngra quritilib dudlanadi. Dudlash 18-20⁰S xaroratda maxsus yog'och-o'tinning chala yonishidan xosil bo'lgan tutun bilan 5 sutka davomida dudlanadi.

Kolbasa maxsulotlari go'sht qiymasi tuz va ziravorlar solinib, ishlov berilib, ichaklarga joylanib, istemolga tayyor bo'lguncha issiqlik ishlovi berilgan maxsulotdir. Kolbasalarning ozuqaviy qiymati va xazm bo'lishi go'shtnikidan yuqoridir. Chunki, uning tarkibiga yuqori to'yimlikga ega bo'lgan xilma-xil xomashyolar qo'shiladi. Bulardan sut, tuxum, kraxmal, bug'doy uni, yormalar, soya oqsili va boshqalar. Kolbasaga o'ziga xos ta'm va xushbo'y xid berish uchun qiymagaga tuz, qand, ziravorlar, sarimsoq, nitritlar va nitratlar qo'shiladi. Kolbasa qobiqlari unga muayyan shakl berib, ifloslar va mikroorganizmlar ta'siridan saqlaydi. Kolbasa qobiqlari tabiiy ichaklardan va sun'iy plenkalardan tayyorlangan turlari ishlatiladi. Kolbasalar issiqlik ishlovi berish usuliga qarab qaynatilgan, chala dudlangan va dudlangan guruxlarga bo'linadi.

Qaynatilgan kolbasalarni tayyorlashda ham, barcha kolbasa tayyorlash usullari kabi, asosiy jarayonlardan biri xomashyoni to'plab olishdir. Agar muzlatilgan go'sht ishlatiladigan bo'lsa, u muzdan tushirilib, tozalanadi. Xovuridan tushmagan go'shtdan yuqori sifatli kolbasa ishlab chiqarish mumkin. Go'shtlar tilimlanib, suyakdan, paylaridan ajratilib, sifati bo'yicha saralanadi. Go'sht maxsus moslamada 2-3sm kattalikda burdalanib, tuz va nitratlar qo'shiladi. Go'sht yaxshi tuzlansin uchun 3-4⁰S xaroratda 24-48 soat ushlanadi. Tuzlangan go'sht yana bir bor maydalani, so'ngra yog' va ziravorlar qushilib, kolbasa qiymasi xoliga keltiriladi. Maxsus shprits mashinalar yordamida kolbasa qiymasi qobiqlarga joylanadi. Xom kolbasalar avval 90-110⁰S xaroratda so'ngra 75-85⁰S xaroratli issiqlik bug' kameralarida qaynatib pishiriladi. Pishgan kolbasalar xarorati 15⁰S dan oshiq bo'limgan suv bilan sovuq dushlarda yuviladi. Turli xil nomlangan qaynatilgan kolbalar bir-biridan retsepturasi bilan bir oz farq qiladi. Masalan, «Doktorskaya» kolbasasi retsepturasida 25% oliv navli mol go'shti, 70% kam yog'li cho'chqa go'shti, 3% tuxum melanji, 2% quruq sut va muskat yong'og'i bo'ladi. Faqat mol go'shtidan tayyorlangan qaynatilgan kolbasalarda esa 40% oliv navli, 35% birinchi navli mol go'shti, 20% mol miyasi va 5% tovuq tuxumi, qalampir, muskat yong'og'i kabi xomashyolar bo'ladi.

Yarim dudlangan kolbasalarning qaynatilgan kolbasalardan asosiy farqi shundaki, pishirilgan va sovutilgan kolbasalar 35-50⁰S xaroratda 12-24 soat mobaynida dudlanadi. So'ngra kolbasalar 12⁰S xaroratda, havoning nisbiy namligi 70-75% bo'lgan sharoitda, aloxida kameralarda 2-4 sutka davomida quritiladi. Bu kolbasalar zich strukturaga ega, ularda suv miqdori qaynatilgan kolbasalardagiga nisbatan kam bo'lganligi uchun energetik qiymati ancha yuqori.

Dudlangan kolbasalar tayyorlash usuliga qarab xom dudlangan hamda qaynatib dudlangan kolbasalarga bo'linadi. Xom dudlangan kolbasalar tarkibida suv miqdori (25-30%) qaynatilgan va yarim dudlanganlarga nisbatan kam, strukturasi zich va shu sababli uzoq saqlanish xususiyatiga egadir. Ular tarkibida yog' (25-60%), oqsil moddalar (21-22%) ko'p bo'lganligi uchun to'yimli xamda yuqori energetik qiymatga ega.

Xom dudlangan kolbasalar ishlab chiqarish uchun oliy va birinchi navli mol go'shti, yog'li va yog'siz cho'chqa go'shtlari xamda to'sh yog'i ishlatiladi. Bu kolbasalarni ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyati shundaki, tayyorlangan go'sht yetilishi uchun 0-2⁰S xaroratda 3-7 sutka davomida ushlab turilib, keyin undan qiyma tayyorlanadi. Qiyma qobiqlarga joylanib, juda zich struktura berish uchun, ilgaklarga ilib qo'yilib 2-4⁰S xaroratda bir xafka davomida tindiriladi. Shundan so'ng 18-22⁰S xaroratda 2-3 sutka davomida sovuq dudlash usuli yordamida dudlanadi. Dudlangandan keyin kolbasalar tarkibida namlik 30% qolguncha 12⁰S xaroratda va havoning nisbiy nmligi 65-75% bo'lgan sharoitda 20-25 sutka davomida quritiladi. Kuritish davrida go'sht qiymasi fermentativ jarayonlarning borishi natijasida yetiladi va bu kolbasalarga boshqa issiqlik ishlovi berilmasdanoq istemolga yaroqli xolga keladi.

Kaynatib-dudlangan kolbasalar tarkibi xom dudlangan kolbasalardan deyarli farq qilmaydi. Bu kolbasalarni tayyorlashning o‘ziga xosligi shundaki, avvaliga kolbasalar 60°S xaroratda issiqlik bilan dudlanadi, keyin sovutilib, qaynatilib pishiriladi. Pishgan kolbasa ikkinchi marta 40°S xaroratda 1 sutka davomida dudlanadi. Dudlanib bo‘lgandan keyin 7-12 sutka davomida quritiladi. Qaynatib-dudlangan kolbasalar tarkibida suv miqdori (43% gacha) ko‘proq bo‘ladi, shuning uchun saqlanish muddati ham kamroq bo‘ladi.

Kolbasa maxsulotlarining sifati organoleptik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. Bularga batonlarning holati, tashqi ko‘rinishi, strukturasi, kesilgan joyidagi qiymانing ko‘rinishi, rangi, hid va ta’m ko‘rsatkichlari kiradi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Go‘shtning tarkibi.
2. Molnii so‘yishga tayyorlashning ahamiyati
3. Go‘shtning asosiy sifat ko‘rsatkichlari.
4. Molni so‘ygandan keyingi tadbirlar.
5. Go‘sht oziq-ovqat maxsulotlarining turlari.
6. Go‘shtli yarimmaxsulotlar turlari.
7. Kolbasa maxsulotlari va turlari.
8. Kaynatilgan kolbasalar.
9. Yarim dudlangan kolbasalar.
10. Dudlangan kolbasalar.
11. Xom dudlangan kolbasalar.

8 – MA’RUZA. SUTNI QAYTA ISHLASH VA SUT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI.

Reja: *Sut maxsulotlari ishlab chiqarish korxonalari. Sutga ishlov berish va saqlash. Achitqli sut maxsulotlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Morojenoye turlari va retsepturalari. Morojenoye texnologiyasining prinsipial sxemasi. Sarig‘ yog‘ va pishloq ishlab chiqarish texnologiyalarining asoslari.*

Sut inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat maxsulotidir. Diyetologlar va pediatrlar fikriga qaraganda sut maxsulotlari bolalarning aqliy vajismoniy rivojlanib borishi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega. Ovqatga ishlatiladigan sutning 95 protsentiga yaqinini sigir surʼi tashkil etadi. Sutning foydaliligi uning tarkibida biologik aktiv moddalarning eng foydali nisbatda borligi bilan belgilanadi. Biroq sutning tarkibi o‘zgarib turadi. Bu mol sog‘ligining ahvoliga, zoti va individual xususiyatlari, yoshi, asrash va tashqi muhit sharoitlari, sog‘ish usullariga bog‘liq. Sut tarkibiga kiruvchi asosiy moddalar va ularning o‘rtacha miqdori quyidagicha: umumiy oqsil 3-3,3%; asosiy oqsil (kazein) 2-2,8%; zardob oqsillari miqdori 0,4-0,5%; nooqsil azotli moddalar 0,17-0,38%; lakteza 4,4-5,0%; sutdagagi barcha quruq moddalar miqdori 11,5-13%; moyliligi 3-6% bo‘lishi mumkin.

Sut inson uchun a’lo darajadagi oziq-ovqat maxsuloti bo‘lishi bilan bir qatorda turli mikroorganizmlar, jumladan kasal paydo qiladigan mikroorganizmlarning ko‘payishi uchun ham yaxshi muhit bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham sut olish jarayonida sanitariya va gigiyena qoidalari qat’iy rivoja qilish zarur. Ayrim xollarda fermalarda birlamchi ishlov berilib, pishirib olinadi.

Sut sanoati korxonalari ta’mi buzilgan, achib qolgan, piyoz yoki sarimsoq hidi kelib turgan sutni qabul qilmaydilar. Bunday sut yuqori sifatli maxsulotlarni ishlab chiqarish uchun yaramaydi. Sutga belgilangan xarid narxlari uning sifatiga qarab tabaqalashtirilgan. Shuning uchun ham qishloq xo‘jalik fermer korxonalari sut sifatini yaxshilashdan manfaat-dordir.

Sutni qayta ishlash korxonalari asosiy maxsulotlarining turiga ko‘ra shartli ravishda quyidagilarga bo‘linadi: sutni konsevalab, quritib va ivitib tayyorlanadigan maxsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar; bolalar oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar; sariyog‘ va sir ishlab chiqarish korxonalari; morojniy ishlab chiqarish korxonalari.

Korxonananing turidan qat’iy nazar sutli sisternalar qabul qilinishidan oldin, laboratoriyyada mazasi, rangi, hidi, kislotaliligi, yog‘ va oqsil moddasi kabi asosiy ko‘rsatkichlari hamda bakterialar bilan ifloslanganlik darajasi aniqlanadi. Bunda sutning moyliligi 3,2% dan kam bo‘imasligi va kislotaliligi 20°T (Terner) dan yuqori bo‘imasligi shart. Ana shu ko‘rsatkichlar asosida xulosa qilinib, agar belgilangan GOST talabiga to‘g‘ri kelmasa, sut egasiga qaytariladi. Laboratoriya xodimlari korxonadagi barcha sexlarning ishini va oxirgi maxsulot sifatini nazorat qilib turadi. Ayniqsa uskuna va sut uzatish quvurlarining yuvilish tozaligi qattiq

nazarat qilinadi. Laboratoriyaning maxsus bo‘limida sut kislota bakteriyalarini qo‘sish yo‘li bilan ishlab chiqariladigan maxsulotlar uchun sof kulturalar tanlab olinib, tomizg‘ilar tayyorlanadi. Shuning uchun sutni qayta ishlash korxonalari ishida ishlab chiqarish laboratoriya muhim rol o‘ynaydi.

Kabul qilingan sut mexanik aralashmalardan tozalanib, saqlash yoki keyingi qayta ishlashdan oldin pasterizatsiyalanadi. Termik pasterizatsiyalash uch xil sharoitda amalga oshirilishi mumkin: 1) davomiy pasterizatsiya – 30 minut, $63-65^{\circ}\text{S}$; 2) qisqa muddatli pasterizatsiya – 15 minut, $72-74^{\circ}\text{S}$; 3) momentli pasterizatsiya - $82-85^{\circ}\text{S}$. Undan tashqari elektropasterizatsiya, ultratovush bilan pasterizatsiyalash, ultrabinafsha nur bilan pasteriza-siyalash kabi usullar ham tavsiya qilingan. Pasterizatsiya qilingan sut sterilizatsiya qilingan sut kabi tayyor maxsulot sifatida istemolchiga yetkazilishi mumkin.

Pasterizatsiya qilingan sutni saqlash sharoitlari uni saqlash muddatiga qarab tanlanadi. Sut va sut maxsulotlarini saqlash asosansovutilgan xolda amalga oshiriladi. Sutni sovutish uning sifatiga ta’sir qiluvchi salbiy mikrobiologik jarayonlarni oldini oladi. $4-6^{\circ}\text{S}$ xaroratda sut ikki sutkagacha saqlanishi mumkin. Sovutilgan sut 2-10 ming litrli sovutish tanklarida saqlanadi. Tanklar sovutilgan yoki tuzli suv (rassol) yordamida sovutiladi.

Achitqli sut maxsulotlariga yoki sutni ivitib tayyorlanadigan maxsulotlarga prostokvasha, (qatiq, ryajenka, yogurt va boshqalar) kefir, qimiz, smetana va tvorogni kiritish mumkin. Ularning organizmda xazm bo‘lishi sutga nisbatan ancha oson kechadi. Smetana pishgan sutdan tayyorlanadigan boshqa maxsulotlardan farq qilib, suyuq qaymoqdan tayyorlanadi. Shu sababli tarkibida yog‘ining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Sutni ivitib tayyorlanadigan maxsulotlarning umumiy xususiyati shundaki, ivitish vaqtida bijg‘ish jarayoni borib, sut kislotosi hosil bo‘ladi. Bunday jarayon prostokvas’halar ishlab chiqarishda boradi. Biroq bijg‘ish jarayonida sut kislotosi bilan bir vaqtda etil spirti va karbonat angidrid xosil qilinsa, qimiz yoki kefir kabi maxsulotlar yoki ichimliklar ishlab chiqariladi. Bu ikkala gurux maxsulotlarning hammasi faqat pasteri-zatsiyalangan sutdan tayyorlanadi. Bu maxsulotlarni ishlab chiqarish uchun sutning tabiiy mikroflorasi, maxsus tanlab olingan sut kislota bakteriyalar, tomizg‘i mikroflorasi bilan almashtiriladi. Mana shu mikroorganizmlarning ko‘payib rivojlanishi natijasida kerakli maxsulot xosil bo‘ladi. Demak, xar bir ivitish maxsulotining turi uchun maxsus tomizg‘i qo‘llaniladi. Prostokvashadan farqli kefir tayyorlash uchun talaygina mikroblar simbiozidan iborat kefir zamburug‘idan foydalaniladi. Tomizg‘ilarni tayyorlash uchun toza kulturalarni tanlash va tekshirish bilan maxsus laboratoriyalar shug‘ullanadi. Tomizg‘i sifati va ivitish jarayoni borishi uchun optimal tanlangan muhit va sharoit tayyorganayotgan maxsulotning sifatini belgilaydi.

Prostokvasha tayyorlashning asoslari quyidagicha: Qisqa muddatli usulda pasterizatsiya qilingan sut ivitish uchun $38-42^{\circ}\text{S}$ xaroratgacha sovutiladi. Maxsus mikroorganizmlardan (Str. lactis – sut kislotali steptokokklar) tayyorlangan tomizg‘i sutga asta sekin qo‘silib, sutning o‘zi ko‘pirib ketmaydigan darajada yaxshilab aralashtiriladi. Tomizg‘ining bir tekis tarqalib turishi uchun ivitilayotgan sut doimiy aralashtirib turib turli idishlarga (pachka, stakan, butilka) qadoqlanib idishlar yopiladi. Idishlar termokamerada yuqorida belgilangan aniq xaroratda ushlanadi. Ivitilgan maxsulotning kislotaliligi 75°T , quyuqligi yetarlicha va bir tekis, zardob ajralmagan bo‘lsa, prostokvasha darxol $6-8^{\circ}\text{S}$ xarotgacha sovutiladi. Sovutilganda sut oqsili yana shishib, erkin namlik kamayishi hisobiga prostokvasha zichligi oshadi. Prostokvashani omborda saqlash sharoiti ham $8-10^{\circ}\text{S}$ dan oshmasligi kerak. Shirin yoki aromatizatorli prostokvas’halar tayyorlash uchun shakar va boshqa qo‘sishchalar ivitishdan oldin sutga qo‘siladi. Sutlarning quruq moddalari miqdorini (18-20%) oshirin orqali prostokvashaning ozuqaviy qiymati ko‘tarish usullari mavjud.

Atsidofil ivitilgan sut maxsulotlari ishlab chiqarish uchun maxsus, yosh bola ichagidan ajratilagn tayoqchalaridan (Bact.acidophilum – atsidofil tayoqchalari) foydalaniladi. Bunda pasterizatsiyalangan sut $40-42^{\circ}\text{S}$ xaroratgacha sovutiladi. Tayyor maxsulot kislotaliligi $90-140^{\circ}\text{T}$, sovutish xarorati $3-5^{\circ}\text{S}$. Atsidofil ivitilgan sut maxsulotlari atsidofil sut, atsidofil-drojili sut, atsidofilin, atsidofil pasta ko‘rinishlarida ishlab chiqariladi. Bu maxsulotlar tarkibida turli foydali bakteriyalar ko‘p bo‘lgani uchun, parvez maxsulotlar sifatida dezbakterioz kasalligini davolash uchun keng qo‘llaniladi.

Tvorog pasterizatsiyalangan sutlardan mezofil sut kislota bakteriyalari yordamida ivitib ishlab chiqariladi. Bunda pasterizatsiyalangan sut $30-32^{\circ}\text{S}$ xaroratgacha sovutilib, aralashtirib turgan xolda 5% sut kislota bakteriya-larining tomizg‘isi qo‘siladi. Aralashmaning kislotaliligi $32-35^{\circ}\text{T}$ ga yetganda sutning har tonnasiga 1,254 litr hisobidan 40%-li kalsiy xlorid eritmasi qo‘silib, yaxshilab aralashtiriladi va kislotaliligi $60-70^{\circ}\text{T}$ bo‘lgan zardobda tayyorlangan pepsin tomizg‘isi qo‘siladi. Tvorog cho‘kmasi zich va kislotaliligi $58-60^{\circ}\text{T}$ bo‘lishi kerak. Agar sut yetarli va to‘g‘ri ivitilmasa, zardobi qiyin ajraladigan qattiq, rezinasimon tvorog xosil bo‘ladi. Agar sut oshiqcha ivitilib ketsa, tvorog nordon, surkaluvchan va kam tushadi. Shuning uchun

tomizg'i qo'shilgandan keyin ivitish 4,5-5 soatdan ortiq davom etmasligi kerak. Tayyor tvorogning zardobi silqitilib, so'ogra presslanadi va 8⁰S xaroratgacha sovutiladi. Tvorog 3-4⁰S xaroratda saqlanishi kerak.

Smetana qaymojni maxsus streptokokklar yordamida ivitish usuli bilan olinadigan maxsulot. Smetananing kislotaliligi oliy nav uchun 65-90⁰T, yog'liligi asosan 30% bo'ladi. Buning uchun qaymoqning yog'liligi 31,6% bo'lishi kerak.

Smetana tayyorlash uchun pasterizatsiyalangan qaymoq yozda 18⁰S, qishda 22⁰S xaroratgacha sovutilib, 3-5% tomizg'i qo'shiladi. Xar soatda aralashti-rilib uch soat davomida ivitiladi. Aralashmaning kislotaliligi 65-90⁰T ga yetguncha tinch qoldiriladi. So'ogra ivitilib bo'lingan qaymoq yaxshilab aralashdiriladi va smetana darajasigacha yetiltirish uchun 2-8⁰S xaroratda bir sutkagacha qoldiriladi. Tayyor bo'lgan smetana qadoqlashga beriladi.

Morojenoye (muxqaymoq) sut, shakar, stabilizator, maza va xid beruvchi moddalarning pasterizatsiyalangan va muzlatilgan aralashmasidir. Muzqaymoqlar plombir (2600kkal/kg), qaymoqli (2000kkal/kg), sutli (1350kkal/kg) va mevali (1300kkal/kg) asoslarga bo'linadi. Ularning bir-biridan farqi tarkibidagi moy miqdori bo'lib, plombirda 12-15%, qaymoqlida 8-10%, sutlida 2,8-3,5% mevali muzqaymoqda 0%. Muzqaymoqning nomi uning asosi va qo'shimchasi nomidan kelib chiqadi. Masalan, qaymoqli-shokoladli, sutli-shokoladli, mevali – plombir va hokazo.

Muzqaymoqning asosiy xomashyolari kislotaliligi 22⁰T dan yuqori bo'lmagan tabiiy va yog'sizlantirilgan sut, kislotaliligi 20⁰T dan yuqori bo'lmagan qaymoq, konseravlangan sutlar va sari yog'. Mevali muzqaymoqlar uchun esa meva va meva sharbatlari, siroplar va mevalar esensiyalari. Yordamchi qo'shimcha moddalar qandlarga, ta'm beruvchilarga, xid beruvchilarga va stabilizatorlarga bo'linadi. Kandlar (shakar, asal, patoka, glyukoza) muzqaymoqga nafaqat shirin maza beradi, balki uning mayin strukturasini xosil qilib, muzlash temperaturasini pasaytiradi. Muzqaymoq stabi-lizatorlari sifatida gidrofil va yuqori bo'kib-shishish xususiyatli, muzqaymoq strukturasini yaxshilash hisobiga muz kristallari o'lchamlarini maydalashdirish xususiyatiga ega bo'lgan jelatin, agar, kraxmal, natriy kazeinat, natriy alginat va tuxum kabi moddalar qo'shiladi.

Muzqaymoq ishlab chiqarishning asosiy jarayonlari quyidagilar: xomashyo va qo'shimcha moddalarni tayyorlash hamda aralashma xosil qilish, aralashmani pasperizatsiyalash, gomogenizatsiyalash, sovutish va yetiltirish, muzlatish (frizerlash), muzqaymojni chiniqtirish. Xomashyolardan retseptura asosida tayyorlangan muzqaymoq aralashmasi 68-70⁰S xaroratda 30 minut pasteri-zatsiyalananadi. Pasterizatsiyalangan aralashma issiq xolda filtrlanib, 100-150 atm. bosim bilan gomogenizatsiyalananadi. Bunda aralashma qovushqoqligi 5-15 martagacha ortib, uning ko'piruvchanlik xususiyati kuchayadi. Gomogeniza-siyalangan muzqaymoq asosi 2-4⁰S xaroratgacha sovutilib, shu xaroratda 4 soatgacha saqlanib, yetiltiriladi. Bunda stabilizatorlar namlikni yutib, muzqaymoq asosi yumshoq gel ko'rinishiga keladi. Muzqaymoq ishlab chiqarishdagi asosiy jarayon bu muzlatish yoki frezirlashdir. Bunda muzlatish va intensiv aralashdirish jarayonida muzqaymoq massasiga havo kiritilib, ko'pirtirish sodir qilinadi. Frizerlash jarayonida qancha ko'p suv muzlatilsa, muzqaymojni chiniqtirish uchun shuncha kam vaqt sarflanadi va muzqaymoq sifati yaxshi bo'ladi. Sotuvga chiqarilishidan oldin muzqaymoq imkongi boricha past (-15-25⁰S) xaroratda saqlanishi uning sifatini yana ham oshiradi.

Sariyog' yoki sut yog'i bu yuqori kalloriyali (7800kal/kg), oson xazm bo'luvchi ozuqa maxsulotidir. Uning tarkibida 52% dan 92% gacha sut yog'i, 1% dan 35% gacha suv va 1% dan 13% gacha yog' bo'lmagan moddalar (laktoza, oqsillar va hokazo) va vitaminlar bo'ladi. Biroq sariyog'lar mazasi, hidi tarkibi va boshqa tovar ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farq qilishi mumkin. Bu farqni ularni ishlab chiqarish xomashyolari, usullari va qo'shilgan ta'm va hid beruvchi aromatizatorlari keltirib chiqaradi. Turli sariyog'larni asosiy uch guruxga bo'lish mumkin:

1. Sutning qaymog'idan tayyorlangan sariyog'lar (slivochnoye)
2. Zardob qaymog'idan tayorlangan sariyog'lar.
3. Eritilgan yoki mexanik qayta ishlangan yog'lar.

An'anaviy usulda sut qaymog'idan sariyog' ishlab chiqarish quyidagicha amalga oshiriladi: sутдан separatsiyalananib qaymog'i ajratiladi, qaymoq pasterizatsiyalananadi va sovutilib, tindiriladi. Tayyor tindirilgan kaymoqdan urilib (quvulanib) yog' ajratiladi. Ajratilgan sariyog' suv bilan yuviladi va ayrim turlariga tuz qo'shiladi. Kaymog'i olingan yog'sizlantirilgan sut va sariyog' ajratib olingandan keyingi qoldiq chiqitlarni qayta ishlatish uchun berilari. Tayyor sariyog' karton yashiklarga joylanib, sovutish xonalarida saqlanadi.

Sariyog' tayyorlash uchun ishlatiladigan sutga nisbatan, umumiy talab-lardan tashqari, uning tarkibidagi yog'iga ma'lum talablar mavjud. Sutning moyliligi yuqori bo'lishi bilan bir vaqtida moy

zarrachalari o'lchami qancha katta bo'lsa, qaymoqdan quvalanib sariyog' tushishi osonlashadi va uning chiqishi ko'p bo'ladi.

Pishloq (sir) oqsil, yog', kalsiy, fosfatlar va vitaminlarga boy ozuqa maxsulotidir. U juda to'q tutadi va oson xazm bo'ladi.

Ishlab chiqariladigan pishloqning sifati buning uchun foydalani-ladigan sutning xususiyatlariga juda bog'liq. Sutning moyliligi va oqsili (kazein) pishloqning miqdorini belgilasa, ularning nisbati pishloqning yog'lilagini belgilaydi. Sut tarkibidagi turli tuzlar oqsil strukturasini ma'lum holatda bo'lishini ta'minlaydi. Sut tarkibidagi turli mikroorganizmlar sutni chiritish jarayoniga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun pishloq ishlab chiqarishda uning sifatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarning eng asosiysi sutning sifati hisoblanadi.

Pishloq ishlab chiqarishda sutning maxsus fermentlar ta'sirida ivib-chirib tushish, laxta hosil qilish qobiliyati juda muhimdir. Tayyorlangan sut bijg'itish natijasida gaz hosil qilishi mumkin bo'lgan bakteriyalardan tozalash maqsadida 72°S xaroratda qisqa muddatli pasterizatsiyalanadi. Juda sekin ivib-chirib bo'sh laxta hosil qiladigan sutlar ham, juda tez ivib-chirib zich laxta hosil qiladigan sutlar ham to'g'ri kelmaydi. Sutlar mana shu hususiyatlari bo'yicha 3 guruhga bo'linadi: 1-guruh sutlari 15minut ichida chirib tushadi; 2-guruh sutlari 16-40minut davomida; 3-guruh sutlari 40 minut va undan keyin ham chirib tushmaydi. Pishloq ishlab chiqarish uchun 2-guruh sutlari juda yaxshi hisoblanadi. Undan tashqari yangi sog'ilgan sut pishloq tayyorlash uchun yaramaydi. Sutni $12-13^{\circ}\text{S}$ xaroratgacha sovutib, 10-12soat ushlansa uning kilotaliligi $20-22^{\circ}\text{T}$ yetadi. Shunday sutni yangi sut bilan aralashtirib, pishloqning turiga ko'ra kerakli kislotalilikdagi sut tayyorlanadi.

Pishloq tayyorlashda ishlatiladigan maxsus fermentlar tarkibida sut kislota streptokokklari bo'lganligi uchun, sutni ivitib laxta tushirishning optimal temperaturasi $30-35^{\circ}\text{S}$ hisoblanadi. Sutga ferment solingandan so'ng ivish va cho'kma tushish davrida sut massasi tinch holatda turishi shart. Chunki kazeinlarning bir-biri bilan birlashishidan hosil bo'lgan laxta yaxlit cho'kma bo'lishi kerak. Shundagina pishloqning ham sifati, ham guli talab darajasida bo'ladi.

CHO'kmaga tushgan laxtadan zardobni ajratish darajasi ham ishlab chiqarilayotgan pishloqning turidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Zardobni ajralish tezligi laxtaning moyliligiga teskari va tarkibidagi kalsiyning miqdoriga to'g'ri proporsional. Zardobi ajratilgan laxta massasi joylashgan vannada vertikal va gorizontal pichoqlar bilan, pishloqning turiga ko'ra, 0,5mm dan 20mm gacha o'lchamlarda cho'kma kirqiladi va bir oz ilitib, aralashtirib turib quritiladi. Pishloq massasining yetarli quritilganligi va pishloq mag'izlarining yetilganligi organoleptik va ushlab ko'rib aniqlanadi. U yetarli meyorda pishiq va yopishqoq bo'lsa qoliplashga va so'ngra presslashga beriladi. Qoliplashda pishloq tarkibidagi zardob kamaytirilib, pishloq massasi zichlashgan monolit holiga keltiriladi. Zardobi kamroq pishloqlar qattiqroq presslansa, aks xolda sekirnoq presslanishi kerak. Presslangan pishloq 22-24% li tuzli suvga solib qo'yish yoki quruq tuzni ishqalash yo'li bilan tuzlanadi. Ko'p marta ishlatilgan suvning kislotaliligi ortib borganligi uchun uni mel yoki oxak bilan neytrallab turiladi. Tuzlangan pishloq oxirgi bosqichda yetiltirish jarayoniga podvallarga qo'yiladi. Bunda xarorat $10-12^{\circ}\text{S}$ va havo namligi 88-95% bo'lishi kerak. Pishloq turiga ko'ra uni yetiltirish muddati bir necha kundan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Tayyor pishloq sovutkichda saqlanadi.

Takrorlash uchun savollar.

- 1.Sutning tarkibi va sifatiga ta'sir qiluvchi omillar.
- 2.Sutni qayta ishlash korxonalarining turlari.
- 3.Sut sifatiga qo'yiladigan talablar va pasterizatsiyalash usullari.
- 4.Achitqili sut maxsulotlari va ularning bir-biridan farqi.
- 5.Prostokvasha tayyorlash asoslari.
- 6.Atsidofil sut maxsuloti.
- 7.Muzqaymoqlar turlari va ishlab chiqarish asoslari.
- 8.Tvorog ishlab chiqarish asosiy shart sharoitlari.
- 9.Smetana ishlab chiqarish asoslari.
- 10.Sariyog' turlari, tarkibi va ishlab chiqarish asoslari.
- 11.Pishloq ishlab chiqarish texnologiyasining asoslari.

Tayanch» so'z va iboralar.

Sut, pasterizatsiya, mikroflora, tomizg‘i, kefir, prostokvasha, atsidofil sut, muzqaymoq, smetana, tvorog, sariyog‘, pishloq.

9-MA’RUZA. KONSERVALASH USULLARI ASOSLARI VA KONSERVALASH MAHSULOTLARI

Reja: *Konservalashning biologik asoslari. Meva va sabzavot konservalarining turlari. Tabiiy sabzavot konservalari. Sabzavot gazak konsevalari. Tomat yarim tayyor maxsulotlar haqida. Go’shtli konservalar. Baliq konservalari. Sut konservalari.*

Ozuqa maxsulotlaridan mava va sabzavotlarning buzilishi asosan mikroorganizmlar tasiri tufayli bo‘ladi. Chunki mikroorganizmlar meva va sabzavotlarda tez ko‘payib, ular tarkibidagi ozuqaviy moddalarini istemol qiladilar. Ayrim hollarda meva, sabzavot va ulardan tayyorlangan maxsulotlar ularning o‘zlariga xos biokimiyoviy jarayonlar tufayli ham buzilishi mumkin. Bu buzilishlar texnologik qayta ishslash jarayonida zararlanmay qolgan fermentlar ta’sirida bo‘ladi. Shuning uchun meva va sabzavotlarni buzilishdan to‘liq saqlab qolish maqsadida mikroorganizmlar yo‘qotlishi va fermentlar inaktivatsiyalanishi kerak.

Konservalashning biologik asoslari ko‘ra konservalash usullarini asosiy uch guruhga bo‘lish mumkin:

1.Xom ashyning hayotiy jarayonlarini saqlab, uning tabiiy immuni-tetidan foydalanish usuli. Bunda, maxsus konservalash usullari qo‘llanilmay meva va sabsavotlarni tabiiy sifatini saqlab qolish chora tadbirlari amalga oshirish orqali, qisqa muddati saqlash nazarda tutiladi.

2.Mikroorganizmlar va xomashyoning xayot faoliyatini fizik, kimyoviy va biologik ta’sirlar ko‘rsatish yo‘li bilan sekinlatish va daf etishga asoslangan usul. Bu usulni amalga oshirishning quyidagi bir necha xil yo‘llari mavjud:

-sovutish orqali oziq-ovqat maxsulotlari 0°S xaroratgacha sovutilib, muzlatilmay tabiiy sifati minimal holatda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan sharoitda saqlanadi. Maqsulot bir necha xaftagacha saqlanishi mumkin.

-muzlatish - 18°S xaroratgacha tez sovutilib, xomashyo yoki maxsulot tarkibidagi 90% gacha namligining muzlashiga erishiladi. Tez muzlatilganda suv molekulalari mayda kristall struktura hosil qilib, xujayra strukturasini buzmaydi va muzdan tushirilgandan so‘ng yumshab ketmaydi. Muzlatilgan maxsulot xuddi shu sharoitda saqlanishi kerak. Shundagina saqlanish muddati bir necha oygacha boradi.

-tuzlash yoki shakarlash yo‘li bilan maxsulot va mikroorganizmlar xujayralari plazmalariga osmatik bosim tasiri hosil qilinib, ularning faoliyati susaytiriladi. Bu yo‘l bilan maxsulotlarning uzoq saqlanishi kafolatlanmaydi.

-quritish yo‘li bilan bakteriyalar uchun 25-30% dan oshiq, mog‘or zamburug‘lari uchun 10-15% dan oshiq, ozuqlanishi uchun zarur bo‘lgan, erkin namlik yo‘qotiladi. Bunda xujayra xayot faoliyati to‘liq to‘xtaydi. Maxsulot namlangandagina mikroorganizmlar faoliyati tiklanib, u buzilishi mumkin.

-bijg‘itish va marinatsiyalash yo‘li bilan maxsulotning saqlanish muddatini uzaytirish, sut kislotali yoki spirtli bijg‘ish jarayonlarini amalga oshirish yoki tashqaridan qo‘sish bilan uning tarkibida kislota yoki spirt muhitini kuchaytirib, mikroorganizmlar faoliyatini susaytirishga asoslangan.

3.Xom ashyo va mikroorganizmlar hayot faoliyatini to‘liq to‘xtatishga asoslangan usul. Bu usulni amalga oshirishning quyida keltirilgan yo‘llari mavjud:

-termosterilatsiya yo‘li an‘anaviy ravishda germetik idishga yopish va qaynatish yoki 120°S xaroratgacha qizdirish orqali amalga oshiriladi. Bunday maxsulotlar asl konservalar bo‘lib, yillab saqlanishi mumkin. Pasterizatsiyalangan maxsulotlarda esa mikroorganizmlar xujayralari o‘ldirilsa ham, ularning sporalari saqlanib qoladi. Shuning uchun ayrim hollarda pasterizatsiyalangan maxsulotlarning saqlanish muddati juda qisqa bo‘ladi.

-antiseptik moddalar qo‘llash ularning mikroorganizmlar xujayralariga kirib, nobud qilish xususiyatlariiga asoslangan sterilizatsiyadir. Bu moddalarning kam miqdori mikroblarga ta’sir qilishi, odam organizmiga ta’sir qilmasligi, maxsulot va u solingen idish bilan kimyoviy reaksiyaga kirishmasligi kabi shartlarga javob bergan antiseptiklarga sifatlari hisoblanadi.

-yuqori chastotali toklar (SVCH) bilan ishlov berish ham termoste-rilizatsiyaning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bunda yuqori chastotali (2400 MGs) o‘zgaruvchan elektr maydonining tebranish energiyasini maxsulot struktura elementlari yutib, tebranma xarakati tufayli ichki ishqalanish vujudga keladi va shu ishqalanish natijasida issiqlik ajralib chiqadi. SVCH ning qo‘llanishi uskunaning murakkabligi va xaroratni nazorat qilishning mushkulligi tufayli keng tarqalmagan.

-ultra binafsha nurlar (260 nm) bilan ishlov berish imkoniyati chegaralangan bo‘lib, ultra binafsha nurlar maxsulotning faqat yuzasidagi mikroorganizmlarni zararsizlantiradi. Bu usul 3-5⁰S xaroratda saqlanayotgan go‘shtning sifatini yana ham yaxshi saqlab qolish imkonini bermoqda.

Meva konservalari quyidagi turlarga bo‘linadi: kompotlar, meva sharbatlari va murabbolar.

Kompotlar butun yoki to‘g‘ralgan mevalardan shakar sharbati quyib tayyorlanadi. Shakar sharbatining konsentratsiyasi 30-60% li bo‘lishi mumkin. Kompot tayyorlash uchun ayrim mevalarga (olcha, gilos, o‘rik) birlamchi ishlov berilmasa, olxo‘ri olma, nok blanshirovka (5-10minut 80-90⁰S xaroratli issiq suvda yoki 0,1% li limon kislotasi eritmasida) qilinadi. Bu mevalarning qorayishi va kompotning xiralashishini oldini oladi.

Meva sharbatlari (soklar) tabiiy siqib olingan yoki maydalangan meva etiga shakar sharbati qo‘shib tayyorlanadi. Tabiiy sharbatlar faqat filtrlanadi, 80-85⁰S xaroratda pasterizatsiyalanadi va germetik idishga qadoqlanadi. Tabiiy sharbatlardan filtrlangan, tiniq uzum sharbatini ishlab chiqarish ancha murakkab. Chunki uning tarkibida vinokislotsasining nordon kaliyli tuzi bor. Shuning uchun filtrlangan sharbatda ma’lum vaqt dan so‘ng yana quyqa yoki cho‘kma xosil bo‘ladi. Bu cho‘kmadan qutilish uchun sharbat ikki oy -2⁰S xaroratda ushlanib, so‘ngra yana filtrlanishi kerak.

Murabbolar mevalarga shakar qo‘shib, qaynatib tayyorlanadi. Jem va povidlolar mevalarning to‘g‘ralish yoki maydalanish kattaligi bilan murabbolardan farq qiladi.

Sabzavot konservalari quyidagi turlarga bo‘linadi:

-tabiiy sabzavot konservalari xomashyolarining tabiiy xususiyatlari deyarli o‘zgartirilmagan holda saqlanib, taomlar tayyorlashda va garnir sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan konservalardir. Bularga keng tarqalgan «yashil no‘xot», makkajo‘xori, loviya va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu konservalarni tayyorlashda avval blanshirovkalab, (2-5minut 90⁰S suvda ushlab turish) so‘ngra rassol (2% tuzli, 2-3%shakarli eritma) quyib, 45 minut bug‘ xammomida bosim ostida sterilizatsiya qilinadi.

-sabzavot gazak konservalari yog‘da qovurilgan yoki boshqa turdag‘i ishlov berilgan va faqat tayyor ozuqa sifatida iste’mol qilinadigan konserva-lardir. Bu konservalar uch xil ko‘rinishda bo‘ladi: farshirovka qilingan tomat sousi bilan quyilgan; to‘g‘ralgan tomat sousi bilan quyilgan va sabzavot ikrалari konservalardir. Bularga keng tarqalgan baqlajon va boshqa sabzavot ikrалari va lecho‘lar misol bo‘ladi. Bu konservalarni tayyorlashda ko‘l kuchi ancha ko‘p ishlatiladi. Bolgar qalampiri farshirovka qalishdan oldin tozalanib, blanshirovka qilinadi va pishib ketmasligi uchun tezda sovutiladi. Farshirovka uchun sabzavotlardan tayyorlangan qovurilgan massaning moyliligi va ta’mini keltirish eng murakkab jarayonlardan biridir.

-konsentrlangan yarimmaxsulotlar taom tayyorlashda ishlatiladigan tomat pastalari va pyurelari bo‘lib, ulardan sharbat, ketchup va boshqa tomatli maxsulotlar tayyorlanadi. Tomat pastalari pomidorlardan yuvib, tozalanib, to‘g‘ralib, issitilib, po‘sti va urug‘idan ajratilib, namligi pishirish yo‘li bilan yo‘qotib, quruq moddalar miqdori 30% ga yetguncha quyultirilib tayyorlanadi.

Bu guruxlardan tashqari sabzavot sharbatlari, marinadlangan va tuzlangan sabzavot konservalari tayyorlanadi.

Go‘shtli konservalar. Barra go‘shtlar juda tez buziladigan xom ashyo hisoblanadi. Ularni konservalash mikroorganizmlar ta’sirini susaytirishdir.

Go‘shtli konservalari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- aynan go‘shtdan tayyorlangan konservalar tabiiy (tushenkalar), blanshi-rovkalangan, qovurilgan va tuzlangan turlari ishlab chiqariladi;

- submaxsulotlardan tayyorlangan konservalar (til, jigar, buyrak va ho-kazo) pashtetlar, qovurilgan, tomat sousida va jeledagi turlari;

- go‘shtli maxsulotlar konservalangan sosiskalar, kolbasalar, vetchi-nalar, farshlar ko‘rinishidagi turlari;

- parranda konservalari tabiiy, turli souslarda va jelelardagi turlari;

- go‘shtli-o‘simlik no‘xotli, loviyali, sabzavotli va boshqa konservalar turlari;

- quyuq ovqatlar ko‘rinishidagi konservalar;

- bolalar ozuqasi konservalari

Kuyida ayrim, keng tarqalgan konservalar tayyorlash texnologiyasi asoslari bilan tanishib chiqamiz.

Tushenka ishlab chiqarish uchun temir bankaga piyoz, murich, lavr yaprog‘i, tuz, hayvon yog‘i tozalangan go‘sht solinadi. Qadoqlangan banka havosiz-lantirilib yopiladi va 115-120⁰S xaroratda sterilizatsiyalanadi.

Blanshirovkalangan go‘shtli konserva ishlab chiqarish uchun go‘sht avval

30-40 minut davomida tuz va murich qo'shib qaynatiladi. Bunda go'sht massasi 40% gacha kamayadi. Tayyorlangan go'sht temir bankalarga qadoqlanib, yog', qaynoq bulyon va ziravorlar qo'shib yopiladi va sterilizatsiyalanadi. Blanshirovkalangan konservalar bankalariga go'sht ko'proq joylanadi.

Tuzlangan go'shtdan konservalar tayyorlash uchun go'sht bo'laklariga tuz, qora va qizil murich, shakar va nitrit natriy qo'shib, to'rt sutka $3\text{-}6^0\text{S}$ xaroratda saqlanadi. Jele xosil qiladigan paylar yaxshilab maydalanib go'shtga aralashtiriladi va bankalarga qadoqlanadi. Bankalar yopilib $115\text{-}120^0\text{S}$ xaroratda sterilizatsiyalanadi. Tuzlangan go'shtga nitrit natriy qo'shishdan maqsad go'shtga chiroyl qizil rangni qaytarishdir.

Submaxsulotlardan keng tarqalgan pashtetlar tayyorlash uchun tozalangan jigar va miya 10-20 minut qaynatiladi. Kaynatilgan sub maxsulotlar maydalanadi va qovurilgan piyoz, tuz, murich, ziravorlar va bulyon qo'shilib, bir necha bor umumiy davomiyligi 30 minut kuterlanadi. Tobiga yetgan pashtet massasi qadoqlanadi va sterilizatsiyalanadi.

Baliq konservalari. Baliq juda qimmatli ozuqa xom ashyosi hisoblanadi. Uning go'shtida qimmatli oqsil, tez xazm bo'ladigan yog' va yod, fosfor, temir, marganets kabi inson uchun zarur bo'lgan mikroelementlar bor.

Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan baliqlar suyakli, tog'ay-suyakli va tog'ayli turlarga bo'linadi. Yashash joyiga ko'ra dengiz, dengiz-daryo va daryo baliqlari bo'ladi. Undan tashqari baliqlar yog'liligi bo'yicha yog'siz (4% gacha), o'rtacha semiz (4-8% gacha) va semiz (8% dan ortiq) baliqlarga bo'linadi. Turli baliqlar go'shti o'rtacha 13-20% oqsil, 0,2-30% yog', 1-2% mineral moddalar va 48-85% suvdan tashkil topgan.

Baliqni saqlash ikki xil sharoitda - 0^0S gachasovutib (15 kungacha) va muzlatib (bir necha oygacha) amalga oshiriladi. Tabiiy baliq konservalaridan tashqari boshqa konservalar uchun muzlatilgan baliq ishlash mumkin. Baliqni muzdan tushirish qancha tez amalga oshirilsa uning sifati ancha saqlanib qoladi. Buning uchun muzlatilgan baliqlar $10\text{-}14^0\text{S}$ xaroratlari oqib turgan suvda muzdan tushiriladi. Katta baliqlarning tez muzdan tushishini ta'minlash uchun $36\text{-}38^0\text{S}$ xaroratlari 4-5% li tuzli suv sirkulyatsiyalanadi.

Baliq konservalari tabiiy, blanshirovkalangan, panirovkalab qovurilgan va dudlangan baliqlardan tayyorlanadi. Ularning go'sht konservalariga o'xhash tabiiy, tomat sousidagi, moydag'i, sabzavotli, kotlet yoki pashtet ko'rinishidagi va boshqa turlari ishlab chiqariladi.

Baliq konservalarining saqlanish muddati ularning turiga va saqlanish sharoitiga bog'liq. Chunki konservalangan baliqning yetilish davri bo'lib, tabiiy konservalar 1-2 oyda, qovurilgan tomat sousidagi konservalar 2-3 oyda, dudlangan yog'ladi konservalar 3-4 oyda, blanshirovkalangan moydag'i konservalar esa 5-6 oyda yetiladi. Bu davrda tuz, yog' va ziravorlarning to'liq singishi amalga oshib, konserva sifati yaxshilanib boradi. Konservalarning undan keyingi davrda saqlanishi, saqlash xarorati 20^0S bo'lsa ham, sifatning asta sekin pasayib borishiga olib keladi.

Takrorlash uchun savollar.

- 1.Biologik asoslariga ko'ra konservalash usullari.
- 2.Mikroorganizmlar va xomashyoning xayot faoliyatini sekinlatishga asoslangan konservalash usullari.
- 3.Xom ashyo va mikroorganizmlar hayot faoliyatini to'liq to'xtatishga asoslangan konservalash usullari.
4. Meva konservalari turlari.
- 5.Sabzavot konservalari turlari.
- 6.Go'shtli konservalar guruhlari.
- 7.Baliqlarning va baliq konservalarining turlari.

«Tayanch» so'z va iboralar

Sovutish, muzlatish, tuzlash va shakarlash, quritish, bijg'itish, termosterilizatsiya, antiseprik, yuqori chastotali nurlar, meva konservalari, sabzavot konservalari, go'shtli konservalar, baliq konservalari.

10-MA'RUZA. DON MAHSULOTLARI UMUMIY TEKNOLOGIYASI. UN ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI

Reja: Donning tuzilishi va hossalari. Donni un tortishga tayyorlashdagi asosiy jarayonlar Un tortishdagi asosiy jarayonlar Un tortishning prinsipial sxemalari, unning assortimenti va sifat ko'rsatgichlari.

Un ishlab chiqarish eng qadimgi soha hisoblanadi. Dastavval ajdodlarimiz oddiy toshlar orasida donlarni maydalashgan, so'ng toshdan yasalgan ugir va xavonchada maydalashni o'rganishgan. Keyinchalik xayvon, shamol yoki suv kuchidan foydalanib, maxsus tayyorlangan ikkita yassi tosh yordamida donni maydalab (tegirmon) un hosil qilishgan. Fan va texnikaning rivojlanishi natijasida yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan maydalovchi mashinalar (aylanuvchi silindrli stanoklar), navlarga ajratuvchi va elaklovchi mashinalar (rassevlar), mexanik va pnevmatik harakatlanuvchi transport moslamalaridan foydalanishga erishilmoqda.


Hozirgi vaqtida O'zbekistonda un zavodlari yoki kombinatlari davlat tegirmonlari bo'lib, ularning har biri kecha-kunduzda 250-500 tonna un chiqarish quvvatiga egadir.

Donni qayta ishslash un ishlab chiqarish jarayoni quyidagi omillarga bog'lik; qayta ishlanayotgan donning sifatiga; texnologik jarayoning mukamallik darajasiga; korxona texnologik uskunalarining texnik holatiga; mutaxassislarining malakasiga.


Mamlakatimizda non maxsulotlariga bo'lgan extiyoj qo'yidagicha: o'rtacha xisobida xar bir odam 1 yilda 50 kg atrofida non, un maxsulotlaridan esa 165-170kg iste'mol qilinadi. Bu esa boshqa mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan ancha yuqoridir. Oziq-ovqat sanoatidagi eng muxim soxa esa un ishlab chiqarish soxasidir.

Don qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning muxim maxsuloti, inson ozuqasining asosi, maxsuldar chorvachilikni rivojlantirish uchun esa yem xashak bazasi xisoblanadi. Don ekinlarining o'zi xos tomoni - inson organizmi uchun o'ta qimmatli bo'lgan organik moddalarni sintezlash qobiliyati xisoblanadi. Donda boshqa dexqonchilik maxsulotlariga qaraganda ko'p miqdorda quruq moddalar mavjud bo'lib, yetilgan don massasining 85% ni tashkil qiladi. Bular asosan yuqori qiymatga ega bo'lgan oqsil moddalar, xazm bo'ladigan uglevodlardir. Boshqoli ekinlar don tarkibida 10...15 %, dukkanli ekinlar donlari tarkibida 28...30 % yuqori sifatli oqsillar mavjud.

Inson kunlik ovqatida donni qayta ishlan maxsulotlarining (un, yorma, non, makaron maxsulotlari va boshqalar) ulushi turli mamlakatlarda 20 dan 80 % gacha tebranib turib, o'rtacha 30...33 % ni tashkil qiladi.



**Rasm 1.Don va don mahsulotlaridan foydalanishning umumiyl chizmasi.
Bug'doy donining tuzilishi va kimyoviy tarkibi.**



Rasm 2. Bug'doy doni tuzilishi

- 1-doni meva va urug' qobiqlari
- 2-aleyron qatlam
- 3 -endosperm
- 4-murtak

Bug'doy - eng muxim oziq-ovqat ekini xisoblanadi. U dunyo bo'yicha un ishlab chiqarishda birinchi o'rinni egallaydi. Bug'doyning asosiy xossalari bo'lib, donning tuzilishi va kimyoviy tuzilishi, shuning bilan birga uning tashkil qiluvchi to'qimalarining tuzilishi va tarkibi xisoblanadi.

Donlapning fizik-kimyoviy xycyciyatlapi bip qancha ko'pcatkichlap bilan baholanadi:

a) donning geometrik tavcifi;b) don maccacining yipikligi va bapobapligi;v) natypa og'ipligi;g) zichligi va calmoq hajmi;d) 1000 dona donning og'ipligi;ye) donnning oqsil moddasidan hosil bo'lgan kleykovina; j) donning makro- va mikroelementlari va boshqa moddalardan hosil bo'lgan kul modda.Donning yctki qatlami namni toptib olish, to'kilyvchanlik, gymbaz tashkil qilish kabi xususiyatlarga ega. Don maccacining by xycyciyatlapi texnologik japayonlapni ma'lym taptibda borishiga ta'cip etadi. Bundan tashqari, shu xususiyatlar valli ctanok yopdamida maydalash, cepapatsiyalash, yopmalapni capalash va omixta emlapni ppecclash japayonlapida e'tibopga olinadi.

1 - jadval

Don qismlarining tarkibiy miqdori, %

Don qismlari	don	
	Bug'doy	javdar
Endosperm	74,0.....85,0	75,0.....79,0
Meva kobig'i	4,2.....6,3	4,8.....5,5
Urug' qobig'i	3,1.....4,8	1,9.....2,8
Aleyron qatlam	6,0.....10,5	10,0.....13,0
Murtak	1,4.....3,1	3,4.....4,0

Jadvaldan ko'rindaniki donning eng qimmatbaho qismi – endospermsidir, donda endosperm qismi qancha ko'p bo'lsa, undan shuncha ko'p un olinadi.

Un mahcylotlapini ishlab chiqapish mypakkab texnologik chizmalap va bip qancha ixticoclashgan japayonlap asosida amalga oshipladi. Bapcha japayonlap komplekci (yig'indici) ikki gypyhga bo'linadi:

- donlapni toptishga tayyoplash;
- un-yorma canoatida eca xom ashyo va tayyop mahcylot ishlab chiqapish.

Un ishlab chiqarish korxonalarining don tozalash va tortishga tayyorlash bo'limida quyidagi texnologik jarayonlar olib boriladi:

1.Don massasidan aralashmalarini ajratish.

Tayyoplov bo'limlarining accociy vazifaci kopxonaga keltirilgan donlapni chiqindilapdan tozalashdip. By japayonni separator yckynaci bajaradi. Don massasini aralashmalardan samarali tozalash uchun quyidagi separatsiyalash usullari qo'llaniladi:

2 – jadval

Separatsiyalash usullari qo'llaniladi

Aralashmalar	Ajratish usullari
Yirik va mayda (eni na qalinligi bo'yicha)	Elakli separatsiyalash
Yengil	Aerodinamik ta'sir etish
Kalta va uzun	Uyachali separatsiyalash
Qiyin ajraluvchan	Frakchiyali separatsiyalash
Metallomagnit	Magnitli separatsiyalash

2.Don ustki qismiga “quruq” va “ho‘l”usul bilan ishlov berish.

3.Donga gidrotermik ishlov berish.

4.Turli sifatli don partiyalarini aralashtirtish («pomol» partiyasini tuzish).

5. don aralashmasini iflos aralashmalardan yakuniy tozalash.

Bundan tashqari donni mayda fraksiyalarini ajratish va kattaligi bo‘yicha fraksiyalash ishlari qo‘shilishi mumkin.

Texnologik jarayonni yuqori samarali olib borish uchun ana shu xom ashyni optimal xususiyatlari uzoq vaqt davomida (dekada, oy) o‘zgarmas bo‘lishi shart.Bu xolda texnologik jixozlarni qayta ta’mirlash (qayta jixozlash) ishlari talab etilmaydi, ishning muvaffaqiyati texnologik sistemalarga berilgan optimal darajadagi rejimlarni bir xilda ushlab turishga bog‘liq bo‘ladi.Tayyorlangan, optimal konditsiyalarga yetiltirilgan xom ashyo, qayta ishlashga yuboriladi.Un ishlab chiqarish korxonalarining don tozalash bo‘limida bo‘lib o‘tadigan texnologik jarayonlarni operatsiyalari va ularni ketma-ketligi. Don tozalash bo‘limiga kelib tushayotgan donning sifat ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘lsa: namligi 12,5-13,5%; iflos aralashmalar 2,0% (ko‘p emas), shu jumladan zararli aralashmalar 0,2% gacha; donli aralashmalar 5% dan ko‘p emas, shu jumladan ungan donlar 3% gacha yo‘l qo‘yiladi.

bosqichlar	mashina va uskunalar	
	navli bug‘doy uni	navli javdar uni
Donni elevatordan qabul qilish	tozalanmagan donlar uchun bunkerlar	tozalanmagan donlar uchun bunkerlar
metallomagnit aralashmalardan tozalash	magnit separator	magnit separator
1-chi separatsiyalash mineral aralashmalardan tozalash	havo-elakli separator toshajratgich(vibropnevmatik)	havo-elakli separator toshajratgich
dondan kalta bo‘lgan aralashmalarni tozalash	kukol-ajratgich	kukol-ajratgich
dondan uzun bo‘lgan aralashmalarni tozalash	ovsyug-ajratgich	ovsyug-ajratgich
metallomagnit aralashmalardan tozalash	magnit separator	magnit separator
donni ustiga 1-chi ishlov berish	oboyka uskunasi	oboyka uskunasi,oqlash uskunasi
Yengil aralashmalardan tozalash	havoli separator, aspirator	havoli separator, aspirator
gidrotermik ishlov berish:		
Namlash va dimlashni 1-chi bosqichi	donni yuvuvchi mashina+namlovchi apparati,ho‘l oqlash mashinasi+dimlash bunkerlari	donni yuvuvchi mashina+namlovchi apparati,ho‘l oqlash mashinasi+
Pomol partiyasini tuzish	dozatorlar, aralashtirigich shneklar	dozatorlar, aralashtirigich shneklar
Namlash va dimlashni 2-chi bosqichi	donni yuvuvchi mashina+namlovchi apparati,ho‘l oqlash mashinasi+namlovchi apparat	
metallomagnit aralashmalardan tozalash	magnit separator	magnit separator
donni ustiga 2-chi ishlov berish	oboyka uskunasi	oboyka uskunasi,oqlash uskunasi

donni yopiq turdag zararkunandalardan zararsizlantirish	Entoleytor	entoleytor
yengil aralashmalardan tozalash	havoli separator, aspirator	havoli separator, aspirator
2-chi separatsiyalash	havo-elakli separator	havo-elakli separator
un tortishdan oldin qo'shimcha namlash va qisqa muddatda dimlash	namlovchi apparat, aralashfirigich shneklar, dimlash bunkerlari	-
donni un tortishdan oldin tarozida tortish va meyorlash	avtomatik tarozi, dozatorlar	avtomatik tarozi, dozatorlar

Donning sifatini baholashda uning texnologik hususiyati muhim ahamiyatga ega. Texnologik hususiyat donning unvoylik va nonvoylik hususiyatlarini jamlaydi. Donning texnologik hususiyati deganda uning fizik hususiyatlarining birligi tushiniladi.

Donning unvoylik hususiyatlari quyidagi ko'rsatgichlar bilan tavsiflanadi: unning umumiy chiqishi (oligan un miqdorini qayta ishlangan don miqdoriga nisbati, foizlarda ifodalananadi); yormacha va dunst-oraliq mahsulotlarining chiqish miqdori (dranoy jarayonda donni maydalashdan hosil bo'lgan oraliq mahsulotlarning miqdori); qobiklarni oqlash darajasi; texnologik jarayonning davomiyoligi (sistemalar miqdori); 1t un ishlab chiqarishga sarflanadigan energiya miqdori.

Bu ko'rsatgichlar donning shaffoflik, kuldorlik, rangi, qattiqliligi, bir xil tarkibliligi, naturasi kabi hususiyatlarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Don tozalash bo'limidan un tortishga uzatilayotgan donlarning sifat meyoriari quyidagicha bo'lishi kerak: namligi 16,5%; iflos aralashmalar 0,4%, shu jumladan zararli aralashmalar 0,05%, donli aralashma 4% dan ko'p emas, mineral aralashmalarga yo'l qo'yilmaydi. Donni navli un olishdagi texnologik jarayon murakkab, ko'p bosqichli tuzilmasi bilan ajralib turadi. Un ishlab chiqarish korxonalarida bug'doy boshidan navli un olishdagi maydalov bo'limidagi jarayonlar ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi.

1. Maydalash(dranoy) jarayon-nisbatan qo'pol maydalash va endospermani krupka, dunst(oraliq mahsulotlar) ko'rinishida ajratib olish

2. Saralash (sortirovochniy) jarayon -“maydalash” jarayonda donni maydalash natijasida xosil bo'lgan maxsulotlarni yirikligi bo'yicha saralash

3. Boyitish jarayoni (sitoveychniy) -oraliq mahsulotlarni “sitoveyka” mashinalarida aslligi bo'yicha saralash.

4. Sayqalash(shlifovka) jarayoni -oraliq mahsulotlarga “shlifovka” sistemalarda ishlov berish(endospermning ustki qismiga yopishgan qobig'larni ajratish).

5. Un tortish(razmol) jarayoni- boyitilgan oraliq mahsulotlarni (krupka va dunst) un olish maqsadida maksimal maydalash

6. “Vimol” jarayoni-maydalash va un tortish jarayonlarning oxirgi sistemalarda qobiqlardan endosperma qatlamlarini ajratib olish


7. Unni nazorati.

8. Unni vitaminlar bilan boyitish (vitaminlash).

Maydalash jarayonining 2 xil ko'rinishi mavjud: oddiy maydalash va tanlab olib maydalash. Jaydari un tortishda oddiy maydalash usulidan, navli un tortishda tanlab maydalash usulidan foydalaniladi.

Navli un torishda bug'doy donini maydalash jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin: oraliq mahsulotlarni hosil qilish bosqichi (dranoy jarayon); oraliq mahsulotlarni oqlash bosqichi (shlifovka jarayoni); oraliq mahsulotlarni maydalash va qobiqlarni ajratish bosqichi (rizmol jarayoni). Bu bosqichlar ketma-ketlikda va bir-biriga bog'langan ravishda amalga oshiriladi.

Навли ун ишлаб чиқариш жараёниларининг шакланниши.



Rasm.3 Navli un ishlab chiqarish jarayonlarining shaklanishi

Un ishlab chiqarishda asosiy maydalovchi mashina sifatida valli dastgoxlar ishlataladi. Valli dastgoxlar keyingi texnologik uskunalar va transport vositalarini ishlash rejimini belgilab boradi. Qo'shimcha maydalash vazifasini vimol, entoleytor, detasher kabi yordamchi uskunalar bajaradi.

Dastlabki aralashmani elaklarda bir xil tarkibli fraksiyalarga ajratish jarayoni elash deb ataladi. Texnologik jarayonda elash, maydalash jarayonining davomi hisoblanadi. Dastlabki aralashmani elakda elash davomida ikki xil mahsulot - qoldiq (elak teshiklaridan o'tmay qolgan zarrachalar) xosil bo'ladi.

Fraksiyalarga ajratilgan yordamchilar uch guruxga bo'linadi: yirik, o'rta va mayda. Dunstlar esa qattiq va yumshoq xiliga ajratiladi. Dunst - bu mayda yormacha bilan un orasida turadigan o'rta fraksiyadir. Eng mayda fraksiya un deb ataladi.

Hozirgi vaqtida maydalangan mahsulotlarni yirikligi bo'yicha saralash uchun shkaf tipidagi ZRSH-M va RZ-BRB rasseyvlari qo'llanilmoqda.

Oraliq mahsulotlar rasseyvlarda saralanib, yirikligi bo'yicha bir xil, lekin sifati buyicha xar xil tarkibga ega bo'lgan zarrachalarni hosil qiladi, chunki uning tarkibida toza endosperm, qobiqli endosperm va qobiq zarralari bo'ladi. Agar bunday zarralardan iborat aralashma yana valli dastgoxlarda maydalansa, qobiqlarning o'tib ketishi natijasida mahsulotning sifati keskin pasayadi, ayniqsa, oliy navli unning chiqish miqdori kamayadi.

Hozirgi vaqtida oraliq mahsulotlarni asilligi bo'yicha saralash uchun ZMS va A1-BSO tipidagi sitoveyka uskunali qo'llaniladi. bilan baholanadi.

Un tortishning texnologik sxemalari oddiy va murakkab ko'rinishida bo'ladi. Oddiy un tortishda bug'doy va javdari donlaridan jaydari un olinadi. Murakkab un tortishda bir navli, ikki navli va uch navli unlar olinadi. Navli unlarning chiqish miqdori bazis (meyoriy) ko'rsatkichlar bilan belgilab qo'yilgan.

Un-donini maydalash orqali olinadigan qimmatli oziq ovqat mahsuloti hisoblanadi.

Unning sifati standart talablariga javob berishini aniqlash uchun laboratoriya da ishlab chiqarilayotgan xar bir un navining o'rta namunasi tekshiruvdan o'tkaziladi. Ular quyidagi sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi: rangi, hidi, ta'mi, g'ijirlashish, zararkunandalar bilan zararlanganligi, metallomagnit aralashmalar miqdori, yirikligi, namligi, qo'llanish darjasи, klekovina miqdori va sifati, shuningdek non pishirish yo'li bilan nonbopliz xossalari aniqlanadi.

Un tortish bo'limidan ishlab chiqarilgan unlarning sifat meyorlari quyidagicha : namligi 14,5%; kuldorlik o/n-0,55%,1/n-0,75%,2/n-1,25%, kleykovina o/n-28%,1/n-30%,2/n-25%, mineral aralashmalarga yo'l qo'yilmaydi.

Tekshirish uchun savollar.

1. Un ishlab chiqarishga don xossalari ni ta'siri.
2. Pomol partiyalar tuzishdan maqsad.
3. Don tayyorlov bo'limidagi asosiy jarayonlar.
4. Gidrotermik ishlov berishning donga ta'siri.

«Tayanch» so'z va iboralar

Un, don sifati, pomol partiya, quruq ishlov, don tozalash, aralashmalar, un tortish.

11-MA'RUZA. NON MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI

Reja: *Non mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha umumiylumot. Non maxsulotlarini assortimenti. Non va non maxsulotlarini tayerlashda qo'llaniladigan asosiy va qo'shimcha xom ashyolar tasnifi. Xamir tayyorlashda kechadigan jarayonlar (xamir bijg'itish, xamirni bo'laklash va tindirish). Non va non maxsulotlarini pishirish. Non va non mahsulotlarini saqlash.*

Non ishlab chiqarish sanoati oziq-ovqat sanoatining eng muhim va rivojlangan sohalaridan biridir. Yil sayin non mahsulotlariga bo'lgan talab ortib bormoqda va ularning assortimenti ko'paytirilib bormoqda.

O'zbekiston xududida 1929 yilgacha ishlab chiqarish sanoati yo'q edi, hamma yerda maxalliy xalq o'z mexnati bilan tandirlarda non yopib ularni iste'mol qilingan. Respublikamiz bo'yicha 1-non korxonasi Toshkent shaxrida 1929 yilda qurilgan. 1930 yil esa 2-si Samarcand va 3-si Toshkentda qurilgan 1980 yilga kelib Respublikamizning yirik shaxarlarida katta va o'rta quvvatga ega bo'lgan non ishlab chiqarish sanoati jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Non ishlab chiqarish korxonalariga asosiy va qo'shimcha xom ashyolar to'kma holda maxsus sig'implarda keltiriladigan bo'ladi. Yangi texnologik jarayonlar qo'llanilib, lentali pechlar, xamir tayyorlovchi agregatlar, xamir buklovchi mashinalar va boshqa texnologik uskunalar o'rnatiladi. Non mahsulotlarini pishirish gazli, elektr isitgichli pechlarda amalga oshirila boshlanadi. Nln tashishda konteyner usuli qo'llanilmoqda. Texnika va texnologiyalarning rivojlanishi ishchi qo'l mexnatini kamaytiradi, 1986 yil non ishlab chiqarish korxonalarini Respublika oziq-ovqat vazirligida Don maxsulotlari vazirligiga o'tkazilgan.

Non ishlab chiqarish sanoati korxonalarida non, bulochka, makaron, qandolat maxsulotlari ishlab chiqarila boshlanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng non sanoatimiz tez rivojlanib ketdi. Katta quvvatli eski tipdagi non ishlab chiqarish korxonalar o'rniga zamonaviy uzluksiz ishlaydigan texnologik liniyalarga ega bo'lgan kichik korxonalar qurildi. Kichik non ishlab chiqarish korxonalarining avzalligi bir vaqtin o'zida aholini dasturxoniga 20-30 xil non bulka mahsulotlari issiq holda yetkazib beriladi. Non ishlab chiqarish sanoati maxsulotlarning assortimentiga turli ko'rinish va navdag'i non-bulka, suxariki, shafobaxsh xamda parvez milliy non mahsulotlari kiradi. Sanab o'tilgan bu maxsulotlar yuzlab nomlarga ega bo'lib bir biridan uning navi, shakli va pishirish usullari bilan farqlanadi. Non maxsulotlari turli navlardagi Javdar va bug'doy unlaridan tayyorlanadi. Non maxsulotlariga og'irligi 0,5kg va undan yuqori bo'lgan maxsulotlar kiritiladi. Non maxsus qoliplarda va pechning listlarida pishiriladi. Ularning retsepturasi oddiy bo'lib, unga un, suv, tuz va xamirturush kiradi. Ayrim non turlariga kam miqdorda shakar, yog', solod, patoka va xushbo'yantiruvchi moddolar qo'shiladi. Bulka maxsulotlariga og'irligi 0,05-0,5 kg bo'lgan maxsulotlar kiritiladi. Ularning retsepturasiga asosiy xom ashyolardan tashqari shakar, yog' va boshqa ashyolar kiradi.

Non asosiy oziqa mahsuloti hisoblanadi. Non-asosan uglevodli oziqadir, unda zarur bo'lgan optimal nisbat (4:1) talabiga javob bermaydi. Nonning oziqaviylik qimmati uning kaloriyasi, xazm bo'lishi, oqsil,

vitamin va mineral moddalarning miqdori va tarkibi bilan baholanadi. Non tarkibidagi oziqa moddalar inson organizmi tomonidan butunlay barchasi xazm bo‘lmaydi. Nonni xazm bo‘lishiga uning g‘ovakligi, ta’mi, tashqi ko‘rinishi, uning navi va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatadi. Qanchalik uning navi yuqori bo‘lsa, shunchalik uning oziqa moddalari ayniqsa oqsili yaxshiroq xazm bo‘ladi. 1 kg nonda 70-80g oqsil mavjud bo‘lib, u insonning oqsilga bo‘lgan extiyojini taxminan 30% ni qoplaydi. Nonda mineral moddalarning umumiy miqdori 1-2 % ni tashkil qiladi. Uning navi qanchalik past bo‘lsa, nonida shunchalik mineral moddalarning miqdori ko‘p bo‘ladi. Vitaminlar xam jaydari unlarda oliv Navli unga qaraganda ko‘p uchraydi. Masalan, javdar va bug‘doydan olingpn jaydari undan tayyolangan nonning 550g miqdori inson organizmi rr vitaminiga bo‘lgan extiyojni to‘liq, V1 vitamini 2.3 qismini, V2 vitamini 1.6 qismini qondiradi.

Non va bulka maxsulotlari organoleptik (tashqi ko‘rinishi, ta’mi, xidi, mag‘iz holati) va fizik-kimyoviy (namlik, kislotalik, g‘ovaklik, yog‘ va shakarning miqdori) sifat ko‘rsatkichlari birinchi darajali hisoblanadi, chunki maxsulot organoleptik ko‘rsatkichlar bo‘yicha sifatsiz deb topilsa, maxsulot brak (yaroqsiz) hisoblanadi va keyingi analizlar o‘tkazilmaydi.

Nonning namligi-uning sifatini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Maxsulotning koloriyasi, mag‘izining holati, nonning chiqish miqdori va saqlanuvchanligi uning namligiga bog‘liq bo‘ladi. Xar bir mahsulot uchun namlik meyorlari belgilangan bo‘ladi. Hozirgi vaqtida respublika non sanoati korxonalarida 300 xildan ko‘proq mahsulot turlari ishlab chiqarilmoqda. So‘nggi yillarda respublikamizda aholi ovqatlanish ratsionini sog‘lomlashtirish maqsadida non mahsulotlariga turli qo‘srimchalar qo‘shib, shifobaxsh, parvez nonlar ishlab chiqarilmoqda. Bularga sabzovot, meva sharbatlari, temir, oqsil moddalari, kepak, jo‘xori uni, javdaruni, sut zardobi, yaxshilagichlar va boshqa qo‘srimchalar qo‘shib tayyorlanadigan nonlar kiradi.

Non va non maxsulotlarini tayyorlashda qo‘llaniladigan xom ashylolar ikkiga: asosiy va qo‘srimcha xom ashylarga bo‘linadi. Asosiy xom ashylarga-un, suv, xamirturish va tuz kiradi.

Qo‘srimcha xom ashylarga shakar, yog‘, moy, maxsulotlari, tuxum sut retsepturasida ko‘rsatilgan xom ashylolar kiradi.

Bug‘doy uni-bug‘doy donlarini tegirmonda tortish yo‘li bilan olinadigan kukunsimon masalliqdir. Non maxsulotlari tayyorlashda oliv, I va II navli unlar ishlatiladi, xamirning hamma turlari ana shunday unlardan tayyorlanadi. Uning namligi uni saqlab qo‘yishda xam, undan maxsulotlar tayyorlashda ham katta ahamiyatga ega. Standartga muvofiq, un namligi 14.5 % dan ortmasligi kerak. Maxsulot tayyorlashning xama retsepturalari shu namlikka mo‘ljallangan.

1. Unning non pishirishdagi xossalari;
2. Unning rangi va non tayyorlash jarayonida rangining o‘zgarishi;
3. Xamirning realogik hossalari, un kuchi, kleykovina miqdori va sifati;
4. Unning suv yutish qobiliyati;
5. Unning gaz hosil qilish hossasi;
6. Unning avtolitik aktivligi;

Un rangi unlarning naviga qarab o‘zgaradi. Unning navi past bo‘lganligi sari rangi to‘qarib boradi. Unning rangi nonning yumshoq qismiga qarab belgilanadi.

Un kuchi, bu shartli termin bo‘lib, xamirning kleykovinasi bilan tavsiflanadi. Xamirning realogik xossalari: elastikliligi, plastikltgi, qattiqligi va bog‘lanishi (qovushqoqligi) kiradi. Shunga asosan un kuchli, o‘rtacha va kuchsiz deb yuritiladi. Kuchli un tarkibida oqsil ko‘p bo‘ladi. Gliadin va glyutenin oqsillari kleykrvinani hosil qiladi.

Suv. Non va makoron mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo hisoblanadi. Barcha qiyomlar va ko‘pgina qandolat massalarini tayyorlashda xam suv ishlatiladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda ichimlik suvidan foydalaniladi. Korxonalar ichimlik suvi tarmog‘i orqali ta’minlanadi. Bunday imkoniyat bo‘limganda, Davlat sanitariya va epidemiologiya nazorati tashkilotlari ruxsati bilan maxalliy suv manbalaridan foydalaniladi.

Qaysi manbalardan olinganidan qat’iy nazar suvning sifatini standart (GOST2874) talablarga mos kelishi kerak. U tiniq, rangsiz, ta’msiz va hidsiz bo‘lishi shart.

Suvda erigan holda mavjud bo‘lgan kalsiy va magniy tuzlarining miqdori “suv qattiqligi” ko‘rsatkichini ko‘rsatadi. Suvning qattiqligi 11 suvdagi kalsiy yoki magniy nonlari milligramm ekvalintlari orqali ifodalanadi.

Qattiqligi ko‘rsatkichi kattaligiga ko‘ra (mg-ekv/l) suv quyidagi guruxlarga bo‘linadi: 1.5 gacha juda yumshoq ;1.5-3 yumshoq; 3-6 biroz qattiq; 6-9 qattiq 9 dan yuqori juda qattiq. Turli manbalarning suvi xar hil qattiqlikka ega bo‘ladi. Ichimlik suvining qattiqligi 7 mg-ekv/l gacha bo‘lishiga ruxsat berilishi mumkin.

Suvning yuqori darajali qattiqligi bug‘ qozonlari, qovurlari va boshqa maqsadlar uchun salbiy tasir etsada, ammo xamir tayyorlashda u zarar yetkazmaydi. Kalsiy va magniy tuzlari kleykovinaning xossalariini kuchaytiradi, ya’ni kuchsiz undan tayyorlangan xamirning xossalariini, tayyor nonning sifatini esa yaxshilaydi.

Xamarturish. Non pishirishda presslangan xamirturish, quritilgan xamirturish, suyuq xamirturish va xamirturish surʼi ishlataladi. Xamirturish saxaramitsedlar sinfiga kiruvchi dumaloq, tuxumsimon shakldagi to‘qimalardan iborat mikroorganizmdir. Tarkibida quruq moda quyidagilardan tashkil topgan oqsil 44-67 %, mineral moddalar 6-8%, uglevodlar 30%, vitaminlar va fermentlar bor. Xamirturushlar tarkibida bir qator fermentativ komplekslar bo‘lib, ulardan asosiysi zimaza deyiladi. Bu moda xamirturish tarkibidagi shakarni achitib, etil spirit va karbonat angidridni (SO_2) hosil qiladi. Shu xossaga ko‘ra xamirda bijg‘ish jarayoni bo‘lib o‘tadi. Xamirturish mikroorganizmlari uchun qulay sharoit 26-28 S, 45-50S da to‘qimalar ko‘payishi to‘xtab, anabioz (karaxt) holatiga o‘tib oladi. Namligi 75% ni tashkil etadi Xamirturish asosiy uglevodlar glikogen va tregolaza bo‘lib, ular elektr manbai hisoblanadi.

Preslangan xamirturish nordonligi **120-360 ml/gr** (uksus kislotasi birligida) namligi 75%, ko‘tarilish kuchi 76 minutigacha, xamirturish 6-8 S da o‘z xossasini saqlab qoladi. Ishlab chiqarishda muzlatilgan xamirturish muzidan eritilib ishlataladi (xona temperaturasida). Presslangan xamirturishga ozuqa bo‘lib, shakar sanoatining chiqindisi melassa qo‘llaniladi. Melassa to‘q, suyuq konsistensiyali bo‘lib, 45-50% saxaroza, 12% azotli birikmalar, 10% mineral moddalardan tashkil topgan.

Tuz. Osh tuzi NaCl va oz miqdorda boshqa mineral tuzlar aralshmasidan iborat. Osh tuzi tarkibidagi aralashmalari miqdoriga ko‘ra 4 ta navga bo‘linadi: ekstra, oliv, 1 nav, 2 nav, yodlangan tuz xam ishlab chiqariladi. NaCl miqdori 97-99.5 % dan kam bo‘lmasligi, suvda erimaydigan quruq moddalar cho‘kmasi 0.03-0.85% dan oshmasligi kerak namligi 5-6% atrofida. Ishlov berish usuliga ko‘ra tuz mayda kristalli, maydalangan va maydalanmagan tuzlarga bo‘linadi. Non maxsulotlari ishlab chiqarishda maydalangan tuzning 1 va 2 navi ishlataladi. Asosan tuz 26-28% eritma holida ishlataladi.

Tuz xamirning strukturasi mexanik xossasi va maxsulot ta’mini yaxshilaydi, fermentlar aktivligini kamaytiradi. Shu bilan birga xamirturish faoliyatini susaytirib, yarim fabrikatlar bijg‘ish jarayonini sekinlashtiradi.

Tuzning sifat ko‘rsatkichlari organoleptik va fizik-kimyoviy usullar bilan tekshiriladi.

Quyidagi qo‘shimcha xom ashayolarni ko‘rib chiqamiz.

Shakar. Shakarda 99,7 % saxaroza va 0.14 % namlik bo‘ladi. U suvda batomom eriydi, yog‘ ta’mi va xidi bo‘lmaydi, mazasi shirin, qo‘lga olib ko‘rganda quruq. Shakar nam tortadigan bo‘lgani uchun shamollatib turiladigan quruq xonada saqlanadi, bu xonaning nisbiy namligi ko‘pi bilan 70% bo‘lishi kerak, aks holda shakar nam tortib yopishqoq va kesak-kesak bo‘lib qoladi.

Undan tayyorlanadigan non maxsulotlariga shakar maza beradi, ularning to‘yimliligini oshiradi va xamirning tuzilishini o‘zgartiradi. Shakar kleykovinaning bo‘kishini cheklab qo‘yadi va shu yo‘l bilan uning suv ko‘tarish xususiyatini pasaytirib, xamirning qayishqoqligini pasaytiradi.

Sut maxsulotlari. Oziqlik qimmatiga ko‘ra, sutning o‘rnini xech qaysi maxsulot bosa olmaydi. Shuning uchun sut tabiat yaratgan ajoyib ozuqa sanaladi. Sut va sut maxsulotlari inson organizmi tomonidan yengil va oson o‘zlashtiriladi.

Sutning oqsil moddalari to‘liq qiymatli aminokislotalardan iborat. Sutda 2-4% kazein, 0,1% globulin va 91 % boshqa oqsillar mavjud.

Qaymoq separatorlar yordamida sutni qaymoq va yog‘siz sutga ajratish jarayonida olinadi.

Qaymoqning tarkibida yog‘dan tashqari 2.5-3.4% oqsil 3.0-4.2% lakteza, 0.4-0.6% mineral moddalar ham mavjud. Unda yog‘ miqdori qanchalik ko‘p bo‘lsa, boshqa tarkibiy qismlari shunchalik kam bo‘ladi.

Qaymoqning xaqiqiy qismi smetana va sariyog‘ ishlab chiqarishga, yog‘liligi 10-20% bo‘lgan qaymoqni esa bevosita iste’mol qilishga jo‘natiladi. Qaymoqni kavlash vaqtida ko‘pik hosil qilish hisobiga xajmini ortishi hususiyatidan qandolatchilik sanoatida foydalaniladi.

Qaymoq sarg‘ish oq rangda bo‘lishi kerak. Konsistensiyasi bir jinsli, yog‘ va oqsil qumaloqlarsiz, ta’miga ega, toza bo‘lishi kerak, Yog‘ligi 10% bo‘lgan qaymoqning kislotaliligi 19T dan, yog‘ligi 20.18 va 35% bo‘lgan qaymoqning kislotaliligi esa 17T dan oshmasligi kerak.

Sut konservalarning xossalari va yaxshi saqlanishi, ularni bevosita ovqatlanishda, non bilan, qandolat va makaron mahsulotlari bilan ta’minlashda foydalanish imkonini beradi.

Quruq sut va qaymoq ikki yo‘l bilan: yupqa klyonkali va purkash usulida tayyorlanadi.

Quruq sut mahsulotlariga tabiiy va yog‘sizlantirilgan quruq sigir suti, quruq qaymoq va boshqalar taaluqlidir. Quruq sut maxsulotlari oq, sarg‘ish tusli kukundan iborat bo‘lib, pasterizatsiyalangan sutning xidi

va ta'miga xos bo'lgan toza xid va ta'mga ega. Quruq sut va maxsulotlarining namligi germetik qadoqlanganda 4-5%dan, germatik bo'lmasligi kerak.

Novvoylik va qandolatchilik sanoatida xom ashyo sifatida sut zardobi va undan tayyorlangan turli xil maxsulotlar foydalaniladi. Sut zardobi tvorog va pishloq ishlab chiqarishning ikkilamchi maxsuloti hisoblanadi. U och sariq ranga, o'ziga xos nordon ta'm va xidga ega bo'lgan suyuqlikdir.

Margarin. Margarin asosan bir necha yog' turlardan iborat aralashma bo'lib, u xayvon va o'simlik yog'lariga qaymoq, sut yoki suv qo'shib tayyorlanadi. Mazasi va xidi jixatidan sariyog'ga yaqin turadi. Sanoatda sutli va qaymoqli margarinlar ishlatiladi. Korxonaga margarin bochkalar yoki yashiklarda keltiriladi. Margarinni saqlash muddati 4-10 S xaroratda 45 kun, 0-4 S da 60 kun va 0 S dan past xaroratda 75 kun suyuq margarinning saqlash muddati 2 kun.

Tuxum maxsulotlari. Tuxum juda to'yimli, baquvvat masalliq bo'lib, tarkibida oqsillar, yog'lar, mineral va boshqa moddalar bor. Tuxum o'z xossalari bilan mahsulotlarning ta'mini hushxo'r qilib, ularni g'alvirak, beg'ubor hilga keltiradi. Tuxum oqsili biriktiruvchi hossalarga ega bo'lib, yaxshi ko'pik hosil qiladi, shiranı ushlab turadi.

Solod va solod preparatlari. Solod sun'iy sharoitlarda ma'lum harorat va namlikda undirilgan don. Donni sun'iy usulda undirish jarayoni solod yetishtirish deyiladi. Undirib olingan maxsulot Yangi solod deyiladi va u keyinchalik quritiladi xamda quruq solodga aylantiriladi. Solod tayyorlash uchun asosan, arpa va javdar doni ishlatiladi.

Javdar donidan quritilgan fermentlashtirilgan (qizil) va fermentlashtirilmagan (oq) javdar solodi, ar�adan esa pivo tayyorlanadigan oq va qora, karamellashtirilgan va kuydirilgan arpa solodi tayyorlanadi. Novvoylikda esa asosan fermentlashtirilgan (qizil) va fermentlashtirilmagan (oq) javdar solodidan foydalanadi.

Kraxmal va ozuqa maxsulotlari. Kraxmal-o'simliklarning urug'ida, dukkaklarda yoki ildizlarida to'planadigan asosiy zaxira moddadir. Kimyoviy tarkibi jixatdan kraxmal polisaxrid bo'lib, uning tuzilishi asosini glyukoza qoldiqlari tashlil etadi. Shuning uchun kraxmal gidrolizlangan glyukozagacha parchalanadi va organizm tomonidan deyarli to'liq o'zlashtiriladi. Insonning kraxmalga bo'lgan sutkalik extiyojlari 400-500g. Kraxmalning oziq-ovqat bilan bunday miqdorda organizmga tushishi insonning energiyaga bo'lgan talabining yarmini qondiradi.

Ozuqaviy yog'lar va moylar. O'simlik moyi va hayvon to'qimalaridan olinadigan yog'lar, odatda, kamyoviy toza bo'lmaydi. Ular juda murakkab tartibli aralashma bo'lib, yog'lar ularda asosiy qismini boshqa komponentlar esa yog'lar aralashmasi yoki yog'simon moddalar yig'indisi deyiladi.

O'simliklar lipidlar, asosan, mevalar va urug'larda to'planadi. Xayvonlar, baliqlarda yog'lar juda muhim organlarni o'rab turgan vat yeri osti to'qimalarida to'planadi. Qaysi xom ashyanidan olinishiga qarab yog'lar o'simlik, xayvon va kombinatsiyalangan, konsistansiyasiga qarab suyuq bo'ladi. Kombinatsiyalangan yog'lar deb xayvon, o'simlik va gidratlangan yog'larni aralashtirib olingan yog'larga aytildi. Bu margarin, pazandachilik va maxsus yog'lardir.

Non va non maxsulatlarina ishlab chiqarish quyidagi asosiy olti bosqichdan iborat:

1. Xom ashyon qabul qilish va saqlash;
2. Xom ashyon ishga tushirishga tayyorlash;
3. Xamir tayyorlash;
4. Xamirni bo'lish;
5. Pishirish;
6. Pishirilgan maxsulotni saqlash va sotuvga jo'natish;

Birinchi bosqich – Korxonalarga kelayotgan quruq yoki eritilgan holatdagi hom ashylarni omborxonalar va xajmli idishlarga ma'lum sharoitlarda qabul qilish va saqlashni qamrab oladi. Un non zavodiga kompressorlar bilan jihozlangan un tashish mashinalarda keltiriladi va mahsus siloslarga qabul qilinadi. Bu yerda un 7 kun saqlanadi va yetiladi. Tuz kabi boshqa xom ashelar kichik novvoyxonalarga sog'ma holda keltirilib, uch seksiyali mahsus rezervuarlarda eritiladi, ma'lum muddat tindiraladi, filtrlanadi va suyuq holda saqlanadi. Tuz eritmasining konsentratsiyasi -26% zichligi -1.19 g/l bo'lishi kerak .

Presslangan xamirturishlar yashiklarda keltirilib, 0-4 S haroratda 3 sutka mobaynida muzlatish kameralarida saqlanadi. Shakar non zavodiga quruq holda qoplarda va zichligi 1, 2, 3 bo'lgan eritilgan holda isitilgan sisternalarda keltiriladi. So'ngra zanglamas po'latdan yasalgan idishlarga quyiladi va eritma holatida saqlanadi.

Margarin va boshqa yog'lar karobkalarda, hamda avtotsisternalarda mahsus aralashtirgich va ma'lum darajani saqlab turadigan isitish qoplamlari idishlarda keltiriladi.

Ikkinchı bosqich – Xom ashylarni ishlab chiqarishga tayyorlashdan iboratdir. Saqlanayotgan un xar xil aralashma va metall zarrachalaridan tozalaydigan elak va magnitdan iborat bo‘lgan “Vinklar” markali elash moslamasidan o‘tkaziladi. Xamirturishni oshirish uchun maxsus idishlarda qaynatma tayyorlanadi va 30 S xaroratda 1-2 soat davomida oshiriladi. Shakar ishlab chiqarishga qiyom holiga keltiriladi. Qolgan xom ashylar xam yuvilib tozalanib ishlab chiqarishga keltiriladi.

Uchinchi bosqich – xamir tayyorlash hisoblanadi. Xamir tayyorlash – non maxsulotlarini ishlab chiqarishda muhim jarayon bo‘lib, keyingi texnolgik bosqichlar va nonning sifati shu jarayonga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Xamir turushlardan asosiy maqsad ma’lum miqdordagi un suv, xamirturish, tuz va boshqa komponentlarni aralashtirib bir xil tarkibli aralashma hosil qilishdan iboratdir. Xamir tayyorlash jarayoni “Vinkler” markali xamir qorish mashinasida amalga oshiriladi. Xamir qorish uchun suv dozator orqali dejaga (xamir qoriladigan qozonga) uzatiladi. Qolgan xom ashylar maxsus o‘lchamli chelaklar bilan qoplanadi. Xamir 10 daqiqa davomida intensiv aralashtirib qoriladi.

Xamir tayyorlashda uni bijg‘ish uchun yaxshi sharoit yaratib berishga harakat qilinadi. Shirin ta’mli, yaxshi g‘ovakli non tayyorlash uchun xamir oshiriladi. Xamir uch xil yo‘l bilan oshiriladi: biokimyoviy, kimyoviy va mexanik usullar. Biokimyoviy usulda xamirga achitqilar qo‘shiladi, ular xamir tarkibidagi qand moddalarni spirt va uglerod IV-oksidgacha parchalaydi.

Kimyoviy usulda xamirga ichimlik sodasi, ammoniy karbonat tuzi va boshqa qo‘shimchalar qo‘shiladi. Ular pishish jarayonida yuqori xarorat ta’sirida parchalanib xamirni oshiruvchi uglerod IV-oksidini hosil qiladi. Mexanik usulda esa xamir maxsus moslamada uglerod IV-oksiidi gazning bosimi ostida qoriladi. Bu jarayonda g‘ovaklangan xamir massasiga shakl beriladi va pishirishga yuboriladi.

To‘rtinchi bosqich – xamirni bo‘lish jarayoni hisoblanib unga xamirni buklash shakl berish va ma’lum muddat tindirish jarayonlari kiradi. Xamirni belgilangan og‘irlilikdagi zuvalalarga “Vinkler” firmasining MAK-3 xamir bo‘lish mashinasi bo‘lib beradi. Zuvalalarning og‘irligi tayyor maxsulotning og‘irligidan kelib chiqib belgilanadi, bunda pishish davomida non maxsulotlarining vaznini kamaytirish xisobga olinadi.

Xamir bo‘laklari sharsimon shaklga keltirilib, undan so‘ng oxirigi shakl beriladi. Ayrim non mahsulotlariga mahsus moslamalarda shakl beriladi.

Shaklga kirgan xamir bo‘laklari tindiriladi, bunda xamirning bijg‘ishi davom etib hosil bo‘layotgan gaz xamirnii g‘ovakli bo‘lishiga va xajmini ortishiga xizmat qiladi. Tindirish jarayoni uchun 35-40 S harorat va 75-85% nisbiy namlik qulay sharoit hisoblanadi. Tindirish jarayoni mahsus kameralarda amalga oshiriladi.

Beshnnchi bosqich – pishirish jarayoni bo‘lib, bunda xamir tayyor non mahsulotiga aylanadi. Pishirishni maqsadi xamirni yaxshi xazm bo‘ladigan mahsulotga aylantirib berishdan iboratdir. Pishirish maqsadi – xamirni yaxshi xazm bo‘ladigan maxsulotga aylantirib berishdan iboratdir. Pishirish jarayonini dastlabki daqiqalarda ma’lum miqdorda ko‘tarilishini kuzatish mumkin. Bu jarayon xamir qatlamlari orasiga issiqlik kirishi orqali yuzaga keladi. Mag‘izning ichki qatlamlarida xaroratning ortishining dastlabki vaqtida achitqilar tomonidan ko‘p miqdorda karbonat angidrid gazini hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Harorat 55 S ga yetganida achitqilarning xayot faoliyati to‘xtaydi. Xamir bo‘laklarining ustki qismi pechka ichida tez qiziydi va bu qatlamlagi bijg‘uvchi mikroorganizmlar zudlik bilin o‘ladilar, kraxmal donachalari klesterlanadi, oqsil moddalar denaturatsiyaga uchraydi. Xarorat 100S ga yetganda xamirdan namlik bug‘lanib chiqsa boshlaydi. Ustki qismi qattiqlashib qolishi, undagi namlikni ko‘p miqdorda bug‘lanib ketishi bilan tushintiriladi. Ustki qismini rangini o‘zgarishi, unda kimyoviy jarayonlar sodir bo‘lganligining natijasidir. Xamirni xarorati ko‘tarilish bilan kleysterlangan kraxmaldan strinlar hosil bo‘ladi, masalan 110-120 S da och sariq rangdagi dekstrinlar hosil bo‘ladi, 120-140S da jigarangdagagi dekstrinlar hosil bo‘ladi.

Harorat 140-150 S bo‘lganda qand moddalarning karamelizatsiya jarayoni yuzaga keladi. 150-200 S da nonning ustki qismida oqsil va qand moddalarining o‘zaro ta’sirlashishi natijasida to‘q rangli moddalar – melanoidlar hosil bo‘ladi. Melanoidlar non maxsulotlariga mahsus ta’m va hushbo‘y hid beruvchi moddalardir.

Nonning ustki qattiq qismini hosil bo‘lish mag‘ziga issiqlikni yetib borishini qiyinlashtiradi, chunki u issiqlikni yomon o‘tkazuvchi hisoblanadi. Pishirish vaqtini uzaytirsa ham non mag‘izining harorati 100S dan oshmaydi.

Harorat 60 S ga yetgandan boshlab oqsil moddalarning dekaturatsiya jarayoni (svertvaniya) boshlanadi. Bunda oqsil molekulalaridan suv ajralib chiqadi, suvni esa kleysterlangan kraxmal bog‘lab oladi. Shunday qilib, pishiirish jarayoni tufayli kleysterlangan kraxmal donachalari va strukturasi o‘zgargan oqsil moddalardan iborat mustaxkam karkas xosil qilgan non mag‘iz yuzaga keladi. Kimyoviy o‘zgarishlar natijasi hosil bo‘lgan spirt xamirdagi kislotalari bilan reaksiyaga kirishib, nonga xushbo‘y ta’m va xid beruvchi efirlarga aylanadilar.

Har bir turdag'i non mahsulotlari uchun pishirish rejimi belgilanadi, u pishirish davomiyligi va kameradagi nisbiy namlik bilan tavsiflanadi. Nonning ta'mi va hushbo'yligi biringchi navbatda pishirish davomiyligi va xamir nonni pechkada qizish tezligiga bog'liq bo'ladi. Pishirish davomiyligi mahsulotlarining og'irligi va shakliga, issiqlik rejimiga, xamir bo'laklarining joylashish zichligi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Oltinchi bosqich – maxsulotni saqlash va sotuv rastalariga jo'natish jarayonlarini qamrab oladi. Pechkada pishib chiqayotnon lentali transporterlar orqali sirkulatsion stollarga uzatiladi, u yerdan nonlar yog'ochli lotoklarga taxlanadi. Bu lotoklar xarakatlanadigan va gonekalarga joylanadi, vagonetkalardagi non maxsulotlari savdo tarmoqlariga jo'natilguncha non saqlovchi omborlarda saqlanadi. Non maxsulotlarini taxlash, saqlash va jo'natish ishlariga qo'yiladigan talablar standart meyorlarda balgilangan.

Ishlab chiqarilgan non maxsulotlarini korxonada saqlash muddati belgilanadi, bunda nonni yangiligini saqlash muxim axaimyatga ega. Saqlash muddati pechkadan chiqishidan boshlab to "Issiq non" do'konlariga jo'natguncha davom etadi. Korxonada yoki do'konda saqlanish muddati o'tib ketgan non maxsulotlari brak hisoblanadi va talqon, suxari uni kabi maxsulotlar olish uchun qayta ishlanadi.

Pishib chiqqan issiq nonlar sovishi natijasida vaznini yo'qotishi (usushka kuzatiladi, ya'ni maxsulot namligining bir qismi bug'lanib vaznini kamayishiga olib keladi. Vaznini yo'qotilishi issiq non bilan sovigan non og'irliklari orasidagi farq orqali aniqlanadi. Bu jarayon mahsulot namligi bilan atrof muxitdag'i havoning nisbiy namligi muvozanatlashgunga qadar davom etadi. Maxsulot turi saqlanish muddati va sharoitiga qarab, non maxsulotlarida og'irlikning kamayishi 1-3% ni tashkil qiladi.

Saqlash davomida nonni ustki qismini qotib qolish holati yuzaga keladi. Pishgandan so'ng bir necha soat o'tgandan keyin nonning ustki qismlari qattiq, uqalanuvchi holatdan yumshoq elastik holatga o'tadi. Non mag'izining eziluvchanligi kamayadi, ushoqlanuvchanlik ortadi. Non maxsulotlari 0-25 S xaroratda saqlanayotgan bu jarayon intensiv kechadi. Xaroratni 7 S ga tushursak bu jarayoni sekinlashadi. Non maxsulotlarining yangiligini saqlab turish muxim axamiyatga ega. Non ishlab chiqarish korxonalari kecha – kunduz uzuksiz ishlaganligi tufayli kechki smenada tayyor bo'lgan non maxsulotlari 10-12 soatdan keyin xaridorlarga yetib boradi. Shuning uchun ularni yangiligini saqlash uchun polietilin paketlarga qadoqlash xozirgi kunda keng amalaga oshirilmoqda.

Polietelin paket nonning yangilagini, ta'mi, xushbo'yligi va yumshoqligini 2-3 sutka davomida yaxshi saqlanishiga yordam beradi. Non mahsulotlarini qadoqlovchi materiallar ma'lum mustaxkamlikka ega, inart, maxsulotlarga nisbatan zararsiz bo'lishi kerak.

Takrorlash uchun savollar

1. Non maxsulotlarining turi.
2. Non maxsulotlari tayyorlashdagi asosiy xom ashyolar tavsifi.
3. Non maxsulotlari tayyorlashdagi qo'shimcha xom ashyolar tavsifi
4. Non maxsulotlari ishlab chiqarishdagi tuxnologik jarayonlar ketma-ketligi.
5. Xamir tayyorlash jarayonining izoxi.
6. Pishirish davomida kechadigan jarayonlarning qisqacha tavsifi.
7. Non maxsulotlarini saqlash va sotuvga jo'natish jarayonlariga izox bering.

Tayanch so'z va iboralar

Un, Xamirturish, Tuz, Suv, Shakar, Sut mahsulotlari, Margarin, Solod, Kraxmal, Ozuqaviy yog'lar, Tuxum

12-MA'RUDA. MAKARON MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI.

Reja: Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha umumiyligi ma'lumot. Makaron mahsulotlarini assortimenti va sifat ko'rsatkichlari. Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asosiy va qo'shimcha xom ashyolar tasnifi. Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi asosiy jarayonlar. Unli kandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

Makaron mahsulotlarini qadim-qadim zamonlardan boshlab ishlab chiqarilgan: dastlab tekis ugra ko'rinishida, keyinchalik esa trubkasimon makaronlar ko'rinishida. Ugra tayyorlashning birinchi ta'rifini yangi eramizning birinchi o'n yilligida tuzilgan, rimlik ovqat shinavandasini Anichoning kulinariya bo'yicha traktatida uchratish mumkin. Italiyada makarondan taomlar tayyorlanishning xujjatli eslatmasi XII asr boshlariga to'g'ri keladi.

XIV asr o'rtalarigacha makaron mahsulotlarini uy sharoitlarida tayyorlangan.

Sodda texnikalar bilan makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish sexlari birinchi bo'lib, XIV asrning oxirlarida Italiyada qurilgan. Makaron va vermeshellarni vintlangan yog'ochli presslarda presslangan, sexlarning ishchi imoratiga o'rnatilgan stellajlardagi ramkalarda quritilgan.

Makaron sanoatida keyingi katta bosqich bu to'xtovsiz ishlaydigan quritgichlarni tadbiq qilish bo'ldi va ular asosida shneklangan presslar birligida mexanizatsiyalashtirilgan liniyalar paydo bo'ldi: 1945-1948 yillarda kalta mahsulotlar ishlab chiqarish uchun "Braybanti" firmasining (Italiya) birinchi liniyalari, 50-yillarning boshlarida uzun mahsulotlar ishlab chiqarish uchun "Byuler" firmasining (Shveysariya) birinchi liniyalari. Makaron sanoatining hozirgi vaqtgacha davom etayotgan keyingi rivojlanishi xamir qorish va shaklga keltirish, makaron mahsulotlarini quritishining texnika va texnologiyalarini zamonaviylashtirish yo'lidan bormoqda va mahsulotlar assortimentini (navlarini) kengaytirmokda. Shu ma'nosida xamirga vakuumli ishlov berish, teflon qo'shimchali matritsalarning qo'llanilishi, quritishning yuqori temperaturali rejimidan foydalanishi, tez pishadigan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik usullaridan foydalanishni alohida ta'kidlash lozim.

Hozirgi vaqtda makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish, iste'mol qilish va eksport qilish bo'yicha Italiya birinchi o'rinda turadi: oxirgi o'n yillikda Italiyada makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish o'rtacha yil hisobi 1800 da 2500 ming tonnagacha o'zgarib turadi.

Makaron maxsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha AKSH ikkinchi o'rinda turadi: bir yilda 1300-1800 ming tonna. Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan uskunalarga kelsak, bu yerda xam Italiya oldingi o'rinda turadi. Ikkita qadimiy italyan firmalari: "Braybanti" va "Pavon" – uzun, kalta va uya ko'rinishidagi makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviylashtirilgan liniyalar chiqaradi, ulardan dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida keng qo'llaniladi. Ularga faqatgina shveysar "Byuler" firmasining liniyalari raqobatbardoshdir.

Makaron mahsulotlarining klassifikatsiyasi. Makaron mahsulotlari – bu 13% namlikkacha quritilgan, bug'doy uni va suvdan tayyorlangan, quyida shaklda keltirilgan xamirdan olingan oziq-ovqat mahsulotdir. Makaron mahsulotlarining oziqa maxsuloti sifatidagi asosiy fazilatlari:

-o'ziga xos hususiyatini yo'qotmasdan uzoq muddat (bir yildan ortiq) saqlanuvchanlikka egaligi: makaron mahsulotlari umuman qotib qolmaydi, suxarik, pecheniyelarga qaraganda gigroskopikligi kamroq, transportirovkani yaxshi ko'taradi;

-tez va oddiy tayyorlanishi (qaynatish davomiyligi assortimentga qarab 3-20 min);

-nisbatan yuqori oziqaviy qiymati: 100 gr quruq makaron mahsulotidan tayyorlangan taom, insonning oqsil va uglevodlarga bo'lган sutkadagi talabini 10-15 % ini qoniqtiradi;

-makaron mahsulotlarining asosiy oziqa moddalarini yuqori xazm bo'lishi – oqsil va uglevodlar.

Makaron mahsulotlarini shakliga qarab, quyidagi turlariga bo'linadi: trubkasimon, ipsimon (vermeshel), tasmasimon (lapsha) va har xil shaklli. O'z navbatida bu makaron mahsulotlarining turlari podtiplar va ko'rinishlarga bo'linadi.

Trubkasimon mahsulotlar (3-rasm) shakliga va uzunligiga qarab jadvalda ko'rsatilgan podtiplarga bo'linadi.

Trubkasimon maxsulotlarning podtiplari bo'linishi

Podtip	Shakli(forma)	Mahsulot uzunligi,sm
Makaronlar	To'g'ri yoki to'lqinsimon qirqimli trubka	Kaltasi-15-20 Uzuni-20 dan kam emas
Rojkilar	To'g'ri qirqimli bukilgan yoki to'g'ri trubka	Ustki egri bo'yicha 1.5-4 Xavaskorga oid 3-10
Perya	Qiyishiq qirqimli trubka	O'tkir burchakdan o'tmasigacha 3-10
Makaron parchalari	Deformatsiyalangan makaronlar Makaron qirqinlilari va siniqlari	5-13.5

Ipsimon mahsulotlar (vermeshel) (ham har xal keshmalar shakliga ega bo'lishi mumkin. Kesim o'lchami (mm) bo'yicha vermeshel quyidagi ko'rinishlarga bo'linadi: pautinka (0.8 dan ko'p emas), ingichka (0.9-1.2), Oddiy (-1.5), xavaskorlarga oid.

Uzunligiga bog'liq holda vermeshelni kalta kesilgan holda chiqariladi, uning uzunligi 20sm dan kam emas.

Chet elda ishlab chiqarilgan uzun vermishellarni asosan spaghetti deb aytildi.

Tasmasimon mahsulotlarni lapsha o‘lchamlari va shakliga ko‘ra har xil ko‘rinishda va har xil nomi bilan chiqariladi: silliq yoki qirrali sirtli, to‘g‘ri, arrasimon, to‘qqiqsimon va shunga o‘xshash chetlar bilan. Lapshaning eni 3 dan 10mm gacha bo‘lishi kerak qalnligi esa 2 mm dan oshmasligi kerak. Uzunligi bo‘yicha lapshpni Xaim vermishelga o‘xshab klassifikatsiyalanadi.

Har xil shaklli mahsulotlarni presslash va shtamplash bilan tayyorlanadi. Shaklli mahsulotlarni har xil formada va o‘lchamda chiqarish mumkin, lekin mahsulotni istalgan qismini sindirilganda, qalnligi presslangan mahsulotlar uchun 3,0mm dan oshmasligi kerak va shtamplangan mahsulotlar uchun 1.5mm dan oshmasligi kerak.

Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida asosan un suv hamda turli xil boyituvchi qo‘shimchalarni qo‘llaniladi. Makaron mahsulotlari yormacha va yarim yormachadan iborat bo‘lgan makaron unidan ishlab chiqariladi, u qattiq bug‘doy va yuqori shaffoflikka ega bo‘lgan yumshoq bug‘doylardan ishlab chiqariladi. Qattiq bug‘doy yuqori unum bilan makaron uni ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Qattiq bug‘doy yuqori shaffofligi bilan tavsiyalanadi, u yuqori unum bilan makaron uni ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Qattiq bug‘doy donida oqsil miqdori ko‘p, kleykovina sifati yaxshi va sariq rang beruvchi pigmentning konsentratsiyasi yuqori bo‘ladi. Makaron ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan unga texnologik hususiyati bo‘yicha mahsus talablar qo‘yiladi. Makaron uni non ishlab chiqariladigan undan farq qilib, yormasimon strukturaga, yuqori oqsil miqdoriga va yaxshi sifatli kleykovinaga ega bo‘lishi kerak. Makaron unini yana bir jihatni uni qayta ishslash jarayonida rangi to‘qarib qolmasligi kerak.

Makaron unining rangi, ta’mi, hidi va aralashmalar mavjudligi organoleptik usulda aniqlanadi. Unning fizik-kimyoviy hususiyatlariga namlik, kuldorlik, un zarrachalarining yirikligi, kleykovina miqdori va sifati, zararli aralashmalar miqdori, zararkunandalar bilan zararlanganligi va boshqalar kiradi.

Makaron unining ta’mi, hidi oddiy unga xos, begona ta’m va hidlarsiz bo‘lishi kerak. Un zarrachalarining yirikligi un navini aniqlovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Zarrachalarning o‘lchami 60-100 mkm bo‘lgan nonvoylik uni va o‘lchami 250-350mkm bo‘lgan qattiq bug‘doydan olingan makaron uni makaron xamirini tayyorlash uchun juda yaxshi unlar hisoblanadi. Bu kunlarda kleykovina miqdori 33-35% dan kam bo‘lmasligi kerak. Makaron xamirini tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan suvga huddi non xamirini qorishda ishlatiladigan suv kabi talablar qo‘yiladi. Makaron xamirini tayyorlashda asosiy xom ashylar bo‘lgan un va suvdan tashqari turli qo‘shimchalar qo‘shiladi:

-oyituvchi, oqsil qiymatini oshiruvchi qo‘shimchalar – yangi tuxum, tuxum mahsulotlari (melanj, tuxum, kukuni, tuxum sarig‘ini quritilgani), bug‘doy unini kleykovinasi, kazsin, sut va sut kukuni;

-ta’m va hushbuyluk beruvchi qo‘shimchalar – meva, sabzavotlarning sharbatlari va pastlari hamda vanilin, shafran va boshqalar;

-biologik aktiv moddalar – vitamin preparati.

Makaron mahsulotlari ishlab chiqarishda kechadigan asosiy bosqichlarning qisqacha tavsifi.

Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: xom ashyonи tayyorlash, xamir tayyorlash, xom mahsulotlarni bo‘lish, quritish, quritilgan mahsulotlarni sovutish, tayyor mahsulot yaroqli, yaroqsizini ajratish va upakovka qilish.

Xom ashyonи tayyorlash unni elash metallomagnit chiqindilardan tozalash, qizdirish (unning temperaturasi 10 gradusdan past bo‘lmasligi kerak), fabrika laboratoriyasining ko‘rsatmalariga mos holda turli xil un partiyalarini aralashtirishdan iborat.

Xamir qorish uchun mo‘ljallangan suvni issiklikni almashtiruvchi apparatlarda qizdiriladi, so‘ng retsepturada ko‘rsatilgan temperaturagacha vodoprovod soviq suvi bilan aralashtiriladi.

Qo‘shimcha mahsulotlarni tayyorlash uchun ularni xamir qorish uchun mo‘ljallangan suvda aralashtiriladi. Tovuq tuxumlarini ishlatishdan oldin yuviladi, melanjni muzlatiladi.

Makaron xamirini tayyorlash. Xamir tayyorlash jarayoni ingrediyyentlarni (suv, un va qo‘shimcha mahsulotlar) dozalash va xamir qorishdan iborat.

Ingrediyyentlarni dozatorlar yordamida kiritiladi. Dozatorlar un va qo‘shimchalar eritilgan suvli aralashmani qorish qozoniga taxminan 3:1 nisbatda to‘xtovsiz berib turadi. Qorish qozonida un va suvning intensiv aralashuvi boradi, namlanish va un qismlarining shishish jarayoni sodir bo‘ladi, bu esa shartli ravishda makaron xamirini qorish deb ataladi. Makaron xamiri qorib bo‘linganda non va biskvit xamirlaridan farqli ravishda ko‘pgina namlangan (tarqoq) birlashmagan guvalachalardan va ushoqlardan iborat.

Xamirni presslash. Presslashdan maqsad – qorilgan xamirni zichlashtirish, uni bir xildagi bog‘langan yopishqoq plastik xamir massasiga aylantirish, so‘ng unga aniq bir shakl (forma) berishdan iborat. Metall

matritsadagi teshiklar orqali bosib, xamirga shakl beriladi. Teshikning shakli presslanayotgan xom mahsulotning shaklini aniqlaydi.

Masalan, dumaloq kesimli teshiklardan vermishe olish mumkin, tug‘ri to‘rtburchak teshiklardan lapsha va hokazo.

Xom mahsulotlarni bo‘lish. Bu jarayon ikki bosqichdan iborat: matritsadan presslangan xom mahsulotlarni kerakli uzunlikda qirqish va ularni kerakli uzunlikda qirqish va ularni quritishga tayyorlangan maxsulot turiga va qo‘llanilayotgan quritish uskunasiga bog‘lik bo‘lib, xom mahsulotni turli transportyorlarga, ramkalarga yoki kassetalarga joylashtirishdan iborat, yoxud xom mahsulot uzun tolalarini qurituvchi xodachalar bastunlarga osishdan iborat bo‘ladi.

Presslangan mahsulotlarni kesishdan oldin yoki kesish jarayonida ularning sirti quritilgan bo‘lishi uchun havo bilan intensiv shishiriladi. Bu esa mahsulotlarning o‘zaro, pichoqqa va qurituvchi sirtga yopishib qolishini oldini oladi.

Mahsulotlarni quritish. Quritishdan maqsad – mahsulotlarning shaklini mustaxkamlash va ularda mikroorganizmlar rivojlanishini oldini olish. Bu texnologik jarayonning eng ko‘p vakt talab qiladigan va eng ma’suliyatl bosqichi hisoblanib, mahsulotlarning mustahkamligi birinchi navbatda mana shu bosqichning tug‘ri olib borilganiga bog‘liq.

Juda intensiv quritish quritilgan mahsulotlarda yoriqlar (darzlar) paydo bo‘lishiga olib keladi, juda sekin quritish esa, ayniqsa namlikni yo‘qotishning birinchi bosqichida mahsulotlarni ohib qolishiga va mog‘orlab qolishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtida makaron korxonalarida makaron mahsulotlarini konvektiv quritish, ya’ni mahulotlarni qizdirilgan havo bilan shishirishdan foydalanilmokda.

Quritilgan mahsulotlarni sovutish. Bu jarayon – quritgichdan chiqayotgan mahsulotlar yuqori temperaturasini upakovka qiluvchi bo‘lim havo temperaturasigacha tushirish uchun kerak bo‘ladi. Agar makaron mahsulotlarini sovutmasdan upakovka qilinsa, namlikning bug‘lanishi upakovkada davom etadi, bu esa upakovkalangan mahsulot massasining kamayishiga olib keladi, nam o‘tkazmaydigan upakovkalarda esa – uning ichki sirtida namlikning kondensatsiyalanishiga olib keladi.

Ko‘proq quritilgan mahsulotlarni mahsus bunker yoki kameralarda sekin sovutish afzal.

Sovutilgan mahsulotlardan yaroqsizini ajratiladi, bunda ularning sifatiga qo‘yiladigan talablarga javob bermaydigan mahsulotlarni olib tashlanadi, so‘ng mahsulotlarni upakovka qilinadi.

Upakovka qilish. Tayyor mahsulotlarni qo‘lda mayda taralarga (korobkachalar, paketlar) yoki qadoqlaydigan mashinalar bilan to‘kma holda yirik taralarga (korobkalar, yashiklar, ko‘p qavatli qg‘oz xaltalar) joylashtiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sistemasida qandolatchilik tarmog‘i o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Qandolat mahsulotlari kundalik ehtiyoj mahsulotlariga kirmasada, inson oziqlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular oziq-ovqatlarni to‘ldiruvchi hisoblanib, asosan insonni uglevodlarga bo‘lgan extiyojini qondiradi .

Qandolat mahsulotlari shirin ta’mi, xushbuyligi va chiroyli tashqi ko‘rinishi bilin tavsiflanadi. Hozirgi kunda qandolat mahsulotlarining xilma-xil turlari ishlab chiqarilib , ulrning nomlari bir necha mingga yetgan.

Qandolatchilik mahsulotlari ikki guruhga: qandli va unni qandolat mahsulotlariga bo‘linadi . Qandli qandolat mahsulotlariga quyidagilar kiradi: karamel, konfetlar, shokoladli mahsulotlar, kakao kukuni, iris, holva, marmelad va boshqa shirinliklar.

Unni qandolat mahsulotlarini tayerlash retsepturasi bir-biridan farq qiladi, ulardan quydagilarni ko‘rib chiqamiz :

Pechenyeye turlari va ularning tayerlash .

Unli qandolat mahsulotlariga pechenye, pryaniklar, vafli, pirojniy, tort, kekslar kiradi. Bu mahsulotlarning 700ga yaqin xili mavjud .

Pechenyelar turli shaklli, yuqori kalloriyalı, namligi kamligi, shakar va yog‘ qo‘shilganligi bilan ta’riflanadi. Uch xil pechenye ishlab chiqarilgan:

-shakarli;

-xamiri chuo‘ib tayerlangan;

-oshirma shakarli pechenyelar yoyilib xamirdan tayerlanadi .

-g‘ovakli, nozikligi, suvda yaxshi bo‘kishi bilan ta’riflanadi.

Tasmali pechenye qattiq, elastik xamirdan tayyorlanadi, g'ovakli, nozikligi kam, suvda bo'kish xam oz. Xamir Z shakli kurakchalari bo'lgan universal mashinalarda qoriladi.

Shakarli pechenyelarni qorish davomi 25 minut xamirni cho'zib tayyorlangan pechenyelarda 30-60 minut. Pechennlar tonnelli, lentali pechlarda pishiriladi.

Pishish davomi 4-5 minut pech temperaturasi 240-270 gradus.

Qadoqlangan pechenyelar saqlash muddati – 3 oy.

Vafli ishlab chiqarish.

Vafli – yupqa, yengil g'ovaksamon qatlamlardan iborat mahsulot.

Vafli tarkibida 21-27% shakar, 6,9 –91,8% yog‘ mavjud bo‘lib, ozuqa qimmati 1431-2218 kJ ni tashkil etadi. Vafli tayyorlash texnologik jarayoni quyidagicha:

1. Vafli listlarini tayyorlash
2. Nachinkani tayyorlash.

Vafli listlari uchun xom ashyo: un (kleykovinkasi 32%), shakar, yog‘, emalsiya, aromatik qo’shimchalar hisoblanadi. Xamir to’xtovsiz mexanizatsiyalashgan liniyalarda, ko‘rishtiruvchi, ko‘pirtiruvchi, mashinalarda tayyolanadi. Avval tuxum, o’simlik yog‘i, tuz, ximiyaviy yumshatgichlar, fosfartilar qo’shilib suvli emulsiya tayyoranadi ko‘pirtirilgan holda suyuq atalasimon xamir tayyorlanadi. Tayyor xamir 2 metall plitadan iborat elektr vafli pishuruvchi jixozda pishiriladi. Xamir listlardagi riflili teshiklarga yupqa yoyiladi va 2 plita orasidan 150-170 gradus xhroratda 2-4 minut daomida pishiriladi. Tayyor listlar alohida 30-35 minut davomida sovitiladi so’ngra nachinka surtiladi. Nachinkalari – moyli, mevali, prolamini va boshqalar.

Ko‘proq yog‘li nachinka ishlataladi. Yog‘li nachinka-qandolat yog‘i, vafli ushoqlari, qand upasi, organik kislotalar, oziq-ovqat esensiysi fosfotitlardan ko‘pirtirilib tayyorlanadi.

Nachinka surtilgan vafli listlari 5-6 soatga nachinka shimilishi uchun qoldiriladi. So‘ng 3 ta listdan qilib qalinligi 30 mmdan taxlab kesuvchi mashinalarda kesiladi.

Mahsulot temperatrasi 18 gradus havoninig nisbiy namligi 65-70% bo‘lgan toza, quruq omborlarda stellajlarda shtabel qilib balandligi 2m gacha taxlanib saqlanadi. Moyli nachinkli vaflilar 2 oy, nachinkali vaflilar 1oy, nachinkasiz vaflilar 3 oy saqlanadi. Vafli sifatiga qo‘yiladigan talablar: o‘lchamlari-nachinkali to‘g‘ri burchakli vaflilar uchun 140mm gacha, eni 70 mm, nachinkasiz vaflilar qalinligi 10mm gacha. Rangi - och sariq, jigar ranggacha, ta’mi, xidi o‘ziga hos, eski yog‘, ta’mi bo‘lishi kekrak emas. Tashqi ko‘rinishi – yuzidagi rasmi aniq bo‘lishi kerak, nachinka vafli chetidan oqib ketmasligi kerak.

Namligi nachinkali vaflilarda -0,5-13,3%.

Nachinkasiz vafliniki –2,5-3,9%.

Pryaniklar ishlab chikarish.

Pryaniklar unli qandolat mahsulotlaridir.

Tayyorlash usuliga ko‘ra 2 turga bo‘linadi :

Qaynatma pryaniklar;

Sovuq usulda tayyorlangan pryaniklar.

Har bir usulda tayyorlangan pryaniklar nachinkasiz va nachinkali tayyorlanadi. Ustiga shakar siropi, shokalad glazuri, yong‘ok urug‘i sepiladi .

Pryaniklar ishlab chiqarish asosiy bosqichlari:

- 1.Xamir qorish;
- 2.Xamirga shakl berish;
- 3.Pishirish;
- 4.Bezaj;
- 5.Quritish;
- 6.Qadoqlash.

Qaynatma pryaniklar uchun xamir uch fazada tayyorlanadi .

1.Unni pishirib qaynatma tayyorlash.

2.Qaynatmani sovitish.

3.Qaynatma bilan retseturadagi qolgan xom ashynoni qorish .

Qaynatma tayyorlash uchun avval tarkibida shakar bo‘lgan xom ashydadan sirop tayyorlanadi. Buning uchun shakar, patochka, asal qaynatish uchun qozonga solinib, namligi 19-20 % bo‘lgunga qadar suv qo’shib haroroati 70-75 gradusgacha isitiladi. Hosil bo‘lgan sirop bug‘ pardasi, kurakchalari bo‘lgan qoruvchi mashinaga solinadi va xarorati 68 gradusgacha sovigach, un solinadi. 10-15 minut so‘ng qaynatma tayyor

bo‘ladi. Qaynatma 28-30 gradusgachasovugach, qoruvchi mashinaga qolgan xom ashya solinadi va 30-60 minut davomida qorishtiriladi . Tayyor xamir namligi 20-22 % bo‘lishi kerak.

Pryanik xamiriga shakl berish asaosan FPP mashinasida qoliplanadi yoki kulda bajariladi, xamda pishirish uchun ko‘prok tonelli gaz pechlar ishlataladi.

Pishirish davomi qaynatma pryaniklar uchun 210-220 gradus haroratda 7-12 min, sovuq usulda tayyorlangan pryaniklar uchun 200-210 gradus haroratda 7-12 min. Shakar siropi pishirish qozonda suv bilan 1:0,4 nisbatda 110-114 gradus haroratda pishirib tayyorlanadi va 85-90 gradus haroratgacha aylanadigan qozonda 1-2 minut davomida aralashtiriladi. 130-150 gradus haroratda quritish qayerasi 90 sekund qurilib, konveyerli shkafga o‘zi sovitish uchun 5-10 soat qo‘yiladi .

Tort va pirojniylar ishlab chikarish.

Tort va pirojniylar tarkibida yog‘, shakar, tuxum, turli xushbo‘y ta’m beruvchilar qo‘shilib, bezab tayerlanadigan yuqori kaloriyal qandolat mahsulotlaridir.

Pirojniylar turli shaklda donabay kilib, tortlar esa katta o‘lchamda bezatib tayyorlanadi. Pishirilgan yarim tayyor fabrikatlar turiga ko‘ra pirojniylar qkuyidagi guruxlarga bo‘linadi: biskvitli, qaynatmali, uvoqlab tayyorlanadigan biskvit xamirli, yarim fabrikatlar, qaynatma yarim fabrikatlar, ko‘pchitilgan oqsilli, yong‘okli, vaflili;

Tortlar esa: bodom-yong‘oqli, oqsilli, vaflili, ushoqli va bir necha xil yarim fabrikatlardan ibotat.

Bezovchi yarim fabrikatlar – kremlar turlari quydagilar:

Saryog‘; oqsilli – ko‘pchitilgan, qaynatma kremlar. Barcha pishirilgan fabrikatlar va kremlar tayyorlash texnologiyasi turlicha, masalan, biskvitni olib qarasak.

Biskvit xamiri ko‘pirtiruvcha mashinalarda tayyorlanadi. Buning uchun muzlatilgan melanj yoki tuxum shakar bilan 25-45 minut ko‘pirtirilib oxirida esensen qo‘shiladi, ko‘pirtirish vaqtini qisqartirish uchun 40C gacha issitish mumkin. Havoga to‘yinib mahsulot hajmi 2,5-3 marotaba ko‘payadi. So‘ng kraxmal uni qo‘shilib, 25-45 minut qorishtiriladi. Xamir namligi 36-38 %.

Ayrim korxonalarda yuqori bosimni mahsus qorishtiruvchi agregatlar ishlataladi (250-300 ayl/min.). Ko‘pirtirish 8-15 minut davom etadi. Tayyor xamir darrov dumaloq, to‘urt burchak shaklli yog‘langan qoliplarga solinadi va tezda pishirishga uzatiladi .

Yarim fabrikatlarning pishishi davomi 190-220C haroratda 40-65 minut tayyor mahsulot namligi 22-27%. Pishgan biskvitlar qolipdan olinib, 8 soat turadi va so‘ngra gorizontal yunalishda kesiladi. Bezovchi yarim fabrikatlar turli kremlar, masalan «sharrott» kremlar bilan bezatiladi .

Keks ishlab chiqarish.

Kekslar unli qandolat mahsuloti bo‘lib, ko‘p miqdorda yog‘, melanj, shakar qo‘shib, oshirma xamir qilib tayyorlanadi .

ayyorlanishiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

- kiyoviy yumshatgichlar bilan;
- xamirturush bilan tayyorlangan.

Kimyoviy yumshatgichlar bilan xamir 2 usulda tayyorlanadi. 1 usul qoruvchi mashinada saryog‘ 7-10 minut ko‘pirtiriladi (40C), so‘ng shakar, melanj qo‘shib 25-35 minut ko‘pirtiriladi, so‘ng qolgan xom ashya va oxirida un qo‘shib xamir koriladi. 2 usul- melanj, shakar bilan 30-40 minut ko‘pirtiriladi. Saryog‘ alohida mashinada ko‘pirtirilib, so‘ng xom ashya qo‘shib ko‘pirtiriladi .

Xamirturush bilan xamir oparali usulda tayyorlanadi. Oparaning bijg‘ish davomi 4-5 soat. Xamir bijg‘ish davomi 1,5-2 soat. Xamir namligi 32 %. Xamir qoliplarda 90-110 minut tindiriladi, ustiga tuxum surtib, yong‘oklar sepilib, pech kamerasida pishiriladi. Pishirish davomi xamir bo‘laklari og‘irligi, shakli, pech temperaturasiga bog‘lik.

Masalan: «Poytaxt» keksi 205-2015 C 25-30 minut, “Baxor” keksi 100g -185-210C -18-20 minut pishiriladi. Tayyor mahsulot 4-5 soat davomida sovitiladi, so‘ng qolipdan olinadi. Saqlash muddati 18C da, ximiyaviy yumshatgichlarda tayyorlangan kekslar uchun -7 kun, xamirturushda -2 kun.

Qandolat mahsulotlarini tayyorlashda ham asosiy va qo‘shimcha xom ashylolar ishlataladi. Bu xom ashylolarni holatiga qarab ayrimlari qayta ishlashga tayyorlanadi. Kandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy xom ashylolarga un, shakar, saryog‘, tuxum, kiradi, qo‘shimcha xom ashylolarga sut maxsulotlari, mevalar, rezavorlar, yong‘oklar, vino, essensiya xamirni yumshatuvchilar va boshqalar kiradi. Ishlab chiqarishga kelayotgan barcha xom ashylolar belgilangan standart talablariga va texnika shartlariga javob berishi kerak, buyoq moddalari esa sanitar koidalari talabiga javob berishi kerak. Bu bilan bir qatorda xom ashylolarni saqlashni tug‘ri tashkil etish zarur. Quruq xom ashylolar (un, shakar, kraxmal) saqlanadigan ombor

xonalarining xarorati 15C atrofida va havoning nisbiy namligi 60-65% atrofida ushlab turishi lozim. Tez buziladigan xom ashyolar 5S dan yuqori bo‘lman sharoitda saqlanishi kerak. Korxonaga muzlatilgan holda keltirilgan xom ashyolar minus haroratda saqlanadi. Aromatik moddalar, vino, kompotlarninig hidi boshqa mahsulotlarga o‘tib qolmasligi uchun ular alohda joylarda saqlanadi.

Unli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan qo‘shimcha xom ashyolarni ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Asal. Tabiiy asal yuqori oziqlik qimmatiga ega hushbo‘y, shirin ta’mli qiyomsimon mahsulotdir. Tabiiy asalni gul, shira va aralash turlari mavjud.

Gul nektarining 50% dan 90% gacha massasini suv tashkil qiladi. Nektarninig quruq moddalar saxaroza, glyukoza, fruktoza, dekstriklar, oshlovchi moddalar, vitaminlar (V1, V2, V6, RR va boshqalar), fermentlardan tashkil topgan. Nektarninig quruq moddalaridan 94 % ga yaqin qand, qolgan 6 % - boshqa moddalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

Asal tarkibidagi namlik 18-21% ga yetganda asalniing yetilishi tugaydi. Asal mumdan sentrifugalash, ayrim hollarda presslash orqali ajratib olinadi. Asalning zichligi uninig tarkibidagi suvniing miqdoriga bog‘liq, u 1410-1440 kg/m³ ni tashkil qilishi mumkin.

Asal sifatida quyidagi talablar qo‘yiladi : ta’mi shirin, yoqimli, begona ta’msiz, xushbo‘yligi tabiiy yoqimligi, konsistensiyasi qiyomsimon yoki kristallangan bo‘lishi mumkin. Asalning namlimgi 21 % dan oshmasligi; saxaroza miqdori esa 7 % dan oshmasligi; glyukoza va fruktoza miqdori esa 79 % dan kam bo‘imasligi lozim. Asalda mexanik aralashmalar va bijg‘ish belgilari bo‘lishi yo‘l qo‘yilmaydi.

Yangi va qayta ishlangan meva va rezavorlar. Meva va rezavorlar inson ozuqasida va sanoatda qayta ishlash uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega. Meva va rezavorlar S, R kabi vitaminlar va A provitamin manbai sifatida muhim ahamiyatga ega.

Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoaitda asaosan, yangi meva va rezavorlarning qayta ishlangan mahsulotlari qo‘llaniladi.

Yangi mevalar tuzilishiga ko‘ra urug‘li, danakli, rezavorlar, sitrus mevalar va boshqa guruxlarga bo‘linadi. Urug‘li mevalar po‘chokdan, meva mag‘zidan va urug‘lar joylashgan besh uyali urug‘ xonasidan iborat. Bu guruxga olma, nok, va bexi kiradi.

Danakli mevalarning sersuv mag‘izi ichida o‘zak urug‘i bor danak joylashgan. Danakli mevalarga olcha, gilos, olxo‘ri, o‘rik, shaftoli va qizil kabilar kiradi. Ularning katta miqdori quritish, pyure, sharbat, murabbo, jem tayyorlash uchun ishlatiladi.

Rezevorlar tuzilishiga qarab uch: urug‘lari mag‘zi ichida joylashgan xaqiqiy (uzum, qorag‘ot, privojnik, klyukva, brusnika, chernika), o‘sgan gulxonalaridan hosil bo‘lgan etli mevaga ega bo‘lgan yolg‘ol (zemlyanika va qulupnay) va qo‘shilib ketgan kichik mevalardan tashkil topgan murakkab (malini) guruxlarga bo‘linadi.

Sitrus mevalar – Bu guruxga limon, apelsin, mandarin, greyfutlar kiradi.

Sitruslarning mevalari po‘stlokdan, mag‘izdan, urugdan, meva bandidan va kosachadan iborat. Po‘stlogi qalin, zikh bo‘lib, meva umumiyligi massaning 25-34 % ni tashkil qiladi. Mevalarning po‘stlogida qariyb barcha efir moylari (1,2-2,5%), glyukozidlar va pektin moddalarini to‘langan. Sitrus mevalarning po‘stlogi qimmatli efir moylar va pektin olish uchun xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi. Bu danaklarning mag‘zi tilimlardan ibotat bo‘lib, yangi holda va pyure, pripas, sharbat va sukatlar tayyorlashda ishlatiladi. Meva va rezavorlar qandolatchilik sanoatida asaosan, konservalangan holda ishlatiladi. Bunda kimyoviy sterillash, quritish, muzlatish va boshqa konservalash usullaridan foydalaniladi.

Yana quritilgan meva va rezavorlar xam keng qo‘llaniladi. Quritishda mahsulot tarkibidagi namlik miqdori mikroorganizmlar ko‘paya olmaydigan miqdorlarga (16020%) yetkaziladi. Namlikni kamaytirish hisobiga meva va rezavorlarda quruq moddalar konsentratsiyasi oshadi, ularning eritmalarini esa mikroorganizmlarga halokatlari ta’sir ko‘rsatuvchi osmatik bosimiga ega bo‘ladi.

Quritilgan olma kukuni, kishmish, mag‘iz, barkak bulka maxsulotlari tayyorlashda ishlatiladi. Meva va rezavorlar standart yoki texnik shartlar talabiga ko‘ra sifatini baholashda, ularning rangi, ta’mi, hidi, shakli, namligi, zararlangan namunalar miqdori, ushoqlarning, kichik zarrachalar, aralashmalarning mavjudligiga e’tibor beriladi.

Masalan, quritilgan urug‘li uzumdan tayyorlangan mag‘izni olib qaraymiz.

Mayiz. Mayiz kekslar, bulochkalar, ruletlarva boshqa maxsulotlar tayyorlashda ishlatiladi. Maxsulotga o‘ziga xos ta’m va xushbo‘y xid bag‘ishlaydi. Mayiz ishlatishdan oldin, xos cho‘plar va boshqa aralashmalardan yaxshilab tozalanadi.

Kakao dukkanlari va yong‘oqlar. Kakao dukkanligi-tropik mamlakatlarda (Amerika, Xind va Tinch okeani orollarida) yetishtiriladigan kakao daraxtining urug‘idan maxsus ishlov berish va quritish natijasida olinadi.

Yetishtirilgan joyiga qarab kakao dukkanlari uch guruxga bo‘linadi: Afrika va osiyo kakao dukkanlari. Kakao dukkanlari sifat belgilari bo‘yicha ikki guruxga bulinadi: oliv sifatli (navli) va o‘rta sifatli (ite‘molbob). Toza kakao dukkanlari tarkibi yog‘ 9% kakao yog‘i-50% dan ortiq), teobremin -0,8-1,5% ni kofein, uglevodlar (kraxmal-5-9%, qand mikdori -1-1,6%) oksillar -10,3-12,5%, ishlovchi va buyovchi moddalar -4-7% ni, mineral moddalar miqdori -24-3,5% ni, organik kislotalar -2% ni, hushbo‘y moddalar, mineral tuzlar kam, vitaminlar, turli fermentlar va boshqalardan tashkil topgan.

Yong‘oklar tarkibida 70% gacha yog‘, 15-25% oqsil, 2-3% mineral moddalar, A, S vitaminlari va V guruhidagi vitaminlar mavjud bo‘ladi. Energetik qimmati jihatidan ular barcha ma’lum bo‘lgan o‘simlik mahsulotlaridan yuqori turadi. Qandolatchilik sanoatida yong‘oqlar yuqori sifatli konfet va shokalad maxsulotlarini, pirojki va tortlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan qimmatli xom ashyo hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Makaron maxsulotlarini ishlab chikaradigan sexlar birinchi bor kayerda kuritilgan.
2. Makaron maxsulotlarining turlari.
3. Makaron maxsulotlari ishlab chikarishda kullaniladigan xom ashylar tavsifi.
4. Makaron maxsulotlari ishlab chikarishdagi asosiy texnologik jarayonlarni sanab uting.
5. Kandolatchilik tarmogining asosiy vazifasi.
6. Kandolatchilik maxsulotlarining turlari.
7. Unli kandolat maxsulotlarining assortimenti.
8. Unli kandolat maxsulotlarini ishlab chikarishda kullaniladigan xom ashylar tavsifi.

«Tayanch» so‘z va iboralar.

Makaronli maxsulotlar, Quritish, Xamir tayyorlash, Xom ashylar, Dozatorlar Assortiment Presslash Vermishel Bulish Lapsha Kandolatchilik. Keks Assortiment Xamirturush Pechenye Kimyoviy yumshatgichvafli maxsulotlari Xamir tayyorlash Pryaniklar Shakl berish Tort va pirojniklar Kadoklash

13-MA’RUZA.BIJG‘ISH MAXSULOTLARI VA SHAROBCHILIK TEXNOLOGIYASI.

Reja: Bijg‘ish sanoati korxonalarini tavsifi va ularning asosiy va ikkilamchi maxsulotlari; Solod-fermentlari manbai. Arpani qayta ishlash; Pivo ichimligi turlari va sifati. Pivo ishlab-chiqarish sxemasi.

Hamma bijg‘ish sanoati korxonalarining tavsifi oxirgi mahsulotga qarab farqlanadi, shuningdek qayta ishlanayotgan xom ashylar va ayniqsa mikroorganizm turlariga qarab ularning ferment sistemasiga va kimyoviy qayta ishlanishiga bog‘liq. Hamma farqlar va o‘zgarishlar texnologik jarayonlarning asosini tashkil etadi.

Uzum xom ashyo bo‘lib, yangi so‘ligan va quritilgan holda ishlatiladi. Uzumdan alkogolsiz mahsulotlar ishlab chiqiladi sharbat, konsentratlar va alkogol mahsulotlar ishlab chiqiladi sharoblar (xo‘rraki xushbo‘yli, quvvatlangan, jilvali) spirt, konyak (brendi) aroq. Uzum sharoblarni sharbatlarni spirtli bijg‘ish yo‘li bilan uzumdan olinadi. Bijg‘ish sanoatini ayniqsa spirt ishlab chiqarish korxonalarining xom ashyo va materiallari juda kengdir. Yaqin kunlargacha spirtni faqat o‘simlik oziq – ovqat xom ashysidan kartoshka, lavlagi don ekinlari va qand lavlagi chiqindisi bo‘lgan melassadan ishlab chiqilgan. Xozirgi kunga kelib, ko‘philik oziq ovqat xom ashysini nooziqaviy bo‘lgan (yog‘ ochsozlik sulfit-sellyuloza ishlab chiqish sanoatini chiqindilari) xom ashylari egallamoqda. Tarkibida etilen gazlari bor birikmalardan sintetik sun’iy spirt ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Quyidagi asosiy bo‘lgan xom ashylarga tavsif beramiz:

Qand lavlagi – shakar olish uchun ekiladigan eng ahamiyatlari texnika ekini. Lavlagining ildizmevasi 15-20% gacha saxaroza moddasiga ega bo‘lib, oq kristallsimon shakar olish uchun xom ashyodir. SNG davlatlarida lavlagi ekiladigan maydonlar juda katta bo‘lib ular asosan Ukraina Maldoviya Rossiyaning markaziy qoratuproq zonasiga joylashgan. Qozog‘iston Qirg‘iziston, Gruziyada ham qand lavlagini zavodda qayta ishlaganda melassa degan yarim tayyor mahsulot hamda chiqit sifatida jom olinadi. Melassadan spirt olishda foydalilanadi.

Kartofel - kartoshka ituzumdoshlari oilasiga mansub bo‘lib ekiladigan bir yillik o‘simlik. Vatani – Janubiy Amerika. Kartoshka tugunagi eng muhim oziq - ovqat mahsuloti bo‘lib nonbop dondan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Tugunagidan sanoatda kraxmal spirt, patoka olinadi.

Bug‘doy- boshqodoshlar oilasiga mansub o‘simliklar turkumi, eng muhim oziq- ovqat o‘simligi. Bug‘doy donidan, kraxmal spirt va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Makkajo‘xori- boshqodoshlar oilasiga mansub, chetdan changlanuvchi bir yillik o‘simlik. Donda 60-65% kraxmal bor. Undan spirt kraxmal va yorma tayyorlanadi.

Bijg‘ish sanoatini umumiy sxemasi

Xom ashyo → bijg‘ishga tayyorlash → (suslo) bijg‘ish → (bijg‘ish suslosi) tayyor mahsulotni ajratish → mikroorganizmlarning ishlov berilishi → (mikroorganizmlar).

Hamma bijg‘ish sanoatidagi jarayonlar mikroorganizmlarning xayotiy faoliyatiga asoslangan, bijg‘ish muhitda modda almashinuvi mahsulotlari yig‘ilish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan.

Bijg‘ish sanoatining xar yo‘nalishini texnologik sxemasi shunday tuzilganki olinadigan oxirgi mahsulotni sifati va chiqimi yuqori darajada bo‘lishi kerak. Bijg‘ish sanoatidagi har bir yo‘nalishidagi umumiy jarayonlar quyidagilardir: xom ashyni bijg‘ishga tayyorlash, mikroorganizmlarga ishlov berish va bijg‘ish, lekin har bir bijg‘ish sanoatidagi bu jarayonlar har xil bajariladi. Qand moddasi bor xom ashyni tayyorlashda, masalan: spirt ishlab chiqarishdagi melassani bijg‘ishga tayyorlashda unga ishlov berish zararli mikroflora ta’sirini susaytirish uchun antiseptik bilan va suv bilan yuviladi. Limon kislotasi ishlab chiqarishda korxonalar melassaga suv qo‘shiladi, qaynatiladi sterilizatsiya qilib kerakli oziqaviy moddalar qo‘shiladi. Tarkibida kraxmal moddasi bor xom ashyni tayyorlash murakkab jarayonlarga kiradi. Bunday xom ashyni tayyorlashda kraxmalni qandlashtirish solod yoki zamburug‘ achitqilar yordamida bajariladi. Bijg‘ish uchun tayyorlangan eritma suslo deyiladi. Spirt va pivo ishlab chiqarish sanoatida bijg‘ish jarayonini ketishi (hosil bo‘lishi) uchun xamirturush, sut kislotasi ishab chiqarishda nordon sut bakteriyalari, limon kislotasi ishlab chiqarishda zamburug‘ bakteriyalari ishlatiladi.

Pivo ishlab chiqarish sanoatining asosiy xom ashysosi arpa donidir. Pivoni ba’zi bir turlarida (sort) arpani guruch (sholi) yoki boshqa boshoqli ekinlar bilan almashtiriladi. Shuningdek qand bilan ham ko‘pkina drojji ishlab chiqarish zavodlari melassani qayta ishlaydilar. Ba’zi bir drojji ishlab chiqarish zavodlari xamirturushni don ekinlaridan ishlab chiqaradilar. Oxirgi vaqtida drojji ishlab chiqarish uchun nooziqaviy xom ashylardan (yog‘ochsozlik va selluloza) foydalananayaptilar.

Kimyoviy tarkibiga ko‘ra bijg‘ish sanoatining xom ashylar quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi. Pivo ishlab chiqarishda «xmel» xom ashysosi ham ishlatiladi. Bijg‘ish sanoatining xom ashysosi bo‘lib, suv qo‘llaniladi.

Bijg‘ish sanoatining xom ashylarini klassifikatsiyasi

Gurux	Xom ashyo	Bijg‘ish maxsulotlarining o‘rtacha tarkibi %
Tarkibida qand moddasi bor xom ashylar	qand lavlagi melassa	17-18 45-50
Tarkibida kraxmal moddasi bor xom ashylar	Kartoshka don ekinlari	17-18 47-50
Tarkibida selluloza moddasi bor xom ashylar	Yog‘ochsozlik korxonalarining chiqindilari	---

Undirilgan don bu sun’iy sharoitda undirib quritilgan dondir. Donni undirish jarayonida amlolitik, proteolilik va boshqa fermentlar hosil bo‘ladi. Bu fermentlar tarkibida kraxmali bor xom ashysoda etil spirti, pivo va konli kvas ishlab chiqarishda ularni shira tortish, don tarkibidagi oqsil va boshqa muddalarni parchalash uchun kerak. Undirilgan donni turli xil donli o‘simliklardan olish mumkin. Ishlab chiqarilgan maxsulotning turiga qarab undirilgan don pivo ishlab chiqarishda faqat arpadan olingan undirilgan don, spirt ishlab chiqarishda esa arpa, suli va tariq don tayyorlangan undirilgan donlarning aralashmasidan, nonli kvas ishlab chiqarishda javdari bug‘doy va arpadan tayyorlangan undirilgan don ishlatiladi. Spirt ishlab chiqarish korxonalarida undirilgan don quritilmasdan unib chiqan davrda (zeleniy solod) ishlab chiqarish jarayoniga yuboriladi. Pivo ishlab chiqarish korxonalarida esa undirilgan arpa quruq holatda ishlatiladi. Bunda unib chiqqan arpa maxsus quritish uskunalarida quritilib, nishlardan tozalanib, ma’lum muddat saqlangach ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Undirilgan arpani quritish jarayonida rang beruvchi va hid beruvchi muddalar hosil bo‘ladi. quritilgan undirilgan arpani uzoq muddat saqlash mumkin. Nonli kvas ishlab chiqarishda quruq

undirilgan javdari bug'doy va fermentlanmagan (diastticheskiy) undirilgan don ishlatiladi. Fermentlangan undirilgan don tarkibida amilolitik fermentlar deyarli yo'q, sababi fermentatsiyalash jarayonida ular parchalanib (razrushayetsya) ketadi. Nonli – kvas ishlab chiqarishda javdari bug'doy uni bilan fermentlangan undirilgan don kvas sharbatini asosiy xom ashysi hisoblanadi, fermentlanmagan undirilgan javdari bug'doy va och rangli undirilgan arpa esa ferment manbai sifatida ishlatiladi.

Undirilgan don ishlab chiqarish uchun har xil xas cho'plardan tozalanib, bo'ktiriladi va undiriladi. Undirish jarayonida hosil bo'lган mahsulot ko'k undirilgan don (zelyoniy solod) deyiladi. Spirit ishlab chiqarish sanoatida ko'k undirilgan don maydalanib suv bilan aralashtiriladi. Hosil bo'lган aralashmani undirilgan don suti (solodovoy moloko) deyiladi va kraxmalni shira tortirish uchun qo'llaniladi.

Pivo ishlab chiqarish sanoatida esa ko'k undirilgan arpa maxsus qurilish uskunalarida qurilib, nishlardan tozalanadi va ishlab chiqarishda ishlatiladi. Don qabul qilish punktlarida va korxonalarida don qabul qilingandan so'ng xar xil chiqindilardan tozalanadi.

Don qabul qilish punktlarida chiqindilar ikki xil bo'ladi:

1. Donli chiqindi: bunga yarimta va zarrarlangan donlar, o'sib chiqgan va mog'orlagan va boshqalar sifati past donlar kiradi.

2. Begona chiqindilar: qum, chang, tuproq, metal parchalari va boshqa yovvoyi o'tlarning urug'lari kiradi.

Yaxshi tozalanmagan don undirilgan donning sifatini pasaytiradi va uskunani buzulishiga olib keladi.

Quruq undirilgan arpa ishlab chiqarish uchun quyidagi: donni bo'ktirish, uni undirish va quritish jarayonlari olib boriladi. Donni undirish uchun ketma – ket undirish qatorlaridan tashqari barabanli tokli ya'ni supasimon o'stirgichlarda o'stirish mumkin.

Pivo- bu kuchsiz alkogol ichimligi bo'lib don ekinlaridan (asosan arpa solodi) va «xmel» dan pivo drojjalari yordamida bijg'ish orqali tayyorlanadi. Don xom ashylari qisman undirilmagan don urug'lari va tarkibida qand moddalari bor maxsulotlar bilan birgalikda qo'shiladi. Pivoni qaysi navini tayyorlashga qarab arpa va yog'sizlantirilgan makkajo'xorini, guruch, guruch sechkasi, qand, glyukoza, va boshqa xom ashylar qo'llaniladi. Pivoni turli navlariga qarab, tashqi tavsifi beruvchi hususiyatlari bu rangdir. Bu hususiyati bo'yicha 2 ta asosiy guruxlarga bo'linadi: och va to'q ranglar. Och rangli pivolarni rangi och sariq va to'q rangli pivolarniki esa to'q jigarrang qizg'ish tusli bo'ladi. Pivoni hamma navlar tarkibida alkogol bo'ladi. Pivo ishlab chiqish texnologiyasi 5 bosqichdan iborat.

1. arpa donidan solod ishlab chiqish;
2. soloddan pivo suslosini olish, xmel va nesolojenniy materiallar olish.
3. pivo suslosini maxsus pivo drojjalari yordamida bijg'itish.
4. pivoni pishitish (sozrevaniya voderjki)
5. filtratsiya va pivoni jo'natish.

Pivo – bu o'ynoqi (igristoy) ichimligi xmel aromatli va yoqimli.

Pivo ishlab chiqish qo'llaniladigan xom ashylar bug'doy, sholi, makkajo'xori. Bular undirilmagan o'stirilmagan donlar. Bug'doy va makkajo'xori «solod» tayyorlanadi. Bug'doy 2 xil turi bo'ladi yumshoq va qattiq. Pivo ishlab chiqarish yumshoq bug'doyni pleykovinasi past bo'lган bug'doydan foydalanish ma'qulroq. Sholi, makkajo'xori va don pivo ishlab chiqarishda o'stirilmasdan undirilmasdan ishlatiladi. Quyidagi jadvalda shu donlarning o'rtacha kimyoviy tarkibi keltirilgan

Boshoqli donlar	Namligi	Oqsil	moy	Kraxmal pentozalar va	Klechatka	kul
Oqlangan sholi va gurch sechkasi	13,1	7,85	0,65	76-73	0,63	1,01
Makkajo'xori	13	9,80	4,60	63-57	2,4	1,80
Makkajo'xori unini yog'sizlangani	11-14	8-9	0,5-1,5	-	-	1,5
Makkajo'xori parraklari	10	9	1,2	-	-	0,3

Xmel (qulmoq)- tutdoshlar oilasiga mansub, chirmashib o'sadigan poyasi qishda qurib qoladigan 2 yillik ko'p yillik o'simlik. Urug'lanmagan onalik to'pgullari kuchalasimon yumaloq g'uddalar hosil qilib, ular pivo pishirishda (pivoni xushbo'y va xushta'm qilish uchun, non pishirishda achitqi sifatida) shuningdek


medetsinada (dori sifatida) ishlataladi. U ko‘pincha devorlarni, balkon, shiypon holda ayvonlar oldini pechakgul kabi to‘sish uchun ekiladi.

Suslo- arpa solodi, undirilmagan o‘stirilmagan don ekinlari arpa va makkajo‘xori unlari, guruch sechkasi va xmel yordamida pivo suslosini tayyorlanadi.

Pivo suslosini olish texnologiyasi quyidagi jarayonlardan iborat.

1. arpa solodini tayyorlash va maydalash
2. solodni suv bilan yuvish.

Solod tayyorlash jarayonida. Tayyor bo‘lgan kraxmal xom ashynosini eruvchi eritma holiga o‘tishi bu kraxmal zonachalarini qobiq xujayralarini (kletki) buzilishi demakdir. Suv molekulalarini kraxmal shimib, burtsh (nabuxaniye) shimish jarayoni kechadi. Xajmi oshgan kraxmal kleystr holatiga o‘tadi. Shunda amiloza va eruvchi kristaloidlar eradi.



Donlarni pishirishga va qandlashtirishga tayyorlash:

Tortilgan don shnek orqali pishirishdan oldin turadigan bunkerlarga olinib, u yerda 1:3,5 nisbatda suv bilan aralashtirib, 90^0S gacha par bilan pishiriladi va razvarnik idishlariga sig‘imga jo‘natiladi. Bu yerda yuqori bosim va $135-150^0S$ xaroratda 90-120 min. oralig‘ida pishiriladi. (boshoqni turiga bog‘liq – vaqt). Maydalangan pishgan don kuchli atmosfera bosimi ostida “osaxarivatel” ga jo‘natiladi va $60-610^0S$ xaroratgacha sovutiladi xamda “solod suti” bilan ishlov beriladi. (7-8 % massasiga nisbatan) 15 – 20 min. ichida keyin nasos bilan almashinish (teploobmennix) jo‘natilib $20-25^0S$ gacha sovutiladi. Bu yerdan qandlashgan massa bijg‘ish apparatlariga jo‘natiladi. Xuddi shu apparatlarga drojjilar xam (6 – 8 % massasiga nisbatan) yuboriladi. Bu drojjilar (ekish droj) steril kolbalarda ekib, steril suslolarga 18 soat keyin qo‘sib yana 18 soat davomida madaniylashtiriladi, so‘ng drojjankalar orqali bijg‘ish apparatiga yuboriladi. Bijg‘ish jarayoni 3 bosqichdan iborat

bijg‘ish (20 – 24 s)

asosiy bijg‘ish (24 – 30 s)

oxirgi bijg‘ish (18 – 24 s)

1.Bijg‘ish jarayonida drojjilar ko‘payadi, biomassa yig‘iladi, muhitga moslashadi, haroratni 23^0S ga ko‘taradi va 20 % suslo uglevodlarni bijg‘itadi.

2.Asosiy bijg‘ishda 60 – 65 % uglevod suslosi bijg‘yidi va brajnada spirtni asosiy miqdori yig‘iladi va “tepl obmennik” (isitgich sig‘imga) bilan reaksiya issiqligi ya’ni glyukozani spirtga aylangandagi olinadi. Xarorat 30^0S ushlanib turadi.

3.Oxirgi bijg‘ish 15 – 20 % boshlanadi. Uglevodlar bijg‘yidi va yetilgan brajka (zrelaya)da spirt miqdori 8 – 9 % ga yetadi. Xarorat 28^0S ushlanib turadi. Bijg‘ish jarayonini tugashini massa tashqi ko‘rinishi orqali aniqlanadi. (uglekisliy gaz chiqishi tugaydi) va spirt miqdori orqali aniqlanadi. Spirt xaydashni boshlang‘ich davrida yetilgan brajka bijg‘ish apparatidan sig‘imda (rezervuar) yig‘ilib, nasos bilan brajka kalonnasiga uzatiladi va bu yerda spirt par holida brajkadan ajralib bardasi kolonkadan tashqariga yem maqsadlar uchun yig‘iladi. Spirt suyuqligi holodilnikda sovutilib miqdori aniqlanadi. So‘ng spirt – sirets (xom) rektifikatsiya kollonkasida yig‘ilib $90-92^0S$ gacha par bilan isitilib rektifikatsiyalanadi. Bu yerda efirlar, alkogidlar ajratib olinadi.

Takrorlash uchun savollar

1.Bijg‘ish sanoatidagi asosiy va ikkilamchi maxsulotlar tavsifi.

2.Solod turlari va ishlatilish soxasi .

3.Nechta bijg‘ish boskichlari mavjud?.

4.Pivo ichimligi turlari va sifati.

5.Pivo ishlab chiqarish sxemasi.

«Tayanch» so‘z va iboralar

Solod, Xmel’, suslo, arpa, pivo sharbati, sof achitqi sharbati, zator, pivo achitqisi, undirish.

14-MA’RUZA. UZUMNI QAYTA ISHLASH KORXONALARI VA USKUNALARI

Reja: *Sharoblarning umumiy tavsifi. Sharob ishlab chiqarish korxonalarining xom ashyosi. Sharob ishlab chiqarish prinsipial sxemasi.*

Tabiiy sharoblar - uzum yoki meva - rezavor sharbatlarni ularni spirtni bijg‘ish yo‘li bilan olinadi. Turli omillar ta’sirida sharbatlarda uzlusiz murakkab fizik – kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar kechadi va tekis yetilganda sharoblar sifatini to‘liq ta’minlaydi. Sharob bu sharbatni spirtli bijg‘ishining murakkab mahsuloti bo‘lib, tashqaridan kislород, achitqilar va m/o, reagentlar ta’sirida olinadi.

Uzumdan sharoblar tayyorlashda chetdan biron bir begona mahsulotlar qo‘sish man etiladi, faqat tasdiqlangan instruksiyada qayd etilganlardan tashqari. Shuning uchun tabiiy uzum sharoblari tabiiy kimyoviy tarkibga ega bo‘lib parxez va davolovchi hususiyatga ega bo‘ladilar.

Hususiyati va quvvati bo‘yicha sharoblarni hamma kategoriyalari bir xil emas. Eng qiymatlisi tabiiy sharoblar bo‘lib ishlab chiqarish jarayonida etil spirti qo‘silmagani hisoblanadi.

Yuqori sifatli va nozik ta’mli va xushbo‘yli xususiyatga ega bo‘lgan sharoblarni pishgan, sog‘lom, yangi yoki ozroq qurigan (40 % qand moddasi bor) uzumlardan olinadi. Chunki xar bir navdagisi uzumlarda o‘zida keraklicha bo‘lgan muhim kimyoviy moddalarni to‘play oladigan biologik xususiyatga egadir.

Sharoblarni sharbatlarni spirtli bijg‘itish yo‘li bilan olinadi. Ishlab chiqarish sanoatida (alkagolsiz ichimliklar) quvvatlangan uzum sharoblaridan foydalilanadi. Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha sharoblar tiniq, loyqasiz, cho‘kmasiz va qo‘srimchalarsiz bo‘lishi kerak.

Mazasi xushbo‘yligi hidi aynan shu sharobga tegishli bo‘lib, buketda qo‘srimcha hidsiz bo‘ladi. Alkogolsiz ichimliklar tayyorlash uchun uzum sharoblaridan tashqari uzumli meva – rezavor sharbat maxsulotlari ... qiladi. Sharobi qayta ishlangan materiallar o‘ziga xos ta’mga va mazaga ega bo‘lishlari kerak. Qayta ishlangan meva – rezavor sharob materiallari – xom ashylari saqlash muddatiga chidamli va shu nomlangan sharobning mazasiga va xushbo‘yligiga ega bo‘lishi kerak.

Qayta ishlangan uzumli sharob xom ashylarni yog‘och idishlarda, emal sisternalarda, zanglamaydigan po‘lat idishlarda, metal va temir beton sig‘imlarda, ichki tomonidan himoya vositasi bilan ishlangan idishlarda saqlanishi zarur

Sharobbop uzum uzoq saqlanmasdan, terilgandan keyin 4 soat ichida qayta ishlanishi shart. Xo‘raki uzumni uzoq muddat saqlashning asosiy usuli bu past xaroratni (0^0 S atrofida) qo‘llanishiga asoslangan. Uzumni muzlatib, qiyomda sovutilgan holda va inert gaz muhitini boshqarib xam saqlash mumkin.

Yangi uzumni saqlashdan maqsad uzoq vaqt davomida uni xayotchanligini yo‘qotmagan holda, xarid sifatlarini pasaytirmasdan sharoit yaratishdan iboratdir. Uzum yaxshi saqlanishi uchun maxsus qog‘ozlarga o‘raladi va dezinfeksiyalanib yuzasidagi mikroorganizmlarni yo‘qotadi yoki ularning rivojlanishini to‘xtatib turadi. Xlorli suv, bura, yod eritmasi, oltingugurt, difenil, orta fenilfenol, kalsiy metabolisulfat dezinfeksiyaluvchi moddalar sifatida keng qo‘llanadi. Uzum purkash, suyuqlikka botirish, tugatish yo‘li bilan yoki kimyoviy moddalar bilan ishlangan qog‘ozlarga o‘rab dezinfeksiya qilinadi. Nordon va quvvatlangan xom sharoblar olish oddioy texnologiyasiga qo‘srimcha bo‘lib tayyor sharoblarga xos maxsuslikni, ta’mida, xidida rangida o‘ziga xos tipiklikni beruvchi ko‘rsatkichlarni shakllanishiga yo‘naltirilgan uslublarni qo‘llashni o‘rgatadi. Bunday texnologiya bo‘yicha tayyorlangan sharoblar «maxsus sharoblar» deb nomlangan. Chet elda etil spirti, konsentrangan yoki spirtlangan sharbat va boshqa material qo‘shib tayyorlangan sharoblar ham «maxsus sharoblar» guruxiga kiradi. Jilvali, nordon, nimnordon xushbo‘ylashtirilgan sharoblarni, musallaslarni, ayrim turlarini nomi ishlab chiqarish joyiga qarab nomlanadi va boshqa noxiyalarda bularni ishlab chiqarish man etiladi.

Musallas (stoloviy) sharoblarini ishlab chiqarish texnologiyasi. Hamma musallas sharoblari va xom musallas sharoblarining tarkibi tabiyligi bilan ajralib turadi. Uлarni ishlab chiqarish sharbat yoki sharobga spirt, qand va boshqa ingridiyentlarni quyish man etilgan. (Ingridiyent-murakkab birikma yoki aralashmaning tarkibidagi modda. Musallas sharoblarini tayyorlashga ko‘p ish kuchi talab qiladi, oksidlanish natijasida va aerob m/o ta’sirida oson buziladi. Shuning uchun doim nazorat ostida bo‘lib, sinchiklab tekshirib turish, past xaroratda saqlab yetiltirish kerak.)

Faqat Xeres musallasi tipidagi xom sharobni quvvatini 16,5 xajm %-ga ko‘tarish maqsadida spirt – rektifikat qo‘sish mumkin. Musallas sharoblarini klassifikatsiyasi: nordon, nim nordon, nim shirin, navli, kupaj, oddiy (odinarno‘y) va sifatli (marochno‘y) sharoblar. Ular oq, qizil va nim pushti rangli uzumdan tayyorlanadi. «Sariq» sharoblar oq uzumdan tayyorlanadigan maxsus oksidlangan musallas sharoblari. [Echmiadzin Arman sharobi, Vengriyaning Tokay va musallas xeresi].

Oq nordon sharoblar bir yoki bir necha oq texnik uzum navlaridan tayyorlanadi: Aligote, Risling, Sovinyon, Fetyaska, Traviner, Kokur oq, Silvaner, Rkatsiteli, Shardone, Pino oq va boshqalar, shuningdek uzum navlaridan bo‘yalmagan sharbati bilan: Pino qora, Kaberne-Sovinyon va oq uslubda qayta ishlanadi. Uzumda qand miqdori titr kislotasi 6-10 gramm/litr bo‘yicha 17 % dan kam bo‘lmasligi kerak.

Sharoblarni sharbatlarni spirtli bijg‘itish yo‘li bilan olinadi. Sharob (alkogolsiz ichimliklar) ishlab chiqarish sanoatida oshxona va quvvatlangan uzum sharoblaridan foydalilanadi. Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha sharoblar tiniq, cho‘kmasiz va qo‘srimchalarsiz bo‘lishi kerak.

Ma‘zasi xushbo‘yligi hidi – aynan shu sharobga tegishli bo‘lib, buketda qo‘srimcha hidsiz bo‘ladi.

Alkogolsiz ichimliklar tayyorlash uchun uzum sharoblardan tashqari uzum meva rezavor sharbat maxsulotlari ishlab chiqariladi. Sharobi qayta ishlangan materiallar o‘ziga xos ta’mga va mazaga ega bo‘lishlari kerak. qayta ishlangan meva rezavor shaob materiallari xom ashylari saqlash muddatiga chidamli va shu nomlangan sharobning mazasiga va xushbo‘yligiga ega bo‘lishi kerak.

Qayta ishlangan uzumli sharob xom ashylarni yog‘och idishlarda, emal sisternalarda, zanglamaydigan po‘lat idishlarda, metal va temir beton sig‘imlarda, ichki tarafidan himoya vositasi bilan ishlangan idishlarda saqlanishi zarur

Kaspiy va Qora dengiz sohilida joylashgan, Kavkaz, o'rta va kichik Osiyo – uzumchilik vatani deb hisoblanadi. Dunyo buyicha uzumchilikni rivojlanishi quyidagidek: uzumchilik maydoni qayta ishlangan uzum Ispaniyada 1,63; 5,34

Italiyada	- 1.1;	
Fransiyada	- 1,06;	9,15
Turkiya	- 0,79;	3,74
AQSH	- 0,35;	5,58
Yugoslaviya	- 0,23;	5,58

Uzumni iste'mol qilishda Italiya birinchi o'rinda bo'lib yiliga 1,5 mln.t. uzum ni istemol kilishga sarflaydi, Tursiya esa - 0,8 mln.t., Gretsya - 300 tonnagacha, Fransiya esa - 200 ming tonna. Yevropada yetishtirilgan uzumni faqat 55%-i iste'mol qilinadi. Dunyo bo'yicha odam boshiga 1,5 -2kg uzum to'g'ri keladi. Italiya va Bolgariyada bu raqam 10-20-li tashkil etadi.

O'zbekistonda uzum yetishtirishni ikki guruxga ajratish mumkun: shimoliy va janubiy.

Shimoliyga Toshkent, Farg'on, Namangan, Andijoi, Xorazm viloyatlari kiradi va bu viloyatlar iqlimda, yetishgirilgan uzum navlari sifatli nordon sharoblar ishlab chiqarishga moslashgan.

Shimoliy noxiyalarga Samarcand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari kiradi. Issik iqlim va qandliligi yuqori miqdorli uzum navlari markali, yuqori sifatli quvvatlangan, desert sharoblarli tayyorlashga imkon beradi. O'zbekistonda xo'raki, kishmishbop va sharobbop uzum navlari yetishtiriladi.

Uzum sharobchilikli yakayu yagona xom ashyosidir. Uzumning shira miqdori rizo tarkibidagi donachalar soshla bog'lik masalan: Bayan Shirey uzum navida donachalari 4-6% tashkil kilsa, qandliligi 17-19% dan oshmaydi.. Kishmish uzum navlari esa urug'i yo'q qandliligi esa 24-26% ga teng.

Jaxonda yetishgirilgai uzumni 85% -i turli tipdagи sharoblar, konyak, alkogolsiz ichimliklar, konsentrati va quritilgan mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Uzum shingilini qattiq qismlarining tabiiy kimyo moddalarga boyligi, sharoblarning tipikligini, turlarini, assortimentini kengaytirishga imkon beradi.

Uzum oson qayta ishlanadi va tayyor maxsulotni sifatini, mazasini va parxez hususiyatlarini ta'minlaydi. Uzum birlamchi qayta ishlash korxonalariga shingili bilan birga avtomashina yoki savat-yashiklarda keltiriladi. Uzumni texnikaviy xossalari uning shingilini, bandini, va boshqa qismlarini tuzilishi bilan tasvirlanadi. Shingilni katta - kichikligi, shakli, zichligi uzum naviga xos bo'lib tashqi sharoitga xam bog'liqdir. Uzum shingilini shakli konussimon, silindrsimon, qanotli, oval va boshqa shakkarda, bo'lib shoxchalarini soni bilan xam ajralib turadi. Uzum shingilini uzunligi 60-ZOmm va eniga 5-190mm bo'lib, tuzilish zichligi uzum donasiii (rizo) kattaligiga, bandini xarakterlovchi uzunchigiga, va boshqa qator ko'rsatkichlarga bog'liqdir. Uzum navini xarakterlovchi ko'rsatkichlaridan biri bu shingil zichligi. Uzum shingilini tuzilishini va texnologik xususiyatlarini tasniflash uchun ikkita kattalik taklif etilgan. Uzumni qayta ishslash bu – uzumni sharobga aylantirishni amalga oshiruvda texnologiya ishlovlar to'plami. Tayyorlanadigan sharob turiga qarab uzum oq yoki qizil uslubda qayta ishlanadi. Oq uslubda uzumni qayta ishlaganda uzumni bandi chetlanadi, uzumni yanchib mezga olinadi, mezgadan o'z navbatida oqim va bosim sharbatlari yumshoq texnologik, tizimda (myagkiy rejim) olinadi. Bu uslubda toza, yengil, sifatli shampan, xeres va konyak xom sharoblari, tayyorlaganda; oq pushti va qizil sharobbop uzumlari qayta ishlab olinadi. Uzumni oq uslubda qayta ishlaganda uzum rezolar xujayralarining qattiq buzilishidan saqlab, yengil sharoblar guruxidagi sharoblarni sifatini buzuvchi (oqsil, fenol, bo'yoq,) ekstraktiv moddalarni uzum postlog'idan sharbatga o'tishini oldini oladigan ishlov va texnologik rejim tanlanadi. Oq xo'raki sharoblar 2-3 yilda uyg'un (garmonichniy), to'liq, mayin tamga boy va original xushbo'ylikga, tilla-xashak rangiga ega bo'ladi. Uzumni oq uslubda qayta ishlaganda butun tsxnologik doira davomida kislorrhodan, mikroorganizmlardan saqlash maqsadida oltingugurt tugatiladi yoki sepiladi. Uzumni oq uslubda qayta ishslash uchun uzviy ishlaydigan liniyalari bor.

Qizil sharoblar kaxetin usuli bilan tayyorlanadi- bunda uzumni po'stlog'i bandi (grebni) ajratilmagan holda ezilgan uzum, (mezga) bijg'itiladi.

Qizil sharbatni tayyorlash to'rtta bosqichdan tashkil topgan


1.Uzumni yanchish. . 2.Sig'inda ezilgan uzumni bijg'itish.

3 Yosh sharobni ajratish. 4. Ishlov berish.

Qizil uslubda uzumni qayta ishslash, uzumni bandi chetlanmasdan yoki chetlanib, yanchiladi, mezgada ma'lum vaqt damlanadi, yoki termovinifikatsiya - termomatserorda ishlovdan o'tadi, yoki mezgada «telpakli» yoki cho'mdirilgan (pogrjnjaya shapka) telpakda bijg'itiladi. Uzum po'stlog'ini tarkibidagi ekstraktiv moddalarni sharbatga, sharobga to'liq, o'tishini maksimal darajada ta'minlovchi mexanik kuchlari, ko'p operatsiyalarda

intensiv rejimlardan foydalaniladi. Qizil quvvatlangan nordon sharoblar tayyorlaganda mezgada bijg‘itish jarayoni maxsus 10-160 ming dal xajmdagi reaktorlardan qo‘llaniladi, ular mezgani qizdirib sovitadigan «rubashka-ko‘ychak» issiqlik almashinuv moslamalari bilan, aralashtiruvchi qurilmalari bilan ta’minlangan.

Uzumni yanchadigan apparat – SDK – sentrobejnaya drobilka – grebneotdelitel. Bu apparatda uzumning bandi ajratib, uzumning o‘zi markazi kuchlari ta’sirida yanchiladi. Yanchilgan – uzum bijg‘ish sig‘indisiga nasos orqali quyiladi. Sig‘indi 4/5 xajmga to‘ldirilib davriylik uslubi bilan bijg‘itilganda 2 – 1,5 protsent toza achitqi turi uzuksiz uslubi bilan 5 – 8 protsent qo‘shiladi. Bijg‘itish davomida suyuqlikni yuzasida uzum po‘stlog‘i, urug‘i va boshqa qo‘pol qismalar tepaga ko‘tarilganda o‘zi bilan olib ketadi va “telpak” xosil qiladi. Telpakni cho‘ktirib bijg‘itish uslubida telpakni ko‘tarilishiga to‘sinqinlik qiladigan to‘r o‘rnataladi. Xarorat 27 – 28 °S 5 kun bijg‘iyotgan sharbatda uzumda tarkibidagi tanin va bo‘yoq, xo‘rakilovchi moddalarni yetarlik miqdori to‘planadi. Bijg‘igandan so‘ng, xo‘raki sharob o‘z oqimi bilan ajratiladi. Ezilgan yashilangan uzum “mezga” magadan o‘z oqimi bilan ajraladigan qismi suslo – samotek, qolgan qismi esa yog‘lik mezga – jirnaya mezga. Yog‘lik mezga maxsus uskuna – stekatelga boriladi undan keyin presslash apparatiga yuboriladi. Presslangan sharobni yana sharob bijg‘ishni davomlash uchun sig‘indilarga yuboriladi.



Pressdan chiqqan qattiq qismi vqjimka bo‘lib undan spirit olinadi va elakdan o‘tkazilib urug‘ga chetlanib quritiladi. Achitqi cho‘kmasidan vino kislotasi olinadi. Sharobga ishlov berishda: sig‘indini vaqt – vaqt bilan to‘ldirish boshqa idishga qayta quyish bentonit SKT, tanin va boshqa moddalar bilan xurushlash xarorat va kislorod ishlovini berish, egalizatsiya va kupaj ko‘zda tutilgan.

Egalizatsiya – bir turdag'i sharoblarni aralashmasi.

Kupaj – turli tipdag'i sharoblarni (quruq quvvatli shirin) spirit va boshqa aralashmasi.

Egalizatsiyani o'tkazishdan maqsad bir turdag'i sharob xajmini ko'paytirish.

Kupajni o'tkazishdan maqsad sharobni meyoriga yetkazish, sharobni kamchiliklarini chetlash va boshqa. Quvvatli sharoblar.

Quvvatlangan va shirasi baland sharoblar o'ziga xos xushbo'yligi va ta'mi bilan xarakterlanadi. Tarkibida qand miqdori ko'p bo'lgan uzumdan shirasi yuqori sharoblar tayyorlanadi. Muskatnoy, Pino – seriy va boshqa. Pishib ketgan uzumdan tayyorlanadi va uning tarkibidagi qand miqdori 24 – 26 – 28 % ga teng. Uzum qayta ishlab sharbat olinadi va sof achitqi ekinidan 5 – 8 % qo'shib bijg'itiladi.

Oq va qizil xo'raki sharoblarining texnologik tuzumining farqi shundaki, quvvatli sharoblarni tayyorlashda texnologik usullardan biri bu sharbatni 5 – 8 % qandini bijg'itib va 5 % spirt to'planganda bijg'ish jarayonini to'xtatish. Bijg'ishni keskin to'xtatish bijg'iyotgan sharbatni sovitib yoki spirtrektifikat qo'shib, spirlash bilan amalgalashadi. Konservalash birligi sharob barqarorligini aniqlaydi. Qandni konservalash birligi 1 – ga teng, spirlarni 4,8 ga teng. Agarda ular jami 80 ga teng bo'lsa demak, sharob konservalash birligiga ega va o'z barqarorligini bildiradi. Yana desert sharoblari susloni ezilgan uzumda 20 – 40 saat saqlash va u bilan isitish yo'li bilan xam tayyorlanadi. Po'stlog'ining xujayralarida joylashgan xidli va bo'yoq moddalarini susloga o'tishi ta'minlanadi. Uzumni qayta ishlab sharbat olinadi va unga sof achitqi ekini qo'shilib bijg'itiladi

Takrorlash uchun savollar

1.Sharoblarning klassifikatsiyasi.

2.Sharob tayerlashdagi yagona xom ashe tavsifi.

Tayanch suz va iboralar

Oq, qizil, ekstraktiv moddalar, sharbat, uzum pustlog'i, mezga, oqim sharbati, oltingugurt, bosim sharbati.

15-MA'RUZA. KONYAK ISHLAB CHIQARISHNING ASOSIY JARAYONLARI.

Reja: Konyak tarkibi va hususiyati. Konyak tayyorlash klassik texnologiyasi.

Konyak - quvvatli alkogol ichimligi bo'lib, maylarni qayta haydab olingen spirtdan va uni uzoq muddat (20 yilgacha) eman bochkalarida yetiltirib tayyorlanadi. Tayyor ichimlikni rangi qahrabo – tilla rangda, yoqimli hidli, vanilin hidi yengil seziladi va o'ziga xos ta'mlidir. Konyak quvvati 40-57 % ga teng. Konyakni o'ziga xosligi, noyob sifat ko'rsatgichlari eman bochkalarida yetiltirish jarayonida shakllanadi.

Konyak sifatiga mayning tarkibi, uni olish texnologiyasi va asosan konyak spirtini yetiltirish sharoiti ahamiyatlidir. Yangi haydalagan konyak spirti yuqori sifatli sharobdan olingen bo'lsa ham rangsiz, yoqimli hidsiz, qo'pol, ta'mida keskinlik seziladi. Faqat eman bochkalarda saqlanish, yetiltirish davrida konyak spirti tilla-jigar rangli, ta'mi yumshoq va nozik muattarlikka ega bo'ladi. Eman yog'ochi nafaqat konyakni ayrim moddalarini manbai hisoblanadi, shu bilan birga kimyoviy jarayonlarini katalizatori hamdir. Konyak spirti saqlash davomida eman yog'ochini 8-12 mm gacha namlaydi, chuqurlikdagi qatlamlarga esa faqat spirtni bug'lari o'tadi. Konyak spirtini yetiltirganda oksidlanish - qaytarilish reaksiyalari faqat eman bochkalarini yog'och bo'shliqlaridan o'tadi degan fikr bor.

Yetiltirish jarayonida yog'ochdan spirtga pirokatexin, pirokatexin efirlari – izoevgenol kabi fenol moddalar o'tadi, ular havo kislordi ta'sirida oksidlanib, konyakka tilla – jigar rang beruvchi moddalar xosil bo'ladi. Fenol moddalar kabi eman yog'ochidan konyak spirtiga ekstraksiya jarayoni natijasida chiqqan moddalar, keyincha vanelin, etilvanelin va boshqa uchuvchan birikmalarga aylanadi, konyakka o'ziga xos xushbo'ylik baxshida etadi. Spirt ta'sirida eman yog'ochni lignining etanolizini kuzatamiz va u oksidlanishga moyil bo'lib qoladi. Lignin asta sekin etanoliz jarayoni natijasida lignindan koniferil yoki siren spirti hosil bo'ladi va piroksidaza fermenti ta'sirida yoki noorganik katalitatorlar yordamida aromatik aldegidlargacha oksidlanadi va vanilin, sirenevo'y aldegid xosil bo'ladi.

Konyak spirti yetilishida kechadigan kimyoviy reaksiyalar kislordi ishtirokida o'tadi. Kislord bochkalar og'zidan (50 %) va yog'ochni bo'shliqlaridan (10 %) o'tadi.

Konyak quvvatli alkogol ichimligi, qahrabo tilla rangli: Konyak spirtini ma'lum muddat eman bochkalarda saqlash yo'li bilan tayyorlanadi. Konyak spirti nordon uzum sharobini distillyatsiyalash (qayta xaydash) mahsuloti. Dastlab konyak Fransiyani Konyak (Sharant departamenti) shaxrida tayyorlangan. Konyak spirtini aroqqa ishlataladigan etil spirtidan farqi shundaki - konyak spirtini tarkibida uchuvchan moddalar ancha ko'p miqdorda bo'ladi – aldegid, efir, uchuvchan kislotalar, yuqori spirtlar. Spirtini tarkibidagi bu qo'shimchalar eman yog'ochining moddalari bilan reaksiyaga kirishib, konyakni organoleptik sifatini shakllanishida asosiy ahamiyatga ega.

Uzum sharobidan distillyatsiya bilan spirt olish va uni asosida quvvatli ichimliklarni tayyorlash Fransiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Ispaniya, Italiya, SSHA va boshqa mamlakatlarda yo‘lga qo‘yilgan. Ichimliklarni nomini nazorat qilish qonuniga ko‘ra bu mamlakatlarda konyak nomini berish noto‘g‘ri, chunki amalda konyakni nomida geografik kelib chiqishini asorati ham qolmagan va konyak ichimlikni bir turi deb tushuniladi. O‘zbekiston ichki bozorida konyak nomi saqlangan, shu bilan birga yangi etiketkalarda konyak ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi ko‘rsatilgan va uning nomi konyak emas, brendi deb nomlangan.

Sharanta konyagini klassik texnologiyasida kubli apparatlarda (Sharant apparati deb nom olgan) sharobni ikki marotaba qayta xaydash yo‘li bilan olingan spirtni eman bochkalarida saqlash ko‘zda tutilgan.

Konyak ishlab chiqarish nohiyasining uzumzorlari Bordo uzumzorlardan janubda joylashgan bo‘lib, ikki departamentini egallagan. Sharanta va Primor Sharantasi konyak ishlab chiqarish nohiyasiga 7 zona kiradi. Eng yaxshilaridan Grand Shampans yoki (Grand Fin Shampans) shaharlardan Konyak, Segonzak va Yarnak. Uzumzorning umumiyligi maydoni 90000 ga yaqin, sharob ishlab chiqarish hajmi 100 mln. dal. Konyak ishlab chiqarish absolyut spirtga hisoblaganda yiliga 1÷2 mln. dalga yetib qoladi.

Konyak ishlab chiqarishga asosan «Oq Fol» va «Kolombar» uzum navlari ishlatiladi. Semilyon, Sovinyon uzum navlaridan 10 % gacha qo‘shish mumkin. Konyak xom sharobini tayyorlashda uzum eziladi, gorizontal yoki gidravlik iskanjalarda bir yoki bir necha marotaba iskanjalanadi. Shnekli iskanjalarni qo‘llash man etilgan. Oqim va bosim sharbatni aralashtiradi. Bijg‘itishdan oldin sharbat sulfitlanmaydi va tinitilmaydi. Kichik korxonalarda bijg‘ish bochkalarida, yirik korxonalarda esa 1000-2000 dal hajmli sig‘imlarda o‘tkaziladi.

Sharantada uzumni oktabrda uzishadi va qayta haydashni 1 dekabrdan boshlashadi. Sharoblarni saqlanish davomiyligi olinadigan konyak spirt sifatiga nisbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki sharob metalldan yasalgan sig‘imlarda saqlanganda tarkibidagi temir miqdori ko‘payishi bilan oksidlanish jarayoni keskin kuchayadi. Yosh xom sharob yaxshi tinmagan cho‘kma bilan birga xaydaladi. Spirt-sirets olishda achitqili xom sharoblar qo‘llaniladi (7-8 % achitqi loyqa). Bu uslub konyak spirtiga enant efirini oshiqcha miqdorda bergenligi sababli, unda mashhur fransuz konyaklariga xos tuslari paydo bo‘ladi.

Qayta haydash – sharant alambik 1 kubli davriylik ko‘rsatuvchi apparatda olib boriladi. Sharob kubga quyiladi va qayta haydashdan chiqqan spirt-sirets deyiladi. Bu jarayon uch marotaba takrorlanadi. Olingan spirt-siretsni uchta partiyasi assambyaj qilinadi, aralashma qayta qaynatiladi va spirt uchta qismga ajratib olinadi: bosh, o‘rtalik va dumli fraksiyalar.

Konyak tayyorlashda o‘rtalik fraksiyalari olinadi va saqlashga beriladi.

Sharantada qo‘llaniladigan qayta haydash uslublari turlidir. Ayrim holda, xushbo‘ylici kuchli konyak spirtini tayyorlash uchun sharobga distillyatni oxirgi (dumli) fraksiyasi qo‘shiladi va u bilan birga qayta haydaladi. Ammo, bunday olingan spirt –siretsni quvvati baland bo‘lganligi uchun, bu uslub kam ishlatiladi.

Spirt –siretsni quvvati 30 % dan baland bo‘lsa, undan kamdan kam yaxshi konyak spirtini olish mumkin. Nordon sharobni dastlabki quvvati 10-11 x % bo‘lgan bo‘lsa undan olingan spirt-siretsni quvvati 30-32 xatto 35x % bo‘lishi mumkin. Uning quvvati faqat toza, yumshoq suv bilan suyultirilib 29x % ga yetkaziladi, lekin qo‘shiladigan suvning hajmi 10 % dan ko‘p bo‘lmashligi kerak. Boshqa holda spirt siretsiga dastlabki qayta xaydashdagi bosh va oxirgi fraksiyalar qo‘shiladi. Distillyatni quvvati 58x% yetishi bilan, o‘rtalik fraksiyani olishni boshlaymiz. Spirtni quvvati 70,5-71x % ga yetishi bilan o‘rtalik fraksiyani olishni to‘xtatishadi. (≤ 57). Bu qoidaga rioya qilmaslik quo‘o‘ati 58-60x % lik spirtda oxirgi fraksiyasi xos yoqimsiz tuslarni kelib chiqishiga olib keladi.

Konyak spirti yer yuzasidagi xonalarda eman bochkalarida (hajmi 220 l) saqlanadi. Eman bochkalarini yasashda faqat Limu emanidan foydalaniladi. 40-50 yoshlik dubdan eng yaxshi klyonka yasaladi; bochkalarini to‘lg‘izganda 2 litr kam quyiladi.

O‘zbekistonda konyak ishlab chiqarish urush yillardan so‘ng rivoj topdi. Konyak ishlab chiqarish uchun qulay rayonlar: Toshkent, Surxondaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlaridir. Bayan-Shirey, Baxtiori Parkent uzum navlaridan yaxshi konyak xom sharobi tayyorlash mumkin. Toifi, Nimrang, Rkatsiteli, Kuljinskij, Aligote uzumlaridan xam konyak xom sharobini olish mumkin. (Samarqand, KV-O‘zbekiston, Xalqobod).

Konyak texnologiyasi konyak xom sharobini tayyorlash, konyak spirtini olish, uni saqlash va konyak tayyorlashdan iborat.

Konyak xom sharobi oq, pushti, qizil uzum navlaridan oq sharoblarga uzumni qayta ishlash texnologiyasidan tayyorlanadi. qayta ishlashga faqat sog‘lom uzum beriladi. Sharbatni tindirganda sulfitlanmaydi. Bijg‘ish haroratini 16-25°C saqlash kerak.

Konyak ishlab chiqarishda qo‘llanadigan xom sharobni quvvati 8x %-kun, titrlanadigan kislotaliylik 1,5 g/l dan aniq, uchuvchan kislotalar 1,3 g/l dan kam va umumiyligi SO_2 miqdori – 15 g/l kam. Ularning rangi och-hashak rengidan to‘pushtigacha, begona hidsiz va ta’msiz. Xom sharoblar yaxshi tinmagan, tarkibida 2% gacha achitqi bo‘lishi kerak. Kam quvvatli xom sharoblarni saqlash qiyin, konyak spirti oladigan konyak moslamasini unumdorligi pasayadi va saqlashga ko‘p sig‘im talab qiladi.

Konyak xom sharoblarini olishda SO_2 ni miqdorini chegaralanishining sababi qayta xaydalganda SO_2 tioefir hosil qiladi, u yoqimsiz hid beradi va amalda uni chetlash qiyin. SO_2 oksidlanishi natijasida kubda H_2SO_4 paydo bo'lib, kubni karroziyaga (zanglashiga) olib keladi. Konyak spirtida SO_2 uchrasa qator birikmalar hosil bo'ladi. Ular spirt ta'mini va xushbo'yligini buzadi. SO_2 emandan oksidlantirmaydi, bu esa oksidlanish o'zgarishlariga to'siq bo'ladi. To'la SO_2 dan qutulish qiyin, chunki u bijg'ish jarayonida achitqi xam xosil qiladi. Shuning uchun konyak ishlab chiqarishda SO_2 ni kam beruvchi achitqi rasalari qo'llanadi.

Konyak xom sharobini va undan olingen spirtini oshirish uchun, sharbatni mezgada tinitish, bandini fermentlab bijg'itish achitqida saqlash tavsiya etiladi. Bu uslublar xom sharobni terpenoid moddalari, uchuvchan fenollar, laktон va boshqa birikmalar bilan boyitadi. Ularni kub ichida qayta xaydaganda o'zgarishlari, yangi birikmalarni xosil bo'lishida, ularni konyak spirtini shakllanish jarayonida ishtirok qilishi mumkin.

Achitqili xom sharobni qayta xaydashda ishlatganda konyak spirti enant efiriga (uni tarkibiga etil kaprilat, etil kaprinat, etil laurat, etil maristat kiradi) o'tishini ta'minlaydi. Fransuz konyaklariga xos bo'lgan «sovun» ta'mini aynan shu enant efiri beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.N.I.Nazarov i dr. Obshaya texnologiya pishevix proizvodstv.-M.: Legkaya i pishevaya promishlennost, 1981.-360 s.
- 2.U.X.Xalimova. O‘simlik yog‘lari ishlab chiqarish texnologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1982. -246 b.
- 3.M.G.Vasiyev, M.A.Vasiyeva. Non, makaron va qandolat maxsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi. –T.: 2002.
- 4.P.M.Malsev. Texnologiya brodilnix proizvodstv. –M.: Pishevaya promishlennost, 1980. -360 s.
- 5.P.Y.Bachurin, V.A.Smirnov Texnologiya likero-vodochnogo proizvodstva. –M: Pishevaya promishlennosit, 1975.-256 s.
- 6.T.X.Ikromov, O‘.R.Qo‘chqorov. Chorva, parranda va baliq mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi. –T.: Sharq, 2001. -285 b.
- 7.Rukovodstvo po metodam issledovaniya, texnoximicheskemu kontrolyu i uchyotu proizvodstva. – L.: VNIIJ, 1987, 1-tom.
- 8.L.I.Puchkova. Laboratorniy praktikum po texnologii xlebopekarnogo proizvodstva. –M.: 1971, «Pish.prom.» -192s.
- 9.L.V.MuravitskaY. Texnoximicheskiy kontrol pivovarenngogo i bezalkogolnogo proizvodstv i osnovi upravleniya kachestvom produksii. –M.: 1987, «Agroprom», -256 s.
10. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2012. – 440 b.
11. Gavrilenko I.V. Uzluksiz ishlaydigan ekstraktorlarda paxta yog‘i olish (tarjimon Umarov A.). – Toshkent: “O‘zdavnashr”, 1961. – 124 b.
12. Yormatova D.YO. Moyli ekinlar.–Samarqand.:“Zarafshon”,2004. – 240 b.
13. Ilxamjanov P. O‘simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi (Ma’ruzalar matni). – Toshkent: TTKI, 2013. – 205 b.
14. Ilxamjanov P., Ergasheva M., Sulaymonov O. Yog‘- moy sanoati korxonalari qurilma va uskunlari. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 176 b.
15. O‘zR “Yog‘moytakisisanoat” Uyushmasi. Yog‘-moy mahsulotlari i/chiqarishdagi xom ashyo va materiallar sarfi, chiqindilari va yo‘qolishlari, xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotni saqlash va tashishda tabiiy kamayishi MEYOR VA MEYORIY XUJJATLAR TO‘PLAMI. – L.: 1980. – Toshkent: “OFSETPLAST”, 2004. – 100 b.
16. O‘zR “Yog‘moytakisisanoat” Uyushmasi. Yog‘-moy sanoati korxonalarida xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish bo‘yicha YO‘RIQNOMA. – M.: 1980. – Toshkent: “OFSETPLAST”, 2004. – 155 b.
17. Qodirov Y. Yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 240 b.
18. Pod red. A.G.Sergeyeva. Rukovodstvo po texnologii polucheniya i pererabotki rastitelnix masel i jirov. – L.: VNIIJ;
19. Tom I. Proizvodstvo rastitelnix masel. 1960. – 720 s.
20. Tom IV. Vipusk 1. Dopolniteln. materiali k tomam I, II, III. 1962. – 174 s.